


**MANTIQUIY TAFAKKURNI  
SHAKLLANTIRISH**

**MODULI BO'YICHA**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



**SAMARQAND-2022**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIMI  
VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH  
BOSH ILMIIY-METODIK MARKAZI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
MINTAQAVIIY MARKAZI**

**“MANTIQUIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH”**

**MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV-USLUBIIY MAJMUA**

**Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Falsafa**

**Samarqand -2022**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil “7”-dekabrdagi 648-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchilar:** Samarqand davlat universiteti falsafa kafedrası professori S.Karimov, professor Sh.Qo‘shoqov, dotsent M.Allayorova, dotsent M.Ergasheva.

**Taqrizchilar:** Samarqand davlat universiteti falsafa kafedrası professori B.Turaev.

**Xorijiy ekspert:** Xo‘jand davlat universiteti madaniyatshunoslik kafedrası dotsenti, f.f.n. R.T.Usanov (Tojikiston Respublikasi).

O‘quv-uslubiy majmua Samarqand davlat universiteti ilmiy-metodik kengashi (2020 yil “28”-dekabrdagi 4- sonli bayonnomasi).

## MUNDARIJA

I.	MODULNING IShChI DASTURI.....	5
II.	INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	10
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	16
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	67
V.	GLOSSARIY.....	109
VI.	ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	113
VII.	EKSPERT XULOSA.....	116

## I. Modulning ishchi dasturi

### KIRISH

Mazkur dastur rivojlangan xorijiy davlatlarning oliy ta'lim sohasida erishgan yutuqlari hamda orttirgan tajribalari asosida "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari, Falsafa" qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishi uchun tayyorlangan namunaviy o'quv reja hamda dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Jamiyat taraqqiyoti nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksakligi bilan, balki bu salohiyat har bir insonning kamol topishi va uyg'un rivojlanishiga qanchalik yo'naltirilganligi, innovatsiyalarni tadbiq etilganligi bilan ham o'lchanadi. Demak, ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, pedagoglarni zamonaviy bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, chet el ilg'or tajribalarini o'rganish va ta'lim amaliyotiga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. "Dunyo dinlari tarixini qiyosiy o'rganish" Moduli aynan mana shu yo'nalishdagi masalalarni hal etishga qaratilgan.

#### **Modulning maqsadi va vazifalari**

"Mantiqiy tafakkurni shakllantirish metodikasi" Modulini o'qitishdan maqsad: oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari bilan Falsafa Modulini o'qitish jarayonida ahamiyat berish lozim bo'lgan masalalar, Modulni o'rganish va tahlil qilishga qaratilgan ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish orqali ushbu yo'nalishdagi ta'lim jarayonini muvofiqlashtirish va mazmunan boyitish, Dunyo dinlari tarixini qiyosiy o'rganish bo'yicha ma'lumotlarni berish samaradorligini oshirishga yordam beradigan zamonaviy yondashuvlar bilan hamda pedagogik va axborot texnologiyalar bilan tanishtirish, ma'naviyat asoslari sohasida yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini oshirish.

#### **Modulning vazifalari:**

- Falsafa yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;
- zamonaviy talablarga modulli tizimga mos holda oliy ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- Falsafa sohasi pedagoglari tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;
- Falsafa sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish;
- Falsafa ning ijtimoiy hayot va konfessiyalararo muammolarini o'rganishning zamonaviy tendensiyalarini ishlab chiqish;
- Falsafa yo'nalishlarida jahon dinlarini qiyosiy o'rganishning globallashtirish va diniy jarayonlar kontekstidagi masalalarni baholash;

- Falsafa yoʻnalishida oʻquv jarayonini fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini taʼminlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

### **Modul boʻyicha tinglovchilarning bilimi, koʻnikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qoʻyiladigan talablar**

“Dunyo dinlari tarixini qiyosiy oʻrganish” kursini oʻzlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

“Kredit modul tizimi va oʻquv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”, “Taʼlim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, “Maxsus maqsadlarga yoʻnaltirilgan ingliz tili” modullari boʻyicha tinglovchilarning bilim, koʻnikma va malakalariga qoʻyiladigan talablar tegishli taʼlim sohasi boʻyicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qoʻyiladigan umumiy malaka talablari bilan belgilanadi.

Mutaxassislik fanlari boʻyicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, koʻnikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega boʻlishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- Oʻzbekistonda Falsafa fanining yangi taraqqiyoti, mustaqillikdan keyin Oʻzbekistonda dinlarni oʻrganishga munosabatning oʻzgarishi va fanning taʼlim jarayoniga jalb etilishi muammolarini va uning rivojlanish istiqbollari;

- jahonda dinlarni oʻrganish tajribasi, globallashtirish davrida dinlarni oʻrganishning dolzarbligi, dinlarni oʻrganishdagi zamonaviy qarashlar va Falsafa fanining joriy holati va istiqboldagi vazifalarini;

- dinlarni oʻrganishning sharqona uslubi, bugungi kunda musulmon mamlakatlarida Falsafa fanining oʻqitilish yoʻllari boʻyicha salohiyatni oshirib borish borasida muntazam ishlashni;

- Falsafa yoʻnalishida Markaziy Osiyo olimu ulamoalarining islom ilmlariga qoʻshgan hissasini va ijtimoiy hayot hamda diniy jarayonlar mohiyatini;

Falsafa fanlarida foydalaniladigan zamonaviy amaliy dasturlar majmualarini *bilishi* kerak.

#### **Tinglovchi:**

- Falsafa fanining oʻqitish boʻyicha yangi texnologiyalarni amaliyotda qoʻllash;

- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib diniy manbalarni bagʻrikenglik jihatidan oʻrganish, diniy manbalar: muqaddas yozuvlar, moddiy manbalar, sharhlar tadqiqi usullari boʻyicha ilmiy-tadqiqotlarni oʻtkazish;

- Qurʼoni karim va hadislarida keltirilgan turli dinlar, dinlarni oʻrganishning sharqona uslubi, musulmon mamlakatlarida Falsafa fanining oʻqitilishini tahlil qilish va aks ettirish, xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash, tavsiyalarini ishlab chiqish;

- Abu Rayhon Beruniy asarlarining Falsafa ni oʻrganishdagi oʻrni, diniy manbalarni bagʻrikenglik jihatidan oʻrganish, muqaddas yozuvlar, moddiy manbalar, sharhlar, tadqiq usullari boʻyicha ilgʻor tajribalardan foydalanish;

- oʻz ustida ishlab, fanning yangi tadqiqotlarini oʻqitish tizimiga qoʻllash;

- Falsafa boʻyicha maʼruza, amaliy mashgʻulot va nazorat ishlarini tashkil etish;

- pedagogik jarayonda muloqot uslublarini toʻgʻri qoʻllay olish *koʻnikmalariga* ega

bo'lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- Falsafa fanida axborot-kommunikatsion texnologiyalarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan qo'llash;

- dinlarni o'rganishdagi zamonaviy qarashlar, Sharq allomalarining asarlaridagi Falsafa masalalari bo'yicha zamonaviy yo'nalishlarni ishlab chiqish va ommalashtirish;

- Falsafa fanini ijtimoiy-ma'naviy sohalarga tatbiq qilish;

- Falsafa fanlarida dasturlar paketi yordamida muammolarni o'rganishning zamonaviy usullarini qo'llash *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

**Tinglovchi:**

- Falsafa fanlarining dasturlar paketini o'quv jarayoniga tatbiq etish;

- Falsafa fanlari dasturlari paketi yordamida yechishning zamonaviy masalalarini tahlil qila olish;

- Falsafa bo'yicha kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo'lish;

- Falsafa videodarslarni tayyorlash;

- egallangan tajribani tanqidiy ko'rib chiqish qobiliyati, zarur bo'lganda o'z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o'zgartira olish;

- Falsafa fanida tizimli tahlil usulidan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish.

- Falsafa fanlarining dolzarb masalalariga oid zamonaviy manbalardan foydalana olish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

**Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ilg'or xorijiy mamlakatlarda biologiya o'qitishni tashkil qilishning xorijiy tajribalarni o'rganish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar. So'nggi yillarda Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari, Falsafa sohasidagi yutuqlar va istiqbollar oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim jarayonining mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

**“Mantiqiy tafakkurni shakllantirish metodikasi” modulining soatlar bo‘yicha taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat				Ko‘chma mashg‘ulot
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			
			Jami	jumladan		
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	
1.	Tafakkur — mantiq fanining o‘rganish ob’ekti.	4	4	2	2	
2.	Mantiq fanining fikrlash madaniyatini o‘stirishdagi ahamiyati.	4	4	2	2	
3.	Tafakkur qonunlariga rioya qilish – bilishda haqiqatga erishish sharti.	4	4	2	2	
4.	Dalillarga tayangan holda fikr yuritish- ilmiy bilishning mantiqiy asosi. Mantiqiy paradoks.	4	4	2	2	
5	Ilmiy muammo tushunchasi. Mantiqiy tahlil va uning strukturasi. Mantiqiy bog‘liqlik.	4	4	2	2	
<b>Jami:</b>		<b>20</b>	<b>20</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>0</b>

**NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

**1-Mavzu: Tafakkur — mantiq fanining o‘rganish ob’ekti.**

Jahonning ilg‘or oliy ta‘lim maskanlarida tafakkurni o‘rganish va o‘qitish tajribalari. O‘zbekistonda tafakkurni qiyosiy o‘rganish muammolari.

**2-Mavzu: Mantiq fanining fikrlash madaniyatini o‘stirishdagi ahamiyati.**

Mantiqni o‘rganishda Sharq allomalarining yondashuvlari. Abu Rayhon Beruniyning “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari Falsafa sohasida muhim manba.

**3-Mavzu: Tafakkur qonunlariga rioya qilish – bilishda haqiqatga erishish sharti.**

Tafakkurni tasniflashda G‘arb olimlarining qarashlari. Yevropotsentrizm ta’siri.

**4-Mavzu: Dalillarga tayangan holda fikr yuritish-ilmiy bilishning mantiqiy asosi. Mantiqiy paradoks.**

Mantiqiy paradoks. Ilmiy muammo tushunchasi. Mantiqiy tahlil va uning strukturasi. Mantiqiy bog‘liqlik.

**5-Mavzu: Ilmiy muammo tushunchasi. Mantiqiy tahlil va uning strukturasi. Mantiqiy bog‘liqlik.**

Mantiqni o‘rganishda manbalardan foydalanish masalalari. Ma’naviy hayotda mantiqning tutgan o‘rni.



## **AMALIY MASHG'ULOTLAR**

**1-Amaliy mashg'ulot.** Tafakkur — mantiq fanining o'rganish ob'ekti.

**2-Amaliy mashg'ulot.** Mantiq fanining fikrlash madaniyatini o'stirishdagi ahamiyati.

**3-Amaliy mashg'ulot.** Tafakkur qonunlariga rioya qilish – bilishda haqiqatga erishish sharti.

**4-Amaliy mashg'ulot.** Dalillarga tayangan holda fikr yuritish-ilmiy bilishning mantiqiy asosi. Mantiqiy paradoks.

**5-Amaliy mashg'ulot.** Ilmiy muammo tushunchasi. Mantiqiy tahlil va uning strukturasi. Mantiqiy bog'liqlik.

## II. INTREFAOL TA'LIM METODLARI

### “SWOT-tahlil” metodidan foydalanish

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• кучли томонлари
<b>W – (weakness)</b>	• заиф, кучсиз томонлари
<b>O – (opportunity)</b>	• имкониятлари
<b>T – (threat)</b>	• тўсиқлар

**Namuna:** Ana’naviy va zamonaviy ta’lim shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

Oddiy ma’ruzada ma’ruzachi talabalar, tinglovchilarga ko‘p ma’lumot bera oladi	Muammoli ma’ruzada kamroq ma’lumot beriladi, biroq ular talabalar ongiga singdirib beriladi
O‘qituvchi asosan o‘zi va a’lochi, qiziquvchi talabalar bilan gaplashadi, ya’ni darsda oz sonli talabalar qamrab olinadi	Muammoli ma’ruzada ko‘p sonli talabalar, tinglovchilar qamrab olinadi
Oddiy ma’ruzada faqat o‘qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma’lumotlari atrofida gaplashiladi	Muammoli ma’ruzada muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g‘oyalar tutilishi mumkin.
O‘qituvchi uchun asosiy to‘siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, talaba uchun qiziqmasa ham o‘qituvchini eshitib o‘tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, talabalarni mavzudan chetga burishga intilishlari

## Rezyume, Veer metodidan foydalanish

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida foydalanish mumkin.

### Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади;



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва

**Namuna:**

Etika va estetikadan malaka talablari					
Sobiq standartlar		Amaldagi standartlar		Takomillashtirilgan standartlar	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

## “FSMU” metodidan foydalanish

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiyl xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

### Namuna.

**Fikr:** “Etika va estetikadan malaka talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta’lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.


## Venn Diagrammasi metodidan foydalanish


**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralarda ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

**Namuna: Etika va estetikani turli yo‘nalishlarda o‘qitishning farqli jihatlarini o‘ziga xosliklari**





Ўқув жараёнида муаммолар ва муаммоли вазиятларни ечишга йўналтирилган интерфаол методлар

*“SWOT-универсал таҳлил”*

*“Дебат”,*

*Муаммоли вазият яратиш*

*“Резюме”,*

*“Т-чизмаси”,*

*“Венн диаграммаси”,*

*“Органайзер”,*

Ҳар хил чизмалар, жадваллар ёрдамида амалга ошириладиган интерфаол методлар:

### III. NAZARIY MATERIALLAR

(10 soat ma'ruza)

**1-Mavzu: Tafakkur — mantiq fanining o'rganish ob'ekti.**

**REJA:**

*1. Tafakkur - mantiq ilmining o'rganish ob'ekti*

*2. Tafakkur shakli va tafakkur qonuni tushunchalari*

Jahonning ilg'or oliy ta'lim maskanlarida tafakkurni o'rganish va o'qitish tajribalari. O'zbekistonda tafakkurni qiyosiy o'rganish muammolari.

#### *1. Tafakkur - mantiq ilmining o'rganish ob'ekti*

Mantiq (logika) eng qadimgi fanlardan biri bo'lib, uning asoschisi yunon faylasufi Aristoteldir. Logos atamasi grek tilida «fikr», «so'z», «aql», «qonuniyat» kabi ma'nolarni ifodalaydi. «Mantiq» atamasi logika terminiga ekvivalent xisoblanadi. Mantiq (logika) atamasi quyidagi ma'nolarda qo'llanadi: birinchidan, ob'ektiv olam qonuniyatlarini ifodalashda (masalan, «ob'ektiv mantiq», «narsalar mantig'i» kabi iboralarda); ikkinchidan, har bir insonning o'ziga xos tafakkurlash usulini, fikrlar o'rtasidagi aloqadorlikni anglatishda (masalan, «sub'ektiv mantiq» iborasida) va uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan ma'nosida.

Mantiq ilmining o'rganish ob'ektini tafakkur tashkil etadi. «Tafakkur» ham arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilidagi «fikrlash», «aqliy bilish» so'zlariga teng ma'noli tushuncha sifatida qo'llaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Bilish voqelikning, shu jumladan, ong hodisalarining inson miyasida sub'ektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iborat. Bilish jarayonining asosini va oxirgi maqsadini amaliyot tashkil etadi. Bilish murakkab, ziddiyatli, turli xil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir. Bu jarayonni shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin: hissiy bilish va aqliy bilish. Hissiy bilish (sezgi organlari vositasida bilish) uning dastlabki bosqichi bo'lib, unda inson sezgi organlari yordamida predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari va munosabatlari haqida ma'lumotlarni oladi. Sezgi, idrok va tasavvur hissiy bilish shakllari xisoblanadi.

Hissiy bilishga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Hissiy bilishda ob'ekt (voqelik) sub'ektga (insonning sezgi organlariga) bevosita ta'sir etadi.
2. Hissiy bilish shakllari: sezgi, idrok va tasavvur predmetning tashqi xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradi.
3. Hissiy bilish shakli predmetning yaqqol obrazini xosil qiladi.
4. Hissiy bilish har bir konkret insonning sezish qobiliyati bilan bog'liq tarzda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.
5. Hissiy bilish bilishning dastlabki va zaruriy bosqichi hisoblanadi, usiz bilish mavjud bo'la olmaydi. Chunki, inson tashqi olam bilan sezgi organlari orqali



bog‘langan bo‘lib, bilishning keyingi bosqichida sezgilari bergan ma‘lumotlarga tayanadi.

Hissiy bilish imkoniyatlari chegaralangan bo‘lib, unda mavjud predmetlar o‘rtasidagi aloqadorlik o‘rganilmaydi, predmetlarning umumiy va yakka, muhim va nomuhim, zaruriy va tasodifiy xususiyatlari farq qilinmaydi, mohiyati aniqlanmaydi. Hissiy bilish tafakkur (aqliy bilish) bilan uzviy bog‘liq.

Tafakkur yordamida buyum va hodisalarning mohiyatini tushunishga erishiladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichi - ratsional (lotincha ratio – aql) bilish bo‘lib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya‘ni qonuniy bog‘lanishlar aks ettiriladi. Aqliy bilish, tafakkurlash quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Tafakkurda voqelik mavhumlashgan va umumlashgan holda in‘ikos qilinadi. Umumiy belgilarni aniqlash predmetlar o‘rtasidagi munosabatlar va bog‘lanish usullarini o‘rnatishni taqozo etadi. Turli xil predmetlar fikrlash jarayonida o‘xshash va muhim belgilariga ko‘ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa ularning mohiyatini tushunish, ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarni bilish imkoniyati tug‘iladi. Masalan, “o‘simlik” tushunchasida barcha o‘simliklar bitta mantiqiy sinfga birlashtirilib, ularga xos muhim, umumiy hususiyatlar (masalan, xujayradan tashkil topganligi) bilib olinadi.

2. Tafakkurda mavjud bilimlarga tayangan holda yangi bilimlar hosil qilinishi mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqsa, xulosa chiqarishda aniq namoyon bo‘ladi. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, ob-havoning o‘zgarishiga qarab olinadigan xosil miqdori haqida fikr yuritish mumkin. Demak, tafakkurda borliq nafaqat bevosita, balki bilvosita ham aks eta oladi.

3. Tafakkur insonning ijodiy, konstruktiv faoliyatidan iborat. Bilish jarayoni borliqda real mavjud bo‘lmagan narsalarni fikrda yaratish, tushunchalarni shakllantirish, turli xil formal sistemalarni qurish orqali amalga oshadi. Natijada predmet va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o‘rganish, hodisalarni oldindan ko‘rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

4. Tafakkur til bilan uzviy bog‘liqdir. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda – moddiy hodisada (tovush to‘lqinlari, grafik chiziqlari, qo‘l harakatlarida) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o‘zaro fikr almashish vositasiga aylanadi.

Bilish jarayonida hissiy va aqliy bilish o‘zaro ta’sirlashib, bir-birini to‘ldiradi, boyitadi.

## ***2.Tafakkur shakli va tafakkur qonuni tushunchalari***

Tafakkur tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shaklida mavjud bo‘ladi. Inson bilish jarayonida buyum va hodisalar, ularning sifat, xususiyatlari haqida tushunchalar xosil qiladi, fikr-mulohaza yuritadi, ularni mantiqiy bog‘lab, xulosalar xosil qiladi. Bu jarayonni tushunish uchun tafakkur shakli va tafakkur qonuni nima ekanligini bilib olish zarur.

**Tafakkur shakli fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog‘lanish usuli, uning strukturasi (tuzilishi)dir.** Fikrlash elementlari deganda, predmetning fikrda ifodalangan belgilari haqidagi axborotlar tushuniladi. Masalan, “mening onam”

tushunchasida bizni dunyoga keltirgan, boqib katta qilgan, tarbiyalagan ayol aks etadi. Agar tushuncha (mening onam) aks ettirayotgan predmetni A bilan, unda fikr qilinayotgan muhim belgilarni, ya'ni fikrlash elementlarini a, v, s, ..., n bilan belgilasak, tushunchaning mantiqiy strukturasi A (a, v, s, ..., n) shaklida simvolik tarzda ifodalash mumkin.

Hukm (mulohaza)larda predmet bilan uning xossasi, predmetlar o'rtasidagi munosabatlar, predmetning mavjudligi haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklda ifoda etiladi. Masalan, "Hunarli kishi – xor bo'lmas" degan hukmda predmet (hunarli kishi) bilan uning xossasi (xor bo'lmas) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. "Adxam Karimning ukasi" degan hukmda ikkita predmet (Adxam va Karim) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jihatdan turli xil bo'lgan bu hukmlar tuzilishiga ko'ra bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (S) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (P) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan, ya'ni R ning S ga xosligi tasdiqlangan. Umumiy holda hukmning mantiqiy tuzilishini S—R formulasi yordamida ifoda etish mumkin. Tushuncha va hukmni farqlashda ularning shakli e'tiborga olinadi. Masalan: a'lochi o'quvchi(tushuncha) va o'quvchi a'lochidir (hukm).

Xulosa chiqarishda ham uning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli mavjud bo'lib, unga ko'ra o'zaro mantiqan bog'langan xukmlardan yangi bir hukmni xosil qilish mumkin.

Masalan, Hunarli kishi hayotda o'z o'rnini topadi. Do'stimning hunari bor.

Demak, do'stim hayotda o'z o'rnini topadi. yoki Aqlli insonlar avval o'ylab, keyin gapiradilar Demak, avval o'ylab, keyin gapiradiganlar aqlli insonlardir.

Bu xulosa chiqarish yo'llari turlicha bo'lishiga qaramasdan, bir xil mantiqiy strukturaga ega. Har ikkalasida ham xulosa chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qilayotgan hukmlardan xulosa mantiqiy bog'liqlik mavjud bo'lgani sabab xosil qilindi.

Yuqoridagi misollar tafakkur shakli fikrning konkret mazmuniga nisbatan mustaqil holda mavjud bo'lishini va o'ziga xos qonuniyatlarga egaligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham mantiq ilmida tafakkur shakli alohida olib o'rganiladi.

Fikrning chin bo'lishi va shakl jihatdan to'g'ri qurilishi ishonchli bilimga erishishning zaruriy shartlaridan biridir. O'zi ifoda qilayotgan predmetga muvofiq keluvchi fikr chin hisoblanadi (masalan, paxta-yumshoq). Predmetga mos kelmaydigan fikr xato fikrdir (masalan, suv – suyuqlik emas»). Fikrning to'g'ri yoki xato bo'lishi uning mazmuniga tegishli xususiyatdir.

Fikrning chin bo'lishi formal jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishiga ham bog'liq. Bu xususiyat fikrning shakliga taalluqli bo'lib, tafakkurda hosil bo'ladigan turli xildagi mantiqiy amallarda o'z aksini topadi. Fikr chin bo'lib, shakliga ko'ra xato bo'lishi, va aksincha, fikr xato bo'lishi, lekin shakliga ko'ra to'g'ri tuzilgan bo'lishi mumkin.

**Tafakkur qonuni muhokama yuritish jarayonida qatnashayotgan fikrlash elementlari o'rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat.** Fikrni to'g'ri qurishga tafakkur qonunlari talablariga rioya qilgandagina erishish mumkin.

Bu talablarga birinchi navbatda, ularning muayyan prinsiplar, qoidalar tarzida, ya'ni to'g'ri tafakkur prinsiplari sifatida amal qilinishi kiradi. To'g'ri tafakkur prinsiplarining buzilishi muhokamaning noto'g'ri qurilishiga sabab bo'ladi. Bunda, chin fikrlardan xato xulosa chiqishi (masalan, "Do'konga mol keldi. Mol – uy xayvoni.

Demak, do‘konga uy xayvoni keldi.”) yoki xato qurilgan muhokamadan chin xulosa chiqishi mumkin. Tafakkur shakli va qonunlarini bilish va ulardan to‘g‘ri foydalanish bilish jarayonining samarali bo‘lishini ta‘minlaydi.

**Formal mantiqning predmeti, muammolari** uning falsafiy fan ekanligi bilan belgilanadi. Shu bois falsafaning azaliy muammosi hisoblanmish odam va olam munosabati bilan bog‘liq bilish, haqiqat, unga erishish masalasi mantiq fanining ham asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Mazkur fan umuman tafakkurni emas, balki uning asosiy shakllari va qonunlarini o‘rganadi. Tafakkurning ushbu jihatini o‘rganish to‘g‘ri, mantiqiy fikr yuritishning zaruriy shartidirki, busiz haqiqat, chin bilimlarga erishib bo‘lmaydi.

«Haqiqat nima, unga qanday qilib erishiladi?», «Haqiqatning mezonini nima?» degan savollarga javob topish uchun barcha davrlarda faylasuf, mantiqshunoslar bosh qotirib kelganlar va bunda, asosan, masalaning echimiga idealistik va materialistik qarashdan turib yondashganlar.

Ob‘ektiv idealizmning asoschisi Platon (Aflotun) haqiqatni fikrning «g‘oyalar dunyosi»ning «soya»si bo‘lgan buyum, predmetlarga muvofiq kelishidir, deb tavsiflaydi. «Kim agar buyum qanday bo‘lsa, shunga -muvofiq gapirsa,- deb yozadi faylasuf,- u haqiqatni aytgan va aksincha bo‘lsa, yolg‘on, xato gapirgan bo‘ladi».<sup>1</sup>

Aristotel(Arastu) o‘z salafining fikrini yanada konkretlashtiradi: «Kimki yo‘q narsaning mavjudligi haqida gapirsa yolg‘onni, lekin mavjud narsani bor, mavjud bo‘lmagan narsani yo‘q, deb tasdiqlasa, haqiqatni aytgan bo‘ladi».<sup>2</sup> Platon va Aristotel tomonidan berilgan haqiqatning (mumtoz) ta‘rifi to hozirgacha falsafa, mantiqda o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan tayanch ta‘rif sifatida qo‘llanilib kelinmoqda. Olmon faylasufi I. Kant o‘z vaqtida haqiqatga Platoncha va Aristotelcha qarashning cheklanganligi va bu bo‘yicha uning (haqiqatning) eng umumiy, ishonchli mezonini belgilab bo‘lmashini ta‘kidlagan edi. Chunki, uningcha, bunday qarash haqiqat mezonini deb qabul qilingan amaliyotni faqat tajribaviy-yempirik bilimlarga nisbatan qo‘llash mumkin bo‘lgani holda, uni aprior, (lot. arriori- boshlang‘ich), tajribadan tashqari bilimlarga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi. «Haqiqat nima?- deb yozadi u, - bu-faylasuflarni boshi berk ko‘chaga kiritgan, ularni mantiqan bir doirada aylantirgan ko‘hna va azaliy savol. Haqiqatning nominal ta‘rifiga ko‘ra (platoncha, arastucha ta‘rif- izoh bizniki) u bilimning predmetga mos, muvofiq kelishidir. Lekin eng muhim masala- bu har qanday bilim uchun eng umumiy va ishonchli mezonni topish bo‘lmog‘i kerak».<sup>3</sup>

Ye‘tirof etish kerakki, garchi Kant masalaga o‘zining sub‘ektiv idealistik qarashidan turib yondashgan bo‘lsa-da, lekin u ko‘p jihatli haqiqat fenomenining mohiyatini platoncha, arastucha ta‘rif to‘liq ochib beraolmasligini anglab etgan edi.

Hozirgi globallashuv davrida umumjahon va mintaqaviy miqyosdagi ijtimoiy

<sup>1</sup> Платон.В 3-х т. Т.1.М.; 1968, с. 417

<sup>2</sup> Аристотель. Соч.в.4 томах, Т.1, М; 1976, с.141

<sup>3</sup>Иммануил Кант. Критика чистого разума. Ростов на Дону. «Феникс»,1999,с.92

muammolar echimi tafakkur orqali erishiladigan haqiqatning mohiyatini, uning mezoniy o'ldhovlarini qadriyatlilik doirasida hal etishni taqozo etmoqda. Zotan "haqiqat ma'naviy-axloqiy o'ldhovlarda baholanilmasa, qadrlanmasa, o'z vazifasini bajaraolmaydi, haqiqiy ijtimoiy mazmunini namoyon qilaolmaydi"<sup>4</sup>.

Haqiqatning qadriyatlilik (aksiologik) jihati uning ezgulik, go'zallik axloqiy-yestetik mezoniy tushunchalari va tamoyillari bilan o'zaro birlikda ma'naviyat tizimining tarkibiy qismi, uni yuksaltiruvchi kuch sifatida amal qilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda Prezidentimizning quyidagi dasturilamaliy ahamiyatga molik fikrini keltirib o'tish joizdir: "Qaerda... yuksak aql –idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha erda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi"<sup>5</sup>.

Tafakkur murakkab, ko'p jihatli jarayon bo'lib, uni tadqiq etish bilan bir qator fanlar (gnoseologiya, tilshunoslik, psixologiya, kibernetika, fiziologiya va b.) shug'ullanadi. Formal mantiq boshqa fanlardan farqli ravishdatafakkurning shakllarini va ularning o'zaro muayyan tamoyillar asosida bog'lanish - qonunlarini o'rganadi. Aniqroq qilib aytganda, nazariy-mantiqiy bilishning shakllari, usullari va ularning asosini tashkil etuvchi qonunlar formal mantiqning predmetidir.

Tafakkurni bunday, ya'ni formal tuzilishi jihatidan o'rganish to'g'ri muhokama, fikr yuritishning zaruriy shartidirki, bu esa chin bilimlarga, haqiqatga erishishning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Nazariy bilish, haqiqat muammosi dialektik va matematik mantiqning ham tadqiqot ob'ekti bo'lib, ushbu umumiylik mazkur fanlarning formal mantiq bilan o'zaro munosabatini belgilaydi. Arastu asos solgan formal mantiq negizida XVII-XIX asrlarda yuzaga kelgan yangi mantiqiy sistemalar, jumladan, matematik va dialektik mantiqda nazariy bilish, haqiqat masalasi yangicha usul, tamoyillar bo'yicha talqin qilinadi. Va bu formal mantiqning rivojlanishi uchun muhim rol o'ynaydi.

Gegel tomonidan ishlab chiqilgan dialektik mantiq tafakkurni paydo bo'lish, rivojlanishda, uning shakllari mazmuni va qonunlari birligida o'rganadi.

Formal mantiq tafakkur shakllarini to'g'ri fikrlash maqsadini ko'zda tutgan holda, turli xil mazmunga ega bo'lgan fikr qismlari tarzida, umumiy

tarkibiy tuzilishda o'rganadi. Masalan, tushuncha va hukm konkret mazmun birligida emas, balki muayyan strukturaviy tuzilishidagi fikr shakli sifatida olib qaraladi va bunda ularda qanday predmet anglashilayotganligi fikran soqit qilinadi. Dialektik va formal mantiq usul, tamoyillari va qonunlarini o'zaro birlikda olib qarash va ularni bilish jarayonida qo'llash chin bilimlarga, haqiqatga erishishning eng samarali yo'lidir.

XVIII asrda evropa mamlakatlarida ilmiy-texnika taraqqiyotining yuz berganligi, ayniqsa mexanika va matematika fanlarining amaliyot bilan bog'liq holda rivojlanishi an'anaviy mantiq negizida yangi - matematik mantiq yo'nalishining yuzaga kelishiga zamin tayyorladi.

Nemis faylasufi, matematigi G.Leybnits (1646-1716) matematik hisoblash metodini ishlab chiqadi va uni mantiqqa tadbiiq qiladi.

Hisoblash - bu belgi-simvollar bilan fikrlash qoidalarining tizimi bo'lib, Leybnits ular orqali tafakkur shakllariga (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish) nisbatan qo'llaydi

<sup>4</sup> Билиш фалсафаси (гносеология). Т., «Университет», 2005, 245-бет

<sup>5</sup>Ислом Каримов. Юксак маънавият- энгилмас куч. Т., "Маънавичт", 2008, 116-бет.

va maksimal aniqlik darajasida mantiqiy muhokama yuritish usullarini aniqlashga muvaffaq bo'ladi.

Bu o'rinda shu narsani ta'kidlash joizki, aslida matematik mantiqning ilk asoschisi IX asrlarda yashab ijod etgan yurtdoshimiz, mutafakkir Muhammad al-Xorazmiydir (780-850). U «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» nomli asarida hisoblashning algebraviy (algoritmli) usullarini ishlab chiqadiki, bu oradan ming yildan ziyod vaqt o'tib kibernetika fanining yuzaga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. XIX asrning o'rtalariga kelib matematik mantiq mustaqil fan sifatida to'liq shakllanadi, bunga ingliz matematigi, mantiqshunosi J.Bul (1815-1864) va nemis faylasufi, matematigi G.Frege (1848-1925)lar katta hissa qo'shadilar.

J.Bul «Mantiqning matematik tahlili», «Fikr qonunlarining tadqiqi» nomli asarlarida "mantiq algebrasi" deb ataladigan matematik mantiq sistemasini ishlab chiqadi.

G.Frege birinchi bo'lib mulohazalar va predikatlar mantiqining aksiomatik tuzilishining formallashtirilgan arifmetik sistemasini tuzadi. Va buni u ikki tomlik «Arifmetikaning asosiy qonunlari» degan asarida bayon etadi.

Bul, Fregelarning matematik mantiqqa oid qarashlari, keyinchalik ingliz faylasuf, mantiqshunoslari B.Rassel (1872-1970) va A.Uaytxed (1861-1947)lar tomonidan yanada rivojlantiriladi. XX asrning oxirlariga kelib ularning qarashlari negizida intuitiv, konstruktiv, ko'p mohiyatli, modalli mantiq kabi matematik mantiq yo'nalishlari yuzaga keladi. Matematik mantiqning yuzaga kelishi formal mantiqning ilmiy bilish metodologiyasi vazifasini o'tash imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi davr, axborot-texnologiya tizimining tobora takomillashib borishi formal mantiqning ushbu vazifasining ahamiyatini «Kuch- bilim va tafakkurda»(I.A.Karimov) degan tamoyilni hayotga tadbiq qilishda yanada dolzarb qilib qo'yimoqda.

Formal mantiqning vazifalari uning o'ziga xos amaliy-nazariy ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy fan ekanligi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra mazkur fan nazariy-metodologik va me'yoriy (normativ) – praksiologik(yunon.praktikos-faoliyatli)) vazifalarni o'taydi. Bular:

1. Talabalarni mantiq fani asoslarini o'zlashtirishga erishish orqali ularda o'zlikni anglash e'tiqodi, mustaqillik dunyoqarashini shakllantirish.

2. Talabalarni Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining jahon falsafiy-mantiqiy fikri taraqqiyotiga qo'shgan hissasini anglatish, ularning ta'limotlarini chuqur egallashga yo'naltirish bilan ularda milliy g'urur, iftixor tuyg'ularini hosil qildirish.

3. Talabalarda milliy mustaqillik g'oyamizga yot bo'lgan hozirgi mafkuraviy xatar, buzg'unchi g'oyalarga qarshi turish qobiliyati -mafkuraviy immunitetni shakllantirish va buning uchun mantiqiy isbotlash va rad etish nazariyasining tuzilishi, tamoyillarini o'zlashtirishlariga erishish.

4. Talabalarda to'g'ri fikrlashning mantiqiy shakllari, qonun-qoidalaridan ilmiy bilish metodlari sifatida qo'llay bilish va ulardan boshqa fanlarni o'zlashtirishda foydalanish malakasini hosil qilish.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Mantiq fanining predmeti. **Tayanch iboralar:** qonun, til, tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa.

2. Bilish va uning asosiy bosqichlari. **Tayanch iboralar:** bilish, xissiy bilish va aqliy bilish, tafakkur va til.
3. Mantiq fanining falsafiy bilimlar tizimida tutgan o'рни. **Tayanch iboralar:** ontologik, gnoseologik, formal mantiq, qonun, tafakkur, til.
4. «Umumiy mantiq» va «formal (sof) mantik» o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar, ularning ahamiyati. **Tayanch iboralar:** mantiq, falsafa, bog'lanish, dialektika, psixologiya, matematika.
5. Mantiq fani va uning shakllanish bosqichlari. **Tayanch iboralar:** qadimgi Misr, Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Aristotel, Organon, Forobiy, Ibn Sino, Markaziy Osiyo, Bekon, Dekart.
6. Tafakkur mantiq ilmining o'rganish ob'ekti sifatida. **Tayanch iboralar:** Tafakkur, sezgi, idrok, tasavvur.
7. Tushuncha va uning ta'rifi. Tushunchalarning hayotiy ahamiyati. **Tayanch iboralar:** in'ikos, belgi, xususiyat, miqdor, sifat, yakkalik, konkret, ob'ektivlik, so'z, analiz, sintez, abstraksiya.
8. Tushunchalarning mazmuni, hajmi va ularning o'zaro nisbatlari. **Tayanch iboralar:** tushunchaning mazmuni, xajmi, ifodasi, buyum belgilari, xodisalar to'plami, teskari nisbat, yakka va umumiy tushuncha.
9. Xukm va uning ta'rifi. Xukmning tafakkur shaklida tutgan o'рни. **Tayanch iboralar:** hukm, belgi, xususiyat, tasdiq, inkor, xodisalar munosabatlari va hukm predikat, bog'lovchi element.
10. Xukmlarda terminlarning bo'linishi. **Tayanch iboralar:** hukmning sub'ekti, hukmning predikati, hukm terminlari, ega va kesim predikat simvoli, mintaqaviy bog'lovchi.
11. Xukmning son jihatdan bo'linishi. **Tayanch iboralar:** yakka hukm, juz'iy xukmlar, umumiy xukmlar.

## **2-Mavzu: Mantiq fanining fikrlash madaniyatini o‘stirishdagi ahamiyati.**

### **REJA:**

**1.Mantiq ilmini o‘rganishning ahamiyati**

**2.Mantiq fanining ilmiy ishonch-ye’tiqodning shakllanishida tutgan o‘rni**

**3.O‘rta asrlarda mantiq ilmning taraqqiyoti**

Mantiqni o‘rganishda Sharq allomalarining yondashuvlari. Abu Rayhon Beruniyning “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari Falsafa sohasida muhim manba.

### **1. Mantiq ilmini o‘rganishning ahamiyati**

Mantiq ilmini o‘rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Mantiqni bilish, ayniqsa, ilm-fan bilan shug‘ullanish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ko‘payib borayotgan ilmiy axborotlarni tartibli ravishda o‘zlashtirish, ilmiy masalalarning tuzilishini tez bilib olish uchun ham muhim rol o‘ynaydi.

Mantiq inson tafakkuri madaniyatini ko‘tarish va insoniyatning uzoq tajribasi natijasida takomillashgan tafakkur shakllari, qonun va qoidalarini bilish uchun xizmat qiladi. U inson fikrining ketma-ket, ziddiyatsiz va asosli bo‘lishini ta’minlaydi. Mantiq fani mazmunini chuqurroq o‘rganish kishilarning o‘z tafakkuri va o‘zgalar tafakkuri natijalariga tanqidiy qarash xislatlarini rivojlantiradi. Tafakkurning bu sifatleri esa insonning turli ilmiy va amaliy faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Mantiqiy usullardan to‘g‘ri foydalana olish, ta’lim-tarbiya jarayonida isbot va raddiyaning mantiqiy tomonlarini bilish inson nutqining asosli bo‘lishini ta’minlab, fikrdagi ziddiyatlarni ochishga yordam beradi.

Mantiq ishonch-e’tiqodning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Faktlar va boshqa dalillarga tayanuvchi fikr yuksak ishonch kuchiga ega bo‘ladi, kishilarda ishonch-e’tiqodni mustahkamlaydi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo‘lgan e’tiqodni yaratishdan iborat. Ana shuning uchun ham yoshlarda ilmiy asosga ega ishonch-e’tiqodni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqan asoslangan to‘g‘ri fikr ishonch-e’tiqodni shakllantirish vositasidir. Ishonch-e’tiqod esa, insonning komillik mezonlaridan biri hisoblanadi. Chuqur tahlilga, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni chalg‘itadi. Faqat bahs-munozara, tahlilga asoslangan to‘g‘ri xulosalargina haqiqatni bilishga yo‘l ochadi.

Mantiq insonlar o‘rtasidagi turli daraja va mazmundagi munosabatlarni uyg‘unlashtirishda, o‘zaro muloqotning samaradorligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Bir qarashda aqliy mushohada oddiy mantiqiy ishga o‘xshab ko‘rinadi. Xususan, mantiqni maxsus o‘rganmagan kishilar ba’zan qiziqarli fikrlarni bildirishadi, ba’zi olimlarga qaraganda hayotga tezroq moslashadi. Ana shuning uchun ham ba’zan mantiqiy muhokama yuritish hislati insonga tabiatan xos, uni mantiqni o‘qitish yo‘li bilan tarbiyalash shart emas, degan fikrlar uchrab qoladi. Bunday fikrning xatoligini mutaxassislar o‘tkazgan maxsus ilmiy tadqiqotlar natijasi

ko'rsatadi. Xususan, bu borada M.Koen va e.Morrislar bildirgan mulohazalar e'tiborga loyiqdir: "Kundalik ishlarimizning ko'pini amalga oshirayotganda odatga ko'ra chin deb hisoblaydigan fikrning haqiqatligi masalasi to'g'risida o'ylab o'tirmaymiz. Biroq o'z fikrimizning chin ekanligiga hamma vaqt ham to'la ishonch hosil qila olmaymiz, chunki atrof-muhitda kutilmaganda o'zgarish sodir bo'lishi yoki o'zimizning o'y-xayolimiz, yo bo'lmasa boshqa kishi fikri ta'sirida ishongan narsamiz chinligi haqida savol qo'yishga majbur bo'lamiz.

Boshqacha aytganda, haqiqatligi o'z-o'zidan ravshan bo'lmagan fikr-mulohazalar mavjud. Agar o'quvchiga ergashib kelgan Sokrat soyasi sug'urta kompaniyasi binosiga kirayotganida undan nima qilmoqchiligini so'rasa, u shunday javob bergan bo'lardi: "Men sug'urta polisi olmoqchiman". Agar soya uning sababi bilan qiziqib, so'rasa, demak, shunday javob bo'lishi mumkin: "Bir kun men o'laman, shu sababli yaqinlarimni ta'minlashni xohlayman". Agar Sokrat "bir kun men o'laman" degan mulohaza chin bo'lsa, unda "o'zing ko'rmayapsanmi, axir", deb ayta olmaydi. Gap shundaki, biz qachon o'lishimizni oldindan bilmaymiz. Lekin biroz o'ylangandan keyin, quyidagicha javob berish mumkin: "Sokrat, barcha tirik mavjudotlar bir kuni o'ladilar, men esa tirik mavjudotman, demak men ham bir kuni o'laman".

Yuqorida keltirilgan savol-javob mantiqning eng oddiy holatlarda ham kerakligini tasdiqlaydi".

Mantiq turli xil asoslarning adekvatligi va asoslovchi kuchi haqidagi masalani tadqiq etuvchi ilm sohasidir. Lekin, an'anaga ko'ra u ko'proq isbotning qanday qismlardan tashkil topishini o'rganadi. Ya'ni to'la va rad etib bo'lmaydigan asoslarni keltirishni talab qiladi. Ba'zan biz bunday asoslarning qisman bo'lishini ham kuzatamiz. Bunday hollarda xulosa muayyan darajada ehtimoliy xarakterga ega bo'ladi.

Demak, barcha kishilar fikrlaydilar, lekin tafakkurning qanday amalga oshishini hamma vaqt ham tushunib yetmaydilar. Xalq orasidan chiqqan, yuksak mantiqiy fikrlash madaniyatiga ega, bilishning mantiqiy usullaridan ongli ravishda foydalanadigan buyuk olimlar, mutafakkirlar, konstruktorlar ijodi natijalari, oddiy kishilarning kundalik tajriba asosida bildiradigan mulohazalari, hosil qiladigan xulosalaridan (ular chin bo'lgan taqdirda ham) farqli o'laroq, ilmiy asosga ega tushunchalar, mulohazalar, farazlar, g'oyalar, ularning nazariy tizimi ko'rinishida yuzaga chiqadi, turli masalalar yechimini gavdalantiruvchi loyihalarda o'z aksini topadi va butun insoniyat mulkiga aylanadi. Al-Xorazmiy yaratgan hisoblash usullari, ilk bor Beruniy ilgari surgan va keyinchalik Kopernik asoslagan geliotsentrik g'oya, Gippokrat, ar-Roziy, Ibn Sinolar ishlab chiqqan tashhis qo'yish va davolash usullari, al-Farg'oniy, Mirzo Ulug'beklarning astronomiyaga oid kashfiyotlari va boshqalar buning yaqqol ifodasidir.

Tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganish, ulardan ongli ravishda foydalanish fikrlash madaniyatini o'stiradi, xususan, fikrni to'g'ri qurish malakasini rivojlantiradi; bahs yuritishda o'zining va boshqalarning fikriga tanqidiy munosabatda bo'lishiga, suhbatdoshining mulohazalaridagi xatolarni ochib tashlashga yordam beradi.

Muhokamani to'g'ri qurishga, formal ziddiyatlar, xatolarga yo'l qo'ymaslikka



erishish, aytish mumkinki, o'ziga xos san'at – mantiq san'ati hisoblanadi. Bu san'atning nazariy asoslarini chuqur egallagan kishigina uning imkoniyatlarini amaliy muhokama yuritishda namoyish qila oladilar. Bu o'rinda buyuk mutafakkir Forobiyning mantiq ilmining ahamiyati haqida bildirgan quyidagi fikrlarining alohida e'tiborga loyiq ekanligini ta'kidlash zarur. U shunday yozadi: "Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha hollarda, to'g'ri tafakkurga yetaklaydigan, uning yordamida har safar xulosa chiqarayotganda adashishga qarshi ehtiyot choralarini ko'rsatadigan san'atni – mantiq san'atini o'rganishdir. Uning asosiy qonun-qoidalarining aqlga bo'lgan munosabati grammatika san'ati qoidalarining tilga bo'lgan munosabatiga o'xshash; xuddi grammatika kishilarning tilini to'g'rilash ehtiyoji sababli yaratilgani, unga xizmat qilishi zarur bo'lgani singari, mantiq ham tafakkur jarayonini yaxshi amalga oshirish maqsadida xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha hollarda aqlni to'g'irlab turadi".

To'g'ri fikrlashning mantiqiy shakllari va qonunlari insonning bilish va amaliy faoliyatining barcha sohalarida qo'llaniladigan universal metodologik vositalardir. Fan sifatida formal mantiq muhokamani to'g'ri qurishga xos umummantiqiy qonuniyatlarni o'rnatish, ilmiy tadqiqot medodlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi, murakkab mantiqiy muammolarni qo'yish va yechish vositalarini beradi. Bunday vositalar, odatda, fan uchun ilmiy nazariya'ning strukturasi shakllantirishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tushuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo'lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Mantiqni o'rganish mantiqiy tafakkur madaniyatini shakllantirish va o'stirishning samarali vositasidir. Mantiq to'g'ri muhokama yuritish usullarini nafaqat ishlab chiqadi, balki ularni sistemaga ham soladi, muhokamada yo'l qo'yiladigan tipik xatolarni aniqlaydi va tartibga soladi. U fikrlarni aniq ifodalash vositalarini taqdim etadi. Busiz ta'limdan tortib, ilmiy tadqiqot ishlarigacha bo'lgan fikrlash faoliyati kam samara beradi.

Uning ta'lim sohasidagi vazifalari ham jiddiydir. O'quv jarayonining samaradorligi ma'lum bir darajada ishlatiladigan tushunchalarning, terminlarning aniq bo'lishiga, muammolarning mantiqan to'g'ri qo'yilishi va hal qilinishiga, mavjud gipotezalar strukturasi to'g'ri tahlil qila olishga, argumentlash qoidalaridan to'g'ri foydalanishga bog'liq.

Fan uchun formal mantiq murakkab muammolarni yechish vositasini beradi. Bunday vositalar, odatda, ilmiy nazariya'ning strukturasi o'rganishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tushuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo'lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida geosiyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy axborot-kommunikatsiya sohalarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan, g'oyaviy kurash keskin tus olayotgan, globallashuv jarayonining mafkuraviy ta'sir o'tkazish quroliga aylanayotgan, axborot xavfsizligi masalasining dolzarbliги ortayotgan sharoitda sog'lom tafakkur, to'g'ri fikrlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, yoshlarda ularning ongiga singdirilmoqchi bo'lgan turli ko'rinishdagi buzg'unchi g'oyalarning mazmun-mohiyati, maqsadini o'z vaqtida anglash qobiliyatini

mustahkamlash, mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish, jaholatni ma'rifat bilan yengish malakalarini rivojlantirishda mantiqiy fikrlash shakllari, qonun-qoidalarini bilish, ulardan oqilona foydalanish yaxshi samara beradi. Buning ahamiyatini birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov qiyoslash asosida sodda va lo'nda qilib quyidagicha tushuntirgan edi: davlat chegaralarining daxlsizligini saqlash uchun harbiy kuch-qudrat, qurolli kuchlar qanchalik zarur bo'lsa, yosh avlod ma'naviy dunyosining daxlsizligini saqlash uchun yuksak aql-idrok va mantiqiy tafakkur kuchidan qurol sifatida foydalaniladigan ma'naviy tarbiya shunchalik zarur .

Mantiq qonun-qoidalarini bilish davlat xavfsizligi organlari xodimlari uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, harbiy xizmatdagi komandirlar uchun harbiy bo'linmalarda intizomni saqlashda, xizmatdagi yoshlarning jangovorlik ruhini kuchaytirishda, vatanparvarlik tuyg'usini o'stirishda hamda harbiy mashqlar va harbiy harakatlar davomida vaziyatni to'g'ri baholash, ishonchli xulosa chiqarish, qat'iy qarorga kelishda chuqur o'ylash, mantiqiy fikrlash muhim rol o'ynaydi.

Mantiqiy tafakkur shakllari, usullarini yaxshi o'zlashtirish huquqiy ta'lim va huquq amaliyotining ajralmas qismidir. Bu huquq-tartibot xodimining kasbiy faoliyati xususiyatlari: huquqbuzarlik holatlarini o'rganishda ta'riflash va tasniflash, argumentlash va rad etish kabi mantiqiy usullardan doimiy ravishda foydalanishi bilan belgilanadi.

Mantiqni bilish sud versiyalarini qurishda, jinoyatlarni har tomonlama tekshiruv rejalarini tuzishda, operativ harakatlar tizimini ishlab chiqishda, rasmiy hujjatlarni: jinoyat sodir bo'lgan joyni ko'rib chiqish va so'rovlar, ayblovchi xulosalar, mulohazalar va qarorlar, bildirishnomalar va shu kabi protokollarini shakllantirishda yordam beradi.

Malakali huquqshunoslar har doim mantiqni bilishlarini amalda namoyish qilib kelganlar. Masalan, iqtidorli advokat ayblovchining muhokama yuritishidagi xatoni payqab, uning qanday xatoga yo'l qo'yganini, bunday xatoning mantiqda ko'rib chiqilishi va qanday nomlanishini aytib berib, keltirgan asoslari bilan sud majlisi ishtirokchilarini, shu jumladan, mantiqni o'qimaganlarni ham qoyil qoldirgan.

Keyingi paytda vujudga kelgan normalar mantig'i huquqning ko'p masalalarini soddalashtirishga, masalan, kodekslar va normativ aktlardagi ziddiyatlarni oson topishga, berilgan norma boshqa normalardan mantiqan kelib chiqadimi va uning normativ aktga kiritilishiga ehtiyoj bormi, yangidan qabul qilingan normativ akt avval qabul qilingan normativ aktlarni ortiqcha qilib qo'ymaydimi yoki uni to'ldiradimi va boshqa shu kabi savollar qo'yib, javob izlashga, ularni aniqlashtirishga imkon beradi.

Yuqori darajadagi mantiqiy madaniyat rahbar lavozimini egallab turgan kishilar uchun juda zarur. Xizmatga doir yig'ilishlarda rahbar diskussiya'ni tashkil etuvchi, bahs-munozara hakami rolini bajaradi. Argumentlash va tanqid qilish qoidalarini, bahsda qo'llash mumkin va mumkin bo'lmagan usullarni bilish unga diskussiya'ni haqiqatga erishishga qarab yo'naltirishga yordam beradi.

Rahbarning xizmat vazifalaridan biri boshqaruv bo'yicha qarorlar ishlab chiqish va qabul qilishdir. Mantiqdan xabardorlik rahbarga qarorning ishlab

chiqilishi uchun asos bo'lgan omillarni, qarorda xulosa tarzida ifodalangan fikrning qanday hosil qilinganini tushuntirishga, boshqacha aytganda, "qaror qabul qilish mantiq'ini" tushuntirishga va shu tariqa, xodimlarning unga bo'lgan ishonchining paydo bo'lishi, amaliyotga joriy qilishning zarurligini tushunib yetishiga olib keladi.

Formal mantiq metodlari tafakkur jarayonini modellashtirish, fikrlovchi qurilmalar-robotlarni yaratish, kompyuterlar uchun dasturlar tayyorlash, turli obektlarning matematik modellarini yaratish, axborot texnologiyalari, kommunikatsiya vositalarini mukammallashtirish kabi ishlarda keng qo'llaniladi. Bu holat ularning zamonaviy funksiyalarining ham yetarlicha ekanligini ko'rsatadi.

### **Mantiq fanining ilmiy ishonch-ye'tiqodning shakllanishida tutgan o'rni**

Faktlar va boshqa dalillarga taya'ni b yuritiladigan fikr yuksak ishonchirish kuchiga ega bo'ladi, kishilarda ishonch-ye'tiqodni mustahkamlaydi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat. Ana shuning uchun ham yoshlarda ilmiy asosga ega ishonch-ye'tiqodni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Argumentlash ishonch-ye'tiqodni shakllantirish vositasidir. Ishonch-ye'tiqod esa, insonning komillik mezonlaridan biri hisoblanadi.

Ishonch-ye'tiqod – bu kishilarning xulq-atvori va xatti-harakatini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Vatanimizning gullab-yashnashi, barqaror rivojlanishi ma'lum bir darajada yoshlarning chuqur bilimga, mustahkam ishonch-ye'tiqodga va, umuman, komil inson bo'lishlariga bog'liq. Bu haqda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deb ta'kidlagan: "Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikr oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamlarni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi".

Chuqur tahlilga, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlilga asoslangan to'g'ri xulosalargina haqiqatni bilishga yo'l ochadi.

Bahs, munozara yuritishning, chin fikrlarni isbotlay bilishning, xato fikrlarni rad etishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Bu qoidalarni bilish har bir insonga, shu jumladan, talabalarga chin fikrni xato fikrdan ajrata bilish, to'g'ri tafakkurlash madaniyatini shakllantirish imkonini beradi

### **O'rta asrlarda mantiq ilmning taraqqiyoti**

Bu davrda mantiqiy bilimlarning rivojlanishi ko'proq O'rta va Yaqin Sharq, shuningdek, O'rta Osiyoda kechadi. Qadimgi Gretsiya davlati, keyinroq Rim imperiyasining tanazzulga yuz tutishi bilan ilm, fan, madaniyat Misrda gurkirab rivojlana boshlaydi.

Ma'lumki, VI-VII asrlar antik davrning emirilishi va feodal ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishi davri hisoblanadi. Bu davrda Yaqin, O'rta Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniy hayotida Uyg'onish davri bo'ladi.

Mazkur davr ishlab chiqarishning yuqori darajada rivojlanishi va shunga muvofiq fan, madaniyatning ham yuksalib borishi bilan xarakterlanadi. Aql, tafakkur masalasi faqat aniq fanlarning emas, balki falsafa fanining ham bahs mavzuiga aylandi. Shuning uchun Uyg'onish davrining ko'pgina faylasuf,

mutafakkirlari o‘zlarining mantiqqa doir asarlarini yaratdilar.

O‘rta Osiyolik qomusiy olim Abu Nasr Forobiy (873-950) birinchilardan bo‘lib Aristotel, Porfiriylarning mantiqqa oid asarlariga izoh yozadi. Abu Ali ibn Sino o‘zining tarjimai holida Aristotelning asarlarini qayta-qayta o‘qiganligi, lekin faqat Forobiyning unga yozgan izohini («Metafizika tezislari») topib o‘qiganidan so‘nggina, ularning ma‘nosiga tushunganligi haqida yozadi.<sup>6</sup>

Shuningdek, Forobiy «Mantiqqa kirish», «Aql haqida», «Shartli hukmlar» kabi asarlarini yaratadi. U o‘zining ushbu asarlarida mantiq fanining predmeti, uning ahamiyati, tushunchalardan hukm va hukmlardan xulosa chiqarish (sillogizm) haqida fikr yuritadi. Forobiy shuningdek to‘g‘ri fikr yuritishning asosiy usul va vositalari - isbotlash, munozara-bahs, induksiya va deduksiya haqida ham batafsil to‘xtaladi.

Forobiydan so‘ng mantiq ilmining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan mutafakkir Abu Ali ibn Sino (980-1037) hisoblanadi. Forobiyning mantiq ilmiga oid asarlarini chuqur o‘rgangan Ibn Sino o‘zining «Mantiq», «Donishnoma» kabi risolalarini yaratdi. Shuningdek uning tabobat ilmiga oid «Kitob ash-shifo» asarining bir bobini mantiqqa bag‘ishlangan bo‘lib, u 9 qismdan tashkil topgandir.

O‘rta asr mantiqiy fikrlar tarkiqiyotiga ozarbayjonlik Baxmanyor, arabistonlik Ibn Rushd va eronlik Nasriddin Tusiy, Faxriddin Roziy, xurosonlik Sa‘duddin Taftazoniy kabi faylasuf, olimlar katta hissa qo‘shganlar.

### **Abu Rayxon Beruniy mantiq ilmi haqida**

Abu Rayhon Beruniy (973-1048y.y.) O‘rta asrlarning buyuk qomusiy olimidir. Abu Rayhon Beruniy mantiqqa oid asarlar yozmagan bo‘lsa ham, uning qonun-qoidalaridan, isbotlash usullaridan o‘zining ilmiy-amaliy faoliyatida keng foydalangan, mantiq ilmining bilish jarayonidagi ahamiyatini yuqori baholagan. Beruniy shunday deb yozadi: “Inson nutqqa ega bo‘lgan va o‘zining muxoliflari bilan dunyoviy va oxirat ishlari haqida bahs-munozara yuritganligi sababli o‘z so‘zlarida “mezonga” muhtoj bo‘ldi. Gap o‘z zoti bilan rostni ham, yolg‘onni ham o‘z ichiga olish ehtimoli borligidan mezon yordamida uni izchil tekshirish va shu yo‘sinda uning shubhali yerini to‘zatisht kerak bo‘lgan. Zeroki, bu bilan mubohasalarda so‘zlardan tuzilgan sillogizmlarning kishini adashtiruvchi yolg‘oni ham, haqiqatni ochuvchi rosti ham ayon qilingan. Inson shu mezonni topdi. U mantiq deyiladi”.<sup>1</sup>

Mutafakkir mantiq ilmining bilish jarayonidagi o‘rniga yuqori baho beradi. U o‘z davri ulamolarining mantiq ilmiga bo‘lgan salbiy munosabatini quyidagicha izohlaydi: “...Mantiq Aristotelga mansub bo‘lib, uning qarash va e‘tiqodlaridan esa islomga muvofiq kelmaydiganlari qurilgan edi, chunki uning qarashlari nazariy bilimdan bo‘lib, dindan emas edi... Ha, mantiq yunonlar tiliga o‘xshash alfozda yozilgan va iboralari yangi davr olimlariga ma‘lum bo‘lganiga xilof. Shuning uchun

---

<sup>6</sup>Қаранг: Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане Т.: "Фан", 1976, с.278.

<sup>1</sup>. Абу Райхон Беруний. Геодезия. -Т., 1982. –Б.64

mantiqni tushunish masalasi o‘z-o‘zidan nozik bo‘lib, u yana qaltislayapti, shu sababli ular undan uzoqlashayaptilar...Ular haqidirlar, jinoyat esa tarjimonlar tomonidan qilingan. Haqiqatan ham agar u ismlar arabchaga tarjima qilinsa va «Kirish kitobi», «Kategoriya», «Iboralar», «Qiyos va Isbot» deb aytilsa edi, hamma ularni e‘tiroz bildirmay qabul qilishga shoshilgan bo‘lardir»<sup>7</sup>.

Abu Rayhon Beruniy tabiatshunos olim sifatida ilmiy metodga katta ahamiyat beradi. Beruniyning buyuk xizmatlaridan biri tabiat va jamiyatni bilishning ilmiy metodini ishlab chiqqanligidir. Beruniy ilmiy metodining asosiy prinsiplari “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida keltirilgan. Bular quyidagilar:

- aqlni bekorchi fikrlardan tozalash;
- tajribaga asoslanish;
- bilishni, avvalo, predmetni tashkil etuvchi elementlardan boshlash;
- hissiy bilishga asoslangan deduksiyadan foydalanish;
- mantiqiy fikrlash: analiz qilish va umumlashtirish;
- kuzatish, taqqoslash, qiyoslash orqali haqiqatni aniqlash;
- ma‘lum narsadan noma‘lumga, yaqindagidan uzoqdagiga qarab fikr yuritish;
- uzoq o‘tmishni bilish uchun predmet, hodisaning tarixi va u haqida boshqalarning bergan ma‘lumotlarini o‘rganish.

Beruniy R.Dekart va F.Bekonlardan avvalroq ilmiy bilish metodini yaratish zarurligini ta‘kidlagan va uning asosiy qoidalari hamda prinsiplarini ishlab chiqqan. Beruniyning bu masalaga oid fikrlari G‘arb faylasuflarinikiga nisbatan keng qamrovliligi bilan ajralib turadi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Xukmlarning son va sifat jihatdan birlashgan tasnifi. **Tayanch iboralar:** yakka yoki juz‘iy tasdiqlovchi xukmlar, umumiy tasdiq xukmlar, umumiy inkor xukmlar.
2. Xukmlarning predikat mazmuniga ko‘ra bo‘linishi. **Tayanch iboralar:** mavjudlik xukmi, xususiyat xukmi, munosabat xukmlari.
3. Murakkab xukmlar va ularning turlari. **Tayanch iboralar:** murakkab xukmlar, kushuvchi xukmlar, shartli xukmlar, ayiruvchi yoki diz‘yunktiv xukmlar.
4. Xukmlar orasidagi munosabat (mantiqiy kvadrat). **Tayanch iboralar:** karama-qarshi hukmlar, bir-biriga zid munosabatlar, kuyi karama-karshi munosabatlar, buysunuvchi munosabatdagi xukmlar.
5. Mantikiy xulosa va uning ta‘rifi. **Tayanch iboralar:** mantikiy xulosa, asos, asosli natija, xulosaning chinligi.
6. Xulosa chiqarishning ikki asosiy turi. **Tayanch iboralar:** vositasiz xulosa, mantiqiy kvadrat, almashtirish, aylantirish, predikatga qarama-qarshi qo‘yish.

---

<sup>7</sup> Abu Райхон Беруний. Геодезия. // Танланган асарлар. Т.3. -Т.: Фан, 1982.-Б. 64-65.

7. Deduktiv xulosa chiqarish va uning turlari. **Tayanch iboralar:** induksiya, deduksiya, sillogizm, xulosa chiqarish yo‘llari, sillogizm tarkibi.
8. Deduktiv xulosa chiqarishning ahamiyati. **Tayanch iboralar:** bilish, induksiya, deduksiya, rivojlanish, kashfiyot, taraqqiyot, yangilik.
9. Sig‘ishmaydigan munosabatlar. **Tayanch iboralar:** qarama-qarshi xukmlar, bir-birga zid munosabatlar, umumiy tasdiq, umumiy inkor, juz‘iy tasdiq.
10. Induktiv xulosalash va uning turlari. **Tayanch iboralar:** yakka, xususiy, umumiy, xulosa chiqarish, induksiya, tajriba, to‘liq, to‘liqsiz induksiya, ommaviy induksiya, ilmiy induksiya, o‘xshatish va tafovut metodlari.

### **3-Mavzu: Tafakkur qonunlariga rioya qilish – bilishda haqiqatga erishish sharti.**

#### **REJA:**

1. *AYNIYAT QONUNI*
2. *NOZIDLIK QONUNI*
3. *UChINChISI – ISTISNO QONUNI*
4. *YETARLI ASOS QONUNI*

Tafakkurni tasniflashda G‘arb olimlarining qarashlari. Yevropotsentrizm ta‘siri.

Mazkur fan umuman tafakkurni emas, balki uning asosiy shakllari va qonunlarini o‘rganadi. Tafakkurning ushbu jihatini o‘rganish to‘g‘ri, mantiqiy fikr yuritishning zaruriy shartidirki, busiz haqiqat, chin bilimlarga erishib bo‘lmaydi.

«Haqiqat nima, unga qanday qilib erishiladi?», «Haqiqatning mezoni nima?» degan savollarga javob topish uchun barcha davrlarda faylasuf, mantiqshunoslar bosh qotirib kelganlar va bunda, asosan, masalaning echimiga idealistik va materialistik qarashdan turib yondashganlar.

Ob‘ektiv idealizmning asoschisi Platon (Aflotun) haqiqatni fikrning «g‘oyalar dunyosi»ning «soya»si bo‘lgan buyum, predmetlarga muvofiq kelishidir, deb tavsiflaydi. «Kim agar buyum qanday bo‘lsa, shunga -muvofiq gapirsa,- deb yozadi faylasuf,- u haqiqatni aytgan va aksincha bo‘lsa, yolg‘on, xato gapirgan bo‘ladi».<sup>8</sup>

Aristotel(Arastu) o‘z salafining fikrini yanada konkretlashtiradi: «Kimki yo‘q narsaning mavjudligi haqida gapirsa yolg‘onni, lekin mavjud narsani bor, mavjud bo‘lmagan narsani yo‘q, deb tasdiqlasa, haqiqatni aytgan bo‘ladi».<sup>9</sup> Platon va Aristotel tomonidan berilgan haqiqatning (mumtoz) ta‘rifi to hozirgacha falsafa, mantiqda o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan tayanch ta‘rif sifatida qo‘llanilib kelinmoqda. Olmon faylasufi I.Kant o‘z vaqtida haqiqatga Platoncha va Aristotelcha qarashning cheklanganligi va bu bo‘yicha uning (haqiqatning) eng umumiy, ishonchli mezonini belgilab bo‘lmashligini ta‘kidlagan edi. Chunki, uningcha, bunday qarash haqiqat mezoni deb qabul qilingan amaliyotni faqat tajribaviy-yempirik bilimlarga nisbatan qo‘llash mumkin bo‘lgani holda, uni aprior, (lot. arriori- boshlang‘ich), tajribadan tashqari bilimlarga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi.

<sup>8</sup> Платон.В 3-х т. Т.1.М.; 1968, с. 417

<sup>9</sup> Аристотель. Соч.в.4 томах, Т.1, М; 1976, с.141

«Haqiqat nima?- deb yozadi u, - bu- faylasuflarni boshi berk ko‘chaga kiritgan, ularni mantiqan bir doirada aylantirgan ko‘hna va azaliy savol. Haqiqatning nominal ta’rifiga ko‘ra (platoncha, arastucha ta’rif- izoh bizniki) u bilimning predmetga mos, muvofiq kelishidir. Lekin eng muhim masala- bu har qanday bilim uchun eng umumiy va ishonchli mezonni topish bo‘lmog‘i kerak”.<sup>10</sup>

Ye’tirof etish kerakki, garchi Kant masalaga o‘zining sub’ektiv idealistik qarashidan turib yondashgan bo‘lsa-da, lekin u ko‘p jihatli haqiqat fenomenining mohiyatini platoncha, arastucha ta’rif to‘liq ochib beraolmasligini anglab etgan edi.

Hozirgi globallashuv davrida umumjahon va mintaqaviy miqyosdagi ijtimoiy muammolar echimi tafakkur orqali erishiladigan haqiqatning mohiyatini, uning mezoniy o‘lchovlarini qadriyatlilik doirasida hal etishni taqozo etmoqda. Zotan “haqiqat ma’naviy-axloqiy o‘lchovlarda baholanilmasa, qadrlanmasa, o‘z vazifasini bajaraolmaydi, haqiqiy ijtimoiy mazmunini namoyon qilaolmaydi”<sup>11</sup>.

Haqiqatning qadriyatlilik (aksiologik) jihati uning ezgulik, go‘zallik axloqiy- yestetik mezoniy tushunchalari va tamoyillari bilan o‘zaro birlikda ma’naviyat tizimining tarkibiy qismi, uni yuksaltiruvchi kuch sifatida amal qilishi jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda Prezidentimizning quyidagi dasturilamaliy ahamiyatga molik fikrini keltirib o‘tish joizdir: ”Qaerda... yuksak aql –idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha erda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi”.<sup>12</sup>

Tafakkur murakkab, ko‘p jihatli jarayon bo‘lib, uni tadqiq etish bilan bir qator fanlar (gnoseologiya, tilshunoslik, psixologiya, kibernetika, fiziologiya va b.) shug‘ullanadi. Formal mantiq boshqa fanlardan farqli ravishdatafakkurning shakllarini va ularning o‘zaro muayyan tamoyillar asosida bog‘lanish - qonunlarini o‘rganadi. Aniqroq qilib aytganda, nazariy-mantiqiy bilishning shakllari, usullari va ularning asosini tashkil etuvchi qonunlar formal mantiqning predmetidir.

Tafakkurni bunday, ya’ni formal tuzilishi jihatidan o‘rganish to‘g‘ri muhokama, fikr yuritishning zaruriy shartidirki, bu esa chin bilimlarga, haqiqatga erishishning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Nazariy bilish, haqiqat muammosi dialektik va matematik mantiqning ham tadqiqot ob’ekti bo‘lib, ushbu umumiylik mazkur fanlarning formal mantiq bilan o‘zaro munosabatini belgilaydi. Arastu asos solgan formal mantiq negizida XVII-XIX asrlarda yuzaga kelgan yangi mantiqiy sistemalar, jumladan, matematik va dialektik mantiqda nazariy bilish, haqiqat masalasi yangicha usul, tamoyillar bo‘yicha talqin qilinadi. Va bu formal mantiqning rivojlanishi uchun muhim rol o‘ynaydi.

Gegel tomonidan ishlab chiqilgan dialektik mantiq tafakkurni paydo bo‘lish, rivojlanishda, uning shakllari mazmuni va qonunlari birligida o‘rganadi.

Formal mantiq tafakkur shakllarini to‘g‘ri fikrlash maqsadini ko‘zda tutgan holda, turli xil mazmunga ega bo‘lgan fikr qismlari tarzida, umumiy

tarkibiy tuzilishda o‘rganadi. Masalan, tushuncha va hukm konkret mazmun birligida emas, balki muayyan strukturaviy tuzilishidagi fikr shakli sifatida olib

<sup>10</sup>Иммануил Кант. Критика чистого разума. Ростов на Дону. «Феникс»,1999,с.92

<sup>11</sup> Билич фалсафаси (гносеология). Т., «Университет», 2005, 245-бет

<sup>12</sup>Ислом Каримов. Юксак маънавият- энгилмас куч. Т., “Маънавичт”, 2008, 116-бет.

qaraladi va bunda ularda qanday predmet anglashilayotganligi fikran soqit qilinadi. Dialektik va formal mantiq usul, tamoyillari va qonunlarini o‘zaro birlikda olib qarash va ularni bilish jarayonida qo‘llash chin bilimlarga, xaqiqatga erishishning eng samarali yo‘lidir.

XVIII asrda evropa mamlakatlarida ilmiy-texnika taraqqiyotining yuz berganligi, ayniqsa mexanika va matematika fanlarining amaliyot bilan bog‘liq holda rivojlanishi an’anaviy mantiq negizida yangi - matematik mantiq yo‘nalishining yuzaga kelishiga zamin tayyorladi.

Nemis faylasufi, matematigi G.Leybnits (1646-1716) matematik hisoblash metodini ishlab chiqadi va uni mantiqqa tadbiq qiladi.

Hisoblash - bu belgi-simvollar bilan fikrlash qoidalarining tizimi bo‘lib, Leybnits ular orqali tafakkur shakllariga (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish) nisbatan qo‘llaydi va maksimal aniqlik darajasida mantiqiy muhokama yuritish usullarini aniqlashga muvaffaq bo‘ladi.

Bu o‘rinda shu narsani ta’kidlash joizki, aslida matematik mantiqning ilk asoschisi IX asrlarda yashab ijod etgan yurtdoshimiz, mutafakkir Muhammad al-Xorazmiydir (780-850). U «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» nomli asarida hisoblashning algebraviy (algoritimli) usullarini ishlab chiqadiki, bu oradan ming yildan ziyod vaqt o‘tib kibernetika fanining yuzaga kelishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. XIX asrning o‘rtalariga kelib matematik mantiq mustaqil fan sifatida to‘liq shakllanadi, bunga ingliz matematigi, mantiqshunosi J.Bul (1815-1864) va nemis faylasufi, matematigi G.Frege (1848-1925)lar katta hissa qo‘shadilar.

J.Bul «Mantiqning matematik tahlili», «Fikr qonunlarining tadqiqi» nomli asarlarida "mantiq algebrasi" deb ataladigan matematik mantiq sistemasini ishlab chiqadi.

G.Frege birinchi bo‘lib mulohazalar va predikatlar mantig‘ining aksiomatik tuzilishining formallashtirilgan arifmetik sistemasini tuzadi. Va buni u ikki tomlik «Arifmetikaning asosiy qonunlari» degan asarida bayonetadi.

Bul, Fregelarning matematik mantiqqa oid qarashlari, keyinchalik ingliz faylasuf, mantiqshunoslari B.Rassel (1872-1970) va A.Uaytxed (1861-1947)lar tomonidan yanada rivojlantiriladi. XX asrning oxirlariga kelib ularning qarashlari negizida intuitiv, konstruktiv, ko‘p mohiyatli, modalli mantiq kabi matematik mantiq yo‘nalishlari yuzaga keladi. Matematik mantiqning yuzaga kelishi formal mantiqning ilmiy bilish metodologiyasi vazifasini o‘tash imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Falsafada “qonun” tushunchasi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlarini ifodalaydi. Mantiq ilmida esa “qonun” tushunchasi fikrlash elementlari o‘rtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalaydi.

Mantiqiy tafakkur ikki turdagi qonunlarga bo‘ysunadi. Ular dialektika qonunlari va formal mantiq qonunlaridir. Dialektika qonunlari ob’ektiv olam va bilish jarayoniga xos bo‘lgan eng umumiy qonunlar bo‘lib, dialektik mantiqning o‘rganish sohasi hisoblanadi. Formal mantiq qonunlari esa faqat tafakkurdagina amal qiladi. Dialektika qonunlari mantiqiy tafakkurni uning mazmuni va shakli



birligida olib o'rgansa, formal mantiq qonunlari esa, fikrning to'g'ri tuzilishi, aniq, izchil, ziddiyatsiz va asoslangan bo'lishini e'tiborga olgan holda o'rganadi.

Formal mantiq qonunlari (yoki tafakkur qonunlari) deyilganda fikrlashga xos muhim, zaruriy bog'lanishlar tushuniladi. Tafakkur qonunlari ob'ektiv voqelikning inson miyasida uzoq vaqt davomida aks etishi natijasida vujudga kelgan va shakllangan. Bu qonunlar fikrlashning to'g'ri amalga oshirishini ta'minlab turadi. Ular tafakkur shakllari bo'lgan tushunchalar, mulohazalar (hukmlar), xulosa chiqarishning shakllanishi va o'zaro aloqalarini ifodalaydi.

Tafakkur qonunlariga amal qilish to'g'ri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan xoli bo'lish va asoslanganlik to'g'ri tafakkurlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar bo'lganligi uchun, ularning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

## 2. Ayniyat qonuni

Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda, ularga xos bo'lgan barcha muhim belgilar, qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, o'zgarmas va qat'iy mazmunga ega bo'ladi. Tafakkurga xos bo'lgan bu aniqlik xususiyati Ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi.

**Ayniyat qonuniga ko'ra, ma'lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o'z-o'ziga tengdir.** Bu qonun formal mantiq ilmida «A–A» dir formulasi bilan ifodalanadi.

Ayniyat qonuni simvolik mantiq ilmida, ya'ni **mulohazalar** mantig'i va **predikatlar** mantig'ida o'ziga xos ko'rinishga ega.

Mulohazalar mantig'ida  $a \rightarrow a$  va  $a \leftrightarrow a$ . (Bunda,  $a$  – har qanday fikrni ifodalovchi belgi,  $\rightarrow$  implikasiya belgisi, « $\leftrightarrow$ » ekvivalentlik belgisi.)

Predikatlar mantig'ida  $(x(R(x) \rightarrow R(x)))$  bu ifoda quyidagicha o'qiladi: har qanday  $x$  uchun, agar  $x$   $R$  belgiga ega bo'lsa,  $x$  shu belgiga ega, degan fikr to'g'ri bo'ladi.

Ayniyat qonunining asosiy talabi quyidagicha: fikrlash jarayonida turli fikrlarni aynanlashtirish va, aksincha, o'zaro aynan bo'lgan fikrlarga teng emas, deb qarash mumkin emas. Bu mantiqiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir. Fikrlash jarayonida bu qonunni bilib yoki bilmasdan buzish holatlari uchraydi. Ba'zan bu holat bir fikrning tilda turli xil ifodalanishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, «dialektika qonunlari» va «tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy qonunlari» tushunchalari shakliga ko'ra turlicha bo'lsa ham, mazmunan aynandir.

Tilda mavjud bo'lgan omonim va sinonim so'zlarning qo'llanishi ham ba'zan turli fikrlarning o'zaro aynanlashtirilishiga, ya'ni noto'g'ri muhokamaga olib keladi. Masalan, falsafiy nuqtai nazardan "sifat" tushunchasi o'ziga xos mazmunga ega bo'lsa, hunarmand tomonidan bu tushuncha o'zgacha mazmunda (yaroqli, foydali) qo'llaniladi. Bir tushunchaga kasb-hunari, hayotiy tajribasi, dunyoqarashi turli xil bo'lgan shaxslar tomonidan turli mazmun yuklatilishi ham ba'zan Ayniyat qonunining buzilishiga sabab bo'ladi.

Bahs-munozara jarayonida qanday qilib bo'lsa ham raqibini aldash va yutib

chiqish maqsadida Ayniyat qonuni talablarini ataylab buzuvchilar sofistlar deb ataladi, ularning ta'limoti esa sofistika deyiladi.

Sharq adabiyotida turli ma'nodagi bir xil so'zlarni mohirlik bilan ishlatib, go'zal she'riy misralar yaratiladi. "Tuyuq" nomi bilan ma'lum bo'lgan bu she'riy misralar serma'noligi bilan insonga zavq bag'ishlaydi:

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot.

Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot.

Nasihatim yod qilib ol farzandim,

Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

(Fozil Yo'ldosh o'g'li)

Yuqoridagi to'rtlikda "ot" so'zining turli ma'larda qo'llanilishi Ayniyat qonuni talabining buzilishini emas, balki unga rioya qilinganligini ifodalaydi.

Shuningdek, o'zbek xalqiga xos bo'lgan askiya san'atida Ayniyat qonuni talabining ataylab buzilishini so'zlarning o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'nolarda qo'llanilishini kuzatish mumkin. Bu o'ziga xos so'z o'yini bo'lib, unda qo'llaniladigan nozik qochirimlar askiya aytuvchining mahoratini ko'rsatadi va tinglovchilarning kulgusiga sabab bo'ladi. Aytish mumkinki, hayotda, amaliyotda tushunchalarning turli ma'nolarda qo'llanilishi g'arazli yoki beg'araz, yaxshi yoki yomon maqsadlarga xizmat qilishi mumkin.

Ayniyat qonuni predmet va hodisalarning nisbiy barqarorligini ifoda etgani holda, tafakkurning rivojlanishini, tushunchalar va bilimimizning o'zgarib, boyib borishini inkor etmaydi. Bu qonun fikrning mazmuni predmet va hodisalarni to'laroq bilib borishimiz bilan o'zgarishini e'tirof etadi va uni hisobga olishni taqozo qiladi. Ayniyat qonuni tafakkurga, uning barcha elementlari, shakllariga xos bo'lgan umumiy mantiqiy qonundir. Bu qonunning talablari tafakkurning har bir shakliga xos bo'lgan konkret qoidalarda aniq ifodalanadi. Tafakkurning tushuncha, mulohaza (hukm), xulosa chiqarish shakllari, ular o'rtasidagi munosabatlar shu qonunga asoslangan holda amalga oshadi.

### ***3.Nozidlik qonuni***

Inson tafakkuri aniq, ravshan bo'lishi bilan birga, ziddiyatsiz bo'lishi ham zarur. Ziddiyatsizlik inson tafakkuriga xos bo'lgan eng muhim xislatlardan biridir. Ma'lumki, ob'ektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo'lishi, ham ega bo'lmasligi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning o'zida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bo'lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo'lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo'lishini ta'minlaydi.

**Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o'zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo'lishi mumkin emasligi, hech bo'lmaganda ulardan biri, albatta, xato bo'lishini ifodalaydi.** Bu qonun «A ham V, ham V emas bo'la olmaydi» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig'ida bu qonun quyidagi

formula orqali yoziladi:  $\neg(a \wedge \neg a)$

( formula “ a va a emas bo‘lishi mumkin emas” deb o‘qiladi. )

Nozidlik qonuni qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qo‘llanadi. Bunda qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi ham bir vaqtda xato bo‘lishi mumkin; o‘zaro zid mulohazalar esa, bir vaqtda xato bo‘lmaydi, ulardan biri xato bo‘lsa, ikkinchisi albatta chin bo‘ladi. Qarama-qarshi mulohazalarda esa, bunday bo‘lmaydi, ya’ni ulardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi. Masalan: “Arastu — mantiq fanining asoschisi” va “Arastu — mantiq fanining asoschisi emas” — bu o‘zaro zid mulohazalardir. Bu zid mulohazalarning har ikkalasi bir vaqtda xato bo‘lmaydi. Ulardan birinchisi chin bo‘lganligi uchun, ikkinchisi xato bo‘ladi. O‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan “Bu dori shirin” va “Bu dori achchiq” mulohazalarining esa ikkalasi bir vaqtda, bir xil nisbatda xato bo‘lishi mumkin. Chunki dori shirin ham, achchiq hambo‘lmasligi, balki sho‘r, bemaza yoki nordon bo‘lishi mumkin.

Ba’zida ikki qarama –qarshi fikr aytilganda mantiqiy ziddiyat bo‘lmasligi mumkin. Bunda bir masala yuzasidan bayon qilngan qarama-qarshi fikrlar turli vaqtda va turli nisbatda aytilgan bo‘ladi. Masalan: “Akmal musobaqada qatnashmadi” va “Akmal musobaqada qatnashdi”. Bu mulohazalar turli vaqtga nisbatan (bir oy avval yoki keyin), turli munosabatda (suzish yoki shaxmat bo‘yicha) bayon qilingani tufayli bir-birini inkor etmaydi. Demak, fikrlash jarayonida vaqt, munosabat va ob’ekt birligining saqlanishi Nozidlik qonunining amal qilishi uchun zaruriy shart-sharoit hisoblanadi.

Mantiq ilmi umuman har qanday zid mulohazalarni ta’qiqlamaydi, balki bir masala yuzasidan bir xil vaqt va munosabat doirasida o‘zaro zid, qarama-qarshi mulohazalarni bayon qilish mumkin emasligini ta’kidlaydi.

Formal mantiq mantiqiy ziddiyatlar bilan real hayot ziddiyatlarini chalkashtirib yuborishni qoralaydi. Chunki bulardan birinchisi tafakkurda yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan ziddiyat bo‘lsa, ikkinchisi buyum, hodisalar taraqqiyotining ichki manbaini tashkil qiladigan dialektik ziddiyatdir. Birinchisi sub’ektiv, ikkinchisi ob’ektiv ziddiyatdir.

Nozidlik qonunini bilish va unga amal qilish raqibning, suhbatdoshning fikrlaridagi mantiqsizlikni aniqlash, ilmiy taxlilni chuqur va izchil mantiqiy asosda olib borish imkonini beradi.

#### **4.Uchinchisi – istisno qonuni**

**Uchinchisi istisno qonuni Nozidlik qonunining mantiqiy davomi bo‘lib, fikrning to‘liq mazmunini qamrab olib, bayon qilingan ikki zid fikrdan birichin, boshqasi xato, uchinchisiga o‘rin yo‘q ekanligini ifodalaydi.** Bu qonun «A yo V, yoki V emas bo‘ladi» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig‘ida bu qonun quyidagi formula orqali yoziladi:  $a \vee \neg a$

( formula “ a yoki a emas” deb o‘qiladi. )

Bu qonun fikrlar o‘rtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agarda zid munosabatlar fikrning to‘liq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi ma’lum bo‘lsa, unda “Uchinchisi – istisno” qonuni amal qilmaydi.

Masalan:

Talaba imtihonda «a'lo» baho oldi.

Talaba imtihonda «ikki» baho oldi.

Bu mulohazalar munosabatida nozidlik qonuni amal qiladi. Chunki bu mulohazalarning har ikkisi ham xato bo'lishi va talaba imtihonda «o'rta» yoki «yaxshi» baho olishi mumkin.

Agar, «Talaba imtihonda «a'lo» baho oldi» va «Talaba imtihonda «a'lo» baho olmadi» mulohazalarini tahlil qilsak, unda bu mulohazalardan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o'rin yo'q ekanligi ma'lum bo'ladi. Chunki «yaxshi», «o'rta» va «ikki» baholar – «a'lo» baho emas.

**“Uchinchisi-istisno” qonuni quyidagi holatlarda qo'llanadi:**

**1. Alohida olingan yakka buyumga nisbatan bir xil vaqt va munosabat doirasida o'zaro zid fikr bildirilganda.** Masalan:

Toshkent – O'zbekistonning poytaxti.

Toshkent – O'zbekistonning poytaxti emas.

Bu mulohazalar birgalikda chin ham, xato ham bo'la olmaydi. Ulardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchi mulohazaga o'rin yo'q. “Uchinchisi-istisno” qonuni o'zaro zid umumiy mulohazalar doirasida amal qilmaydi. Chunki umumiy mulohazalarda buyumlar sinfiga va shu sinfga mansub har bir buyumga nisbatan fikr bildiriladi.

Masalan:

Hamma faylasuflar notiqdir.

Hech bir faylasuf notiq emas.

Bu mulohazalardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi haqida xulosa chiqarib bo'lmaydi. Bunday holatda «Ba'zi faylasuflar notiqdir» degan uchinchi bir mulohaza chin hisoblanadi.

**2. Son va sifatiga ko'ra o'zaro zid mulohazalar bayon qilinganda,** buyum va hodisalarning sinfi haqida tasdiqlab bayon qilingan mulohaza bilan, shu sinf buyum va hodisalarining bir qismi haqida inkor etib bayon qilingan mulohazalardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchisiga o'rin bo'lmaydi.

Masalan:

Hamma faylasuflar tabiatshunosdir.

Ba'zi faylasuflar tabiatshunos emas.

Bu ikki mulohaza bir vaqtda chin ham, xato ham bo'la olmaydi. Ulardan biri (Ba'zi faylasuflar tabiatshunos emas) albatta chin, ikkinchisi xato, uchinchi mulohazaga o'rin yo'q.

**Demak, Uchinchisi istisno qonuni:**

**1. Ikki zid yakka mulohazalarga nisbatan.**

**2. Umumiy tasdiq va juz'iy inkor etuvchi mulohazalarga nisbatan.**

**3. Umumiy inkor va juz'iy tasdiq mazmunidagi mulohazalarga nisbatan qo'llanadi.**

“Uchinchisi-istisno” qonunining amal qilishi uchun olingan zid munosabatlarni ifodalovchi mulohazalardan biri tasdiq, ikkinchisi inkor mazmunida bo'lishi yoki tushunchalardan biri ijobiy va boshqasi salbiy bo'lishi shart emas. Olingan ikki tushuncha yoki mulohaza bir-birini hajm jihatdan to'liq inkor etishi

kifoya. Masalan, “erkak” va “ayol” tushunchalarining har ikkisi ijobiy bo‘lib, “inson” tushunchasining to‘liq mazmunini qamrab oluvchi zid belgilarni ifodalaydi.

“Uchinchisi-istisno” qonunida ham, nozidlik qonunidagi kabi vaqt, munosabat, ob’ekt aynanligiga rioya etish shart, aks holda bu qonun o‘z kuchini yo‘qotadi, fikrning izchilligiga zarar yetadi va mantiqsizlikka yo‘l qo‘yiladi.

“Uchinchisi-istisno” qonuni, boshqa mantiqiy qonunlar singari, ziddiyatli mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlab berolmaydi. Buning uchun voqea va hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinadi. Inson o‘z bilimlariga asoslangan holda o‘zaro zid mulohazalardan qaysi biri chin yoki xato ekanligini aniqlaydi. Bu qonun o‘zaro zid mulohazalar bir vaqtda chin bo‘lmasligini tasdiqlaydi.

“Uchinchisi-istisno” qonunini bilish, muhokama yuritishda to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun muhim bo‘lib, o‘zaro zid qarashlarni aralashtirib yuborishga yo‘l qo‘ymaydi.

### **5. Yetarli asos qonuni**

To‘g‘ri fikrlashga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri asoslilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo‘lmasligi uchun uni asoslash, isbotlashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma’lum bo‘lgan va o‘zaro mantiqiy bog‘langan mulohazalarga asoslaniladi, ya’ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma’lum bo‘lgan, chinligi tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati yetarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Inson tafakkuriga xos bo‘lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnis ta’riflab bergan. Uning ta’kidlashicha, barcha mavjud narsalar o‘zining mavjudligi uchun yetarli asosga ega. **Har bir buyum va hodisaning real asosi bo‘lgani kabi, ularning in’ikosi bo‘lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo‘lishi kerak.** Yetarli asos qonunining bu talabi quyidagi formula orqali ifodalanadi: «Agar V mavjud bo‘lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud».

Yetarli asos qonunida to‘g‘ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog‘lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko‘rib o‘tilgan qonunlar bilan o‘zaro bog‘liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar **mantiqiy asos**, berilgan mulohazaning o‘zi esa **mantiqiy natija** deb yuritiladi.

Mantiqiy asos bilan ob’ektiv, real asosni aralashtirib yuborish mumkin emas. Asos va natija orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni sabab va oqibat aloqadorligidan farqlash zarur. Masalan, «Bu kishi bemor», degan mulohazani «U shifoxonada davolanyapti», degan fikr bilan asoslash mumkin. Aslida shifoxonada davolanish dastlabki mulohazaning sababi emas, balki oqibatidir. Ko‘rinib turibdiki, mantiqiy asos hamma vaqt ham hodisaning sababi bilan mos kelmaydi. Fikrlarning yetarli asosga ega bo‘lishining ob’ektiv manbai faqat sabab-oqibat munosabatinigina emas, shuningdek, fikrning izchilligi, asoslanganligini, isbotlangan bo‘lish xususiyatlarini ham, ya’ni ob’ektiv mazmuni sabab-oqibat munosabatlaridan tashqarida bo‘lgan

boshqa munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo‘lib, unda ikki yoki undan ortiq o‘zaro bog‘langan muhokamalar tizimidan foydalaniladi. Keng ma’noda biror mulohazani asoslash deganda, shu mulohazaning chinligini tasdiqlovchi ishonchli va yetarli dalillarning mavjudligini aniqlash tushuniladi. Bu ishonchli va yetarli dalillarni shartli ravishda ikki guruhga: empirik va nazariy asoslarga bo‘lish mumkin. Bulardan birinchisi asosan hissiy bilish, tajribaga asoslansa, ikkinchisi aqliy bilish, tafakkurga tayanadi. Empirik va nazariy bilimlarning chegarasi nisbiy bo‘lgani kabi, empirik va nazariy asoslar o‘rtasidagi farq ham nisbiydir.

Insonning shaxsiy tajribasi makon va zamonda chegaralangan bo‘lib, sezgilari bergan ma’lumot esa hamma vaqt ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shunga qaramasdan, mulohazalarni empirik asoslashning ahamiyati katta, chunki bilish jonli hissiy mushohadadan - bevosita kuzatishdan boshlanadi. Hissiy tajriba insonni tashqi olam bilan bog‘lab turadi. Nazariy bilim esa empirik bazisning ustqurmasi hisoblanadi.

Umumiy-chin mulohazalar sifatida fanlarning qonun-qoidalari, tushunchalar ta’rifi, shuningdek, aksiomalardan foydalaniladi. Bularning barchasi nazariy asoslashning ratsional yoki demonstrativ usullari bo‘lib, ular umumilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan isbotlash metodlarining asosini tashkil etadi. Shuningdek, asoslashning sub’ektiv xarakterda bo‘lgan va bevosita tajriba natijalariga yoki nazariy fikr yuritishga taalluqli bo‘lmagan usullari mavjud. Intuitsiya, e’tiqod, avtoritet va urf-odatlariga asoslanish shunday usullar jumlasiga kiradi. Bu usullardan ko‘proq kundalik ong darajasida foydalaniladi. **Intuitsiya** hech qanday muhokama va isbotlarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri haqiqatga erishish qobiliyatini ifodalaydi. “Intuitsiya” so‘zi – lotincha “intuitio” so‘zidan olingan bo‘lib, «diqqat bilan tikilib qarayman», degan ma’noni bildiradi. Intuitsiya bilish jarayonida sezilarli ahamiyatga ega bo‘lib, hissiy va aqliy bilishdan o‘zgacha bir ko‘rinishni tashkil etmaydi; o‘ziga xos fikr yuritish, tafakkur qilish usulini ifodalaydi. Intuitsiya orqali inson murakkab hodisalarning mohiyatini, uning turli qismlariga e’tibor bermagan holda, fikran yaxlit qamrab, tushunib oladi. Bunda tafakkur jarayonining alohida qismlari u yoki bu darajada anglanmaydi va asosan fikr yuritish natijasi – haqiqatgina anglangan holda aniq, ravshan qayd etiladi. Intuitsiya haqiqatni aniqlashda yetarli asos hisoblansa-da, lekin bu haqiqatga boshqalarni ishontirish uchun yetarli hisoblanmaydi.

**E’tiqod** – kishining ishonchini qozongan va shuning uchun ham uning faoliyatida xatti-harakatlarini belgilab beradigan, uning dasturi bo‘lib xizmat qiladigan qarashlar majmuasidan iborat. E’tiqod chinligi isbotlangan mulohazalarga yoki tanqidiy tahlil qilib ko‘rilmagan, chinligi noma’lum boshlang‘ich bilimlarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Intuitsiya kabi e’tiqod ham sub’ektiv xarakterda bo‘lib, davr o‘tishi bilan o‘zgarib turadi. Albatta, e’tiqod haqida fikr yuritganda ko‘r-ko‘rona e’tiqod bilan tarixiy va hayotiy tajriba natijasi bo‘lgan, bilimga asoslangan e’tiqodni farqlash zarur. Faqat ilmiy bilimga asoslangan e’tiqodgina fikr va mulohazalarning chinligini aniqlashda yetarli asos bo‘ladi. Shuning uchun ham ular inson qalbida mustahkam o‘rnashib qoladi. Prezidentimiz I.A. Karimov: «Milliy mafkura – bu xalqning, millatning o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan o‘lmas

e'tiqodidir<sup>13</sup>», - deganda aynan shuni nazarda tutgan edi.

**Avtoritet** (autoritas – hokimiyat, ta'sir) – keng ma'noda ijtimoiy hayotning turli sohalarida biror shaxsning yoki tashkilotning ko'pchilik tomonidan tan olingan norasmiy ta'siridir. Yetarli asos qonuni bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilishda “avtoritet” tushunchasi obro'li, e'tiborli, nufuzli manba ma'nosida qo'llanadi. Avtoritetlarga asoslanish deganda esa, biror fikr, mulohazaning chinligini asoslashda obro'li, e'tiborli, nufuzli manbalarga murojaat qilish tushuniladi. Nufuzli manba sifatida alohida shaxslarning fikr va mulohazalari, muqaddas diniy kitoblardagi bitiklar, xususan, “Qur'on”da yozilgan sura va oyatlar, xalq maqollari va hikmatli so'zlardan foydalaniladi.

Avtoritetlarning amal qilish doirasi va davomiyligi turli xil bo'ladi. Vaqt o'tishi yoki amal qilish doirasining o'zgarishi avtoritetlarning mavqeini tushirib yuborishi mumkin.

Keng doirada amal qiladigan va doimiy, muntazam bo'lgan avtoritetlarga fikr-mulohazalarning chinligini aniqlash uchun yetarli asos bo'ladi. Bunday avtoritetlar tarixiy sharoit va siyosiy o'zgarishlarning ta'sirida o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydi, vaqt sinoviga bardoshli bo'ladi. Umuminsoniy ma'naviy madaniyat xazinasidan joy olgan buyuk mutafakkirlarning hikmatli so'zlari, umuminsoniy-axloqiy qadriyatlar, xalqlarning ijtimoiy-tarixiy tajribasini aks ettirgan maqollar fikr-mulohazalarning chinligini asoslashda yetarli dalil hisoblanadi.

Avtoritetlarga asoslanish bilan **avtoritar tafakkurni** o'zaro farqlash zarur. Avtoritarlik – asoslanganlikning o'zgargan, buzilgan ko'rinishi bo'lib, unda mulohaza yuritish va uning chinligini aniqlash vazifasi avtoritetlar zimmasiga yuklanadi.

Avtoritar tafakkurlashga moyil kishi biror muammoni o'rganishdan avval o'zini «asosiy mulohazalar yig'indisi» bilan cheklab qo'yadi. Bu mulohazalar yig'indisi tadqiqotning asosiy yo'nalishini belgilab beradi va ko'pincha avvaldan ma'lum bo'lgan natijani keltirib chiqaradi. Dastlabki asos bo'lgan fikrlar tizimi namuna sifatida qabul qilinadi va boshqa fikrlar unga bo'ysundiriladi. Agar asosiy mulohazalarning deyarli barchasi avtoritetlar tomonidan aytilgan bo'lsa, uning davomchilariga bu fikrlarni tushuntirish va izohlash qoladi, xolos. Bu yangiliklardan va ijodiylikdan mahrum bo'lgan fikr yuritish usuli bo'lib, dialektik tafakkurga ziddir. Avtoritetlar, nufuzli manbalar, jamiyat a'zolari, xususan, yoshlarda milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Shu o'rinda matbuotning, ayniqsa, radio va televideniening u yoki bu manbaning avtoritet deb tan olinishidagi roli e'tiborlidir. Bu haqda I. Karimov: «Bizning matbuotimiz, televideniemiz ham tarixga oid maqolalar chop etganda, ko'rsatuvlar tayyorlaganda bir kishining fikrini yagona haqiqat sifatida qabul qilinishiga yo'l qo'ymasligi darkor. Muayyan masalada turli fikrlarni berish, bahs orqali haqiqat oydinlashuviga erishish lozim<sup>14</sup>», deb ta'kidlagan.

<sup>13</sup> Каримов И.А. Миллий истиқлол мафқураси-халқ этикоди ва буюк келажакка ишончдир: FIDOKOR газетаси мухбири саволларига жавоблар.-Т.: Ўзбекистон. 2000, 30-б.

<sup>14</sup> Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Мулоқот.,1998.5-сон, 15-б.

Avtoritetlar masalasi murakkab va ko'p qirralidir. Shu sababdan fikr-mulohazalarning chinligini asoslashda avtoritet hisoblangan fikrlardan konkret sharoitga mos ravishda, me'yorga amal qilgan holda foydalanish zarur.

**Urf-odat** avloddan avlodga meros bo'lib o'tadigan va muayyan jamiyat yoki ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilingan bir xil shakldagi xatti-harakat, xulq-atvor usuli bo'lib, kishilarning turmush tarzi va fikr yuritishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Urf-odatlariga asoslangan holda fikr yuritish va harakat qilish ko'pincha kishilarning turmushi, axloqiy me'yorlar va xalq marosimlari doirasida namoyon bo'ladi. Milliy g'oya va milliy mafkura urf-odatlar orqali ham jamiyat a'zolarining ongiga singib boradi. Jamiyat yoki ijtimoiy guruh tomonidan biror shaxs yoki voqea-hodisaga nisbatan bo'lgan munosabat muayyan urf-odatlar bilan asoslanadi. Bunda biror xatti-harakatni asoslash uchun «urf-odatlarimizga ko'ra...», deb fikr yuritiladi.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo'lib, unda bir yoki undan ortiq o'zaro bog'langan muhokamalar sistemasidan foydalaniladi. Mulohazalarning chinligini asoslash tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, fikrlarimizning mantiqli, tartibli, ishonarli bo'lishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, to'g'ri tafakkurning yuqorida ko'rib o'tilgan qonunlarining har biri chin bilimga erishish uchun xizmat qiladi. Bu qonunlar tafakkur jarayonida alohida-alohida yoki birin-ketin emas, balki bir vaqtda, birgalikda fikrlar bog'lanishining xarakteriga qarab amal qiladi. Ayniyat qonuniga ko'ra, fikrlash jarayonida har bir mulohaza qat'iy mazmunga ega bo'lishi, aynan shu fikr doirasida o'zgarish talab qilinadi. Bu talabning buzilishi fikrda mantiqiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Zid mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlash ularni mantiqiy asoslashni taqozo etadi.

Demak, bu qonunlarning talablari bir-birini to'ldirgan holda mantiqiy tafakkurning chin bo'lishini ta'minlaydi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Induktiv xulosalashning ilmiy-amaliy ahamiyati. **Tayanch iboralar:** induktiv bilish, induktiv kuzatish, tajriba, eksperiment, natija, yangilik, amaliyot.
2. Induktiv xulosa chiqarishning to'liq va to'liqsiz shakllari. **Tayanch iboralar:** induktiv xulosalash tasnifi, to'liq xulosalash, to'liqsiz xulosalash, sinf, guruh, tur, induksiya shartlari, statik induksiya, o'xshatish metodi, tavofut metodi.
3. Aylantirish orqali xulosa chiqarish. **Tayanch iboralar:** aylantirish, almashtirish, qisqartirilgan almashtirish, sof va kengaytirilgan almashtirish.
4. Muammolarni yechish yo'llari va ularning hayotiy ahamiyati. **Tayanch iboralar:** muammolar mohiyati, muammolar tasnifi, tajriba, amaliyot, kashfiyot, sinash, kuzatish, xulosa, yakun.
5. Predikatga qarama-qarshi qo'yish. Tayanch iboralar. Qarama-qarshilik, qisman moslik, bo'ysunish munosabati.
6. To'liqsiz induksiya va ularning shartlari. **Tayanch iboralar:** induksiya, tasodif, ziddiyatsiz xolatlar, statistik umumlashtirish, ommaviy induksiya, ilmiy induksiya prinsiplari, tanlash, rad qilish prinsiplari, ehtimollikni ifodalanishi.



7. Tafovut metodi va o'xshatish metodlari. Ularning bog'lanish shartlari. **Tayanch iboralar:** tafovut, ayniyat, ziddiyat, tafovut xolati, tafovut qoidasi, tafovut metodi sxemalari.
8. Mantiqiy kvadrat va xulosa chiqarish. **Tayanch iboralar:** qarama-qarshi, zidlik, bo'ysunish, munosabat.
9. Vositali va vositasiz xulosa chiqarish va uning shartlari. **Tayanch iboralar:** xulosa, natija, asos, mantiqiy kvadrat, almashtirish, predikat, aylantirish.
10. Shartli sillogizm va uning turlari. **Tayanch iboralar:** sillogizm, asos, qat'iy, sof, tasdiqlovchi, modus, konstruktiv, destruktiv.
11. Qisqartirilgan qat'iy sillogizmlar. Ularning o'ziga xosligi. **Tayanch iboralar:** sillogizm-entimema, katta asos, kichik asos, xulosasi qoldirilgan entimemalar.
12. Murakkab sillogizmlar. Ularning ijtimoiy mohiyati. **Tayanch iboralar:** polisillogizm-murakkab sillogizm, progressiv. Regressiv. Epixeyrema, o'rta termin, soritlar.
13. Xukm terminlari, ularning ta'riflari va mohiyati. **Tayanch iboralar:** xukm, sub'ekt, predikat, bog'lovchi aniq belgi, yangi belgi, kesim elementlari.
14. Xukm elementlari. Ularning ilmiy ahamiyati. **Tayanch iboralar:** ega, kesim, sub'ekt, predikat, bog'lovchi.

**4-Mavzu: Dalillarga tayangan holda fikr yuritish-ilmiy bilishning mantiqiy asosi. Mantiqiy paradoks.**

**REJA:**

1. *Dalillashtirish va ishonch-e'tiqodning shakllanish jarayoni*
2. *Isbotlash, uning tarkibi va turlari.*
3. **RADDIYA. RAD ETISH USULLARI.**

Mantiqiy paradoks. Ilmiy muammo tushunchasi. Mantiqiy tahlil va uning strukturasi. Mantiqiy bog'liqlik.

**Dalillashtirish va ishonch-e'tiqodning shakllanish jarayoni**

Mantiq fani to'g'ri fikr yuritish qonun-qoidalari, shakllari bilan birgalikda fikrning asoslanilgan bo'lishligi masalasi bilan ham shug'ullanadi. Shunga ko'ra mantiq fanida fikrning asoslanilishi, dalillash maxsus mavzui hisoblaniladi.

**Dalillash to'g'ri fikr yuritish va shu orqali chin bilim, haqiqatga erishishning muhim qonuniyatidir.** Oddiy muhokama yuritishdan tortib ilmiy - nazariy bilimlarga erishish mana shu qonuniyat, tamoyillarga rioya qilishni talab etadi. Dalillash quyidagi bir-biri bilan bog'liq vazifalarni bajaradi:

- 1) fikrning xato va chinligini asoslash ;
- 2) haqiqatga erishish;
- 3) e'tiqodni shakllantirish;
- 4) kishilarning ijtimoiy faolligini oshirish.

Dalillash chin bilimlarga erishish, ilmiy nazariyalarni shakllantirishning usuli bo'lish bilan birgalikda muayyan qarash, g'oyalarni kishilar e'tiqodi, faoliyatlari motiviga aylantirishning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra dalillash jarayonida ijtimoiy, psixologik lingivistik omillar muhim rol o'ynaydi.

Dalillashda tafakkurning qonun-qoidalari va shakllarining tamoyillari o'zaro birlikda qo'llaniladi va bu asosan fikrning chin yoki xatoligini asoslashga qaratilgan bo'ladi.

**Dalillash deb muhokama, ilmiy taxmin, qarashlarni bevosita va vositali asoslovchi mantiqiy usulga aytiladi.**

Dalillash yangi nazariy bilimlarning hosil qilinishi hamda kishilarda iymon-e'tiqod, dunyoqarashning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Darhaqiqat, har qanday ilmiy nazariyalar asoslanilgan bilimlar tizimidir. Shuningdek, hech bir e'tiqod, dunyoqarash yo'qki, u dalillashni taqozo etmagan bo'lsin.

Ma'lumki, har qanday nazariy bilimlar tizimi- fanlar tekshirilayotgan narsa, hodisaning sababini aniqlash orqali yuzaga keladi. Abu Nasr Forobiy o'zining «Ixsol al-ulum» («Ilmlarning kelib chiqishi») nomli risolasida har bir fan sohasi, ilmiy bilimlar olamdagi substansiya (javhar) va (oraz) sabablarini dalillash ehtiyoji yuzaga kelgandan keyin shakllanishligini ta'kidlaydi.<sup>15</sup>

Dalillash, ayniqsa, kishilarda iymon-e'tiqod, dunyoqarashini shakllantirishda belgilovchi rol o'ynaydi. E'tiqod -bu kishilarning u yoki bu g'oya, qarashlar haqidagi tasavvurlari, faoliyatlarining ichki motiviga, tuyg'usiga aylangan, botinlashgan bilimlaridir. .

E'tiqod kishilarning or-nomusi, iymoni bilan bog'liqdir. Shuning uchun ko'plab kishilar o'z e'tiqodlari yo'lida qurbon bo'lishni sharaf deb biladilar. E'tiqod asosini tashkil etuvchi qarash, g'oyalar shunchalik chin va xatolik mezoni bilan o'lchanmaydi, chunki ular kishilar uchun qadriyatli ahamiyatga molik bo'ladi. Shunga ko'ra ular kishilar tomonidan hissiy bilish xamda ongi, tafakkuri o'z-o'ziga qaratilishi darajasida idrok etiladi. E'tiqod har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi. Shunga ko'ra u diniy, falsafiy va nazariy e'tiqodlarga ajraladi. Lekin e'tiqod qanday shakl, ko'rinishda bo'lmasin, uning shakllanishi bevosita mantiqiy omil bilan shartlangan bo'ladi.

Kommunistik mafkura homiylari uzoq yillar mobaynida diniy e'tiqodga qarshi kurash olib bordilar va bunda unga fan, ilmni qarshi qo'yidilar. Aniqrog'i, fandan xudoning yo'qligini asoslovchi vosita sifatida foydalanishga urinadilar.

Lekin kishilik tarixida fan dinga zid bo'lmagan, balki o'zaro dialektik birlikda rivojlangan, shakllangan.

Germaniyalik olim Dinard insoniyat madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan 290 nafar olimning fikrini o'rganib chiqib, quyidagini aniqlagan: 290 kishidan 20 kishi hech bir aniq e'tiqodga erishmagan, 242 kishi xudoga ishonuvchi, faqat ularning 20 tasi din bilan qiziqmaganlar.

Hozirgi zamon fani mikro va makroolam sarhadiga qanchalik chuqur kirib borar ekan, uning mo'jizalariga yanada ko'proq duch kelmokda. Ba'zi ilm ahllari

<sup>15</sup> Қаранг: «Форобий Абу Наср..Илмларнинг келиб чиқиши тўғрисида. //Фозил одамлар шаҳри.Тошкент, Абдулла Қодирий номли халқ мероси нашриёти. 1993, 175-бет.

bunday mo'jizalar oldida lol qolganlari holda, o'zlarining e'tiqodlarini ham o'zgartiradilar-dahriylikdan qaytib Xudoning barahaqligiga iymon keltiradilar. Bu o'rinda insoniyat tarixida birinchi bo'lib Oy sathiga qadam qo'ygan amerikalik astronomt Neyl Armstrangning nasroniylikdan kechib musulmonlikni qabul qilganini ko'rsatish xarakterlidir. (Bu haqida batafsil qarang; "Ilohiy mo'jizalar". Toshkent, "Cho'lpon", 1995, 26 -bet.)

Kishilarimizda, xususan, yoshlarda milliy g'oyani iymon-e'tiqod darajasida shakllantirish talab etiladiki, bu murakkab vazifaning bajarilishida dalillash mantiqiy usuli eng muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda milliy g'oya, mafkurani har bir jamiyat a'zosining qalbi va ongiga singdirish, dunyoqarashiga aylantirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

I.A Karimov «Turkiston» gazetasining muxbiri savollariga bergan javobida mafkura, ma'naviyatning mohiyatini izohlab berar ekan, bunda eng muhimi mustaqillik g'oyasini kishilar ongi va qalbiga singdirish ekanligini alohida ta'kidlaydi. Zotan, deb ko'rsatadi Prezidentimiz, mustaqillik g'oyasi asosida iymon-e'tiqodli, mustaqil fikrlovchi, fidokor komil inson ma'naviyatini shakllantirish muammosi yotadi.<sup>16</sup>

Mazkur vazifa barcha ijtimoiy institutlar, davlat va nodavlat tashkilotlari, o'rta va oliy maktab va boshqa tizimlar faoliyatining o'zaro hamkorligida amalga oshiriladiki, bunda dalillash tamoyiliga asoslanish talab etiladi. Chunki har qanday g'oya, qarashlarning chin, haqiqatligi dalillab berilgandagina ular kishilarning ishonch, e'tiqodiga, faoliyatining motivi, maqsadiga aylanadilar.

Isbotlash va rad etish dalillashning mantiqiy asosini tashkil etadi. Bunda faqat mantiqiy jihat hisobga olingani holda dalillashning boshqa (ijtimoiy, psixologik, lingvistik) omillari fikran soqit qilinadi. Shuning uchun u yoki bu qarash, g'oyalar, garchi mantiqan asoslanib berilsa-da, kishilarning e'tiqodlariga aylanmasligi mumkin va, aksincha, mantiqan asoslanmagan bilimlar kishilar amaliy faoliyatlari uchun dasturilamal sifatida amal qilish mumkin.

## **2§. Isbotlash, uning tarkibi va turlari.**

**Isbotlash** deb berilgan hukmning chinligi boshqa chin hukmlar yordamida asoslanuvchi mantiqiy usulga aytiladi. Bunda berilgan hukmning chinligi keltirilgan dalil- hukmlarning chinligidan mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbot uch tarkibiy elementdan tashkil topgan bo'ladi: **tezis, asoslar(argumentlar), namoyish etish** -isbotlash usuli.

**Tezis** (grekcha thesis- qoida, fikr) -bu chinligi asoslanishi talab etiladigan muhokamadir. Tezis sifatida nazariy va amaliy ahamiyatga molik muammoviy hukmlar olinadi. Bunday ahamiyatga ega bo'lmagan, shuningdek, aksiomatik tarzda muhokamalarni isbotlashning keragi bo'lmaydi. Masalan: "Baliq suvda yashaydi", «Amudaryo-Markaziy Osiyodagi daryo» hukmlarini tezis sifatida qabul

---

<sup>16</sup>Қаранг: «Туркистон» газетаси, 1999, 2-феврал,1-бет.

qilib bo'lmaydi. Agar ularni "Okun balig'i chuchuk suvda yashaydi», «Amudaryoning suvi yil sayin kamayib bormoqda» hukmlariga aylantirsak, ular tezis maqomatini oladi.

Tezis isbot etishning bosh elementi hisoblanadi, chunki isbotlashning so'nggi maqsadi- berilgan tezisning chinligini asoslashga qaratilgan bo'ladi. Tezisni aniq ifodalash, ilgari surish, va uni asoslay bilish mantiqiy fikr yuritishning muhim sharti hisoblanadi. Muhokama yuritishdagi noaniqlik, mavhumlik, ziddiyatlilik ko'pgina hollarda ana shu shartning buzilishi natijasi o'laroq sodir bo'ladi. Ifodalanyotgan fikr mazmuni va muhokama tizimida tutgan mavqeiga ko'ra tezis bosh va ikkinchi darajali bo'ladi.

Bosh tezis — bu muhokama tizimidagi isbot etilishi talab etiladigan asosiy fikr bo'lib, uning mazmuni ikkinchi darajali tezislarning asoslanishi orqali ochiladi. Ikkinchi darajali tezis deb bosh tezisga bo'ysunuvchi va chinligi mustaqil tarzda asoslanishi talab etadigan muhokamaga aytiladi. Ikkinchi darajali tezislar muayyan, konsepsiya, nuqtai-nazarlarning asoslanishida ilgari suriladi. Va bunda ular bosh tezisni asoslash uchun xizmat qiladi. Misol tariqasida I.Karimovning 25 iyul 1996 yil Vazirlar mahkamasida so'zlagan nutqini olib qaraylik. Mazkur nutqda ilgari surilgan bosh tezis: "O'zbekiston Respublikasida tub burilish yuz berdi va uning iqtisodiyotida jadal o'sish davri boshlandi" quyidagi ikkinchi darajali tezislarning asoslanishi orqali isbot etiladi.

1. Iqtisodiyotimizni muvaffaqiyatli isloh etishning eng muhim natijasi bo'lmish mustahkam makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi.

2. Milliy valyutamiz, so'mimiz mustahkamlandi.

3. Xususiylashtirish jarayoni chuqurlashdi va kengaydi.

4. Mo'ljallangan investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi.<sup>17</sup>

Muhokama yuritishda bosh tezisni belgilash va undan ikkinchi darajali tezislarni keltirib chiqarish isbot etish jarayonining zaruriy shartidir.

**Dalil** (lotincha *argumentum*) mantiqiy asos- tezisning chinligini asoslovchi muhokamalardir. Dalilda tezisda ifodalanyottan natija, oqibatning mantiqiy asosi ko'rsatiladi. Masalan: "Aristotel-dualist faylasuf" (tezis), "Chunki u moddiy va ruhiy substansiya (javhalarni) teng ahamiyatga ega bo'lgan ibtidolar deb hisoblaydi". (argument).

Isbotlashda argument vazifasini amaliyotda aniqlangan bilimlar o'taydi. Shunga ko'ra faktlar, tariflar, qoidalar, aksioma, postulatlar, ilmiy nazariyalar argumentlar sifatida keltiriladi.

Faktlar-bu chinligiga hech qanday shak-shubha bo'lmagan bilimlardir. Rus fiziologi P.P.Pavlov faktlarning ilmiy bilishdagi roli haqida shunday deb yozgan: "Faktlar olim uchun havodir. Usiz parvoz qilish mumkin emas". Faktlar ashyoviy, raqamli (statistik ma'lumotlar) va boshqa shakllarda bo'ladi.

Faktlar inkor etishda ham muhim dalil hisoblanadi. Isbotda berilgan tezisning chinligi ko'pincha inkor - rad orqali ko'rsatiladiki, bunda asosan faktlarga murojat

---

<sup>17</sup>Қаранг: "Халқ сўзи" газетаси, 26 июль, 1996 йил, 1-бет.

etiladi. Bu haqida keyinroq to'xtalamiz.

Isbot etish o'z mohiyatiga ko'ra muhokamalardan yangi muhokamalarga mantiqan o'tish hisoblanadiki, bunda ularning ta'rif-qoidalar tarzidagi hukmlar bo'lishligi talab etiladi. Masalan: "Vertikal burchaklar teng" degan teorema (tezisni) isbotlashda birinchi galda "Vertikal burchak" tushunchasining ta'rifiga: "Agar ikki burchakdan birining tomonlari ikkinchi tomonlarining to'ldiruvchi yarim to'g'ri chiziqlari bilan bo'lsa, bu ikki burchak vertikal burchak deyiladi"ga tayaniladi.

Aksioma (grekcha axioma-shuhbasiz), postulat (lotincha postulatium -talab darajasi) o'zgaras haqiqat darajasidagi bilimlardir. Shuning uchun ulardan isbot etishda asosiy dalillar sifatida qo'llaniladi. Aksioma, postulatlar amaliyotda qayta-qayta sinab ko'rilgan, umumiy qoida sifatida qabul qilingan bilimlardir. Har bir fan o'z aksioma, postulatlariga ega bo'lib, (masalan, matematikada aksiomalar vazifasini chinligi isbotlangan formulalar, geometriyada teoremlar o'taydi) ular vositasida yana yangi formula va teoremlar hosil qilinadi.

Ijtimoiy fanlar sohasida kishilik tarixi taraqqiyotining barcha etaplarida sinalgan va umumiy qonuniyat maqomatini olgan tamoyillar aksiomalar sifatida qabul qilinadi. Masalan: "Bozor iqtisodiy-jamiyat taraqqiyotining bosh omili", degan tamoyil aksiomatik xarakteriga ega bo'lib, u bugungi kunda sobiq sotsialistik mamlakatlar o'zlarining taraqqiyotini mazkur tamoyil asosida amalga oshirmoqdalar.

**Isbotlash usuli – demonstratsiya** tezis bilan argumentlar o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo'ladi, ya'ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bivosita isbotlash. **Bevosita isbotlashda** tezisning chinligi to'g'ridan-to'g'ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo'lgan hukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko'p hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma'lum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan, «O'zbekiston – mustaqil davlatdir», degan hukm (tezis)ning chinligi «O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

**Bivosita isbotlashda** esa tezisning chinligi unga zid bo'lgan hukmning (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo'lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi.

**Apagogik isbotlash** tezis (a) va antitezis ( $\bar{a}$ ) o'rtasidagi munosabatga asoslanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan hukmning chinligini asoslash uchun unga zid bo'lgan «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm olinadi.

Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma'lum bir natija keltirib chiqariladi (2-bosqich), so'ngra bu natijalarning xatoligi ko'rsatiladi (3-bosqich) va demak, tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm chin bo'lsa, «Moddiy predmetlar strukturatsiz mavjud», degan fikr (antitezisdan kelib chiqqan natija) ham chin bo'ladi. Bizga ma'lumki, moddiy predmetlar tarkibsiz (uni tashkil

qiluvchi elementlar va ularning o‘zaro aloqasisiz) mavjud emas. Demak, «Materiya harakatsiz mavjud», degan fikr xato, shu tariqa «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan fikrning chinligi asoslanadi.

**Ayiruvchi isbotlashda** tezis sof ayiruvchi hukmning (kuchli diz’yunksiyaning) bir a’zosi bo‘lib, uning chinligi boshqa a’zolarining (antitezisning) xatoligini ko‘rsatish orqali asoslanadi. Masalan, “Jinoyatni yo A, yo V, yo S shaxslar sodir etgan», degan fikr tekshirilib, «Jinoyatni V shaxs ham, S shaxs ham sodir etmagan”ligi aniqlanadi va shu tariqa «Jinoyatni A shaxs sodir qilgan», degan hukmning chinligi asoslanadi. Bu misolda ayiruvchi isbotlash ayiruvchi – qat’iy sillogizmni inkor etib, tasdiqlovchi modusi bo‘yicha qurilgan. Ayiruvchi isbotlashda barcha muqobil variantlar to‘liq olingandagina xulosa chin bo‘ladi, ya’ni tezis isbotlanadi.

### **3. Raddiya. Rad etish usullari.**

**Raddiya** – isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amal.

Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid bo‘lgan fikrning xatoligini ko‘rsatishdan iborat bo‘lganligi uchun raddiyani isbotlashning xususiy ko‘rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (rad qilinishi lozim bo‘lgan hukm), argumentlar (tezisni rad qiluvchi hukmlar) va demonstratsiya (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo‘ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish, ya’ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri ma’lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilinmagan, munozarali masalalar bo‘yicha olib boriladigan bahslar **polemika** hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

- I Tezisni rad etish
- II Argumentlarni rad etish
- III Demonstratsiyani rad etish.

#### **I. Tezisni rad etish.**

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

1. Faktlar orqali rad etish. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo‘lib o‘tgan voqealar, statistik ma’lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, «Sovet davrida O‘zbekiston to‘laqonli mustaqil respublika bo‘lgan», degan tezisni rad etish, ya’ni uning noto‘g‘ri ekanligini isbotlash uchun tarixiy faktlarga asoslanamiz. O‘sha davrda respublika rahbariyati birorta muhim masalani Moskvaning ruxsatisiz hal qila olmaganligiga dalillar keltirib, tezisni rad etamiz.

2. Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko‘rsatish orqali rad etish. Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul «bema’nilikka olib kelish», deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto‘g‘ri ekanligi isbotlanadi. Chin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks holda bu bema’nilik bo‘ladi. «Bema’nilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha  $(a \rightarrow b) \rightarrow ((a \rightarrow b) \rightarrow a)$

3. Tezisni antitezisni isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo‘lgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno qonuniga

muvofig, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi. Masalan, Prezidentimiz I.A. Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» nomli maqolasida «Amir Temur buyuk sarkarda bo‘lgan va yovuzliklar qilgan», degan tezisni shunday rad etadi: «Inson bir paytning o‘zida ham bunyodkor, ham yovuz bo‘lishi mumkin emas. Ne-ne madrasayu masjidlar, oliy koshonalarni qurgan, ne-ne olimu fuzalolarning boshini silagan, Qur’oni karimni yod bilgan inson yovuz bo‘lmaydi. Qonxo‘r odam «Kuch – adolatda», deyishi mumkinmi?»

## ***II. Argumentlarni rad etish.***

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun yetarli emasligi aniqlanadi.

Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bo‘lishi ham mumkin:

Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmaganligi asoslab beriladi.

## ***III. Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish.***

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo‘l qo‘yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezisning chinligi uni asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo‘l qo‘yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi.

Rad etishning yuqorida ko‘rsatilgan usullari ko‘pincha birgalikda, bir-birini to‘ldirgan holda qo‘llanadi.

## ***4. Isbotlash va rad etish qoidalari, ular buzilganda kelib chiquvchi mantiqiy xatolar***

### **Tezisa aloqador qoidalar:**

1. Tezis mantiqan aniq va ravshan bo‘lishi kerak. Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o‘zining aniq predmetiga ega bo‘lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish behuda ish hisoblanadi.

2. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida boshidan oxirigacha o‘zgarmasligi kerak. Bu qoida buzilsa, «tezisni almashtirish» degan xato kelib chiqadi.

### **Argumentlarga nisbatan qoidalar:**

1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin hukmlar bo‘lishi va bir-biriga zid bo‘lmasligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun yetarli bo‘lishi kerak.

3. Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan hukmlar bo‘lishi lozim.

### **Isbotlash usulining qoidasi:**

1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chiqadigan xulosa bo‘lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilish zarur.

Isbotlash va rad etish qoidalarining buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi va ular uch turga bo‘linadi:

### **I. Isbotlanayotgan tezisa aloqador xatoliklar:**

1. Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o‘zgarmasligi shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab bo‘ladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshqa tezis bilan almashtiriladi va bunda

yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining torayishi yoki kengayishi ham bahs jarayonida tezisning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g'oyaning ahamiyati to'g'risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo'qmi, degan masalani isbot etishga harakat qilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi.

2. Insonning shaxsiy sifatini bahona qilib tezisni almashtirish. Bahs jarayonida mavzudan chetga chiqib, opponetning shaxsiy, ijtimoiy hayoti, yaxshi fazilatlari yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan, deb ta'kidlash tezisning almashinishiga sabab bo'ladi. Bunday xatoga ataylab yo'l qo'yiladi. Tinglovchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb qabul qilinishiga urinish ham tezisni almashtirish hisoblanadi.

3. Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o'rniga undan kuchliroq tezisni isbotlashga harakat qilinadi. Agar A hodisadan V kelib chiqsa, lekin V hodisadan A kelib chiqmasa, unda A hodisani ifodalovchi tezis V hodisani ifodalovchi tezisdan kuchliroq bo'ladi. Masalan, «A shaxs birinchi bo'lib janjalni boshlamagan» degan tezis (V) o'rniga, «A shaxs umuman janjal bo'lgan yerda yo'q edi» degan tezisni (A) isbotlashga harakat qilinadi. Ikkinchi tezisni isbotlab bo'lmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko'rgan guvohlar bor.

## **II. Argument (asos)larga taalluqli xatolar:**

1. Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, qadimgi grek faylasufi Fales o'z ta'limotini hamma narsa suvdan paydo bo'lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

2. Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos.

3. «Aylanma isbot etish» deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orqali isbotlansa mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, «So'zning qudrati fikr bilan o'lchanadi», degan tezisni «Fikrning qudrati so'z bilan o'lchanadi», deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo'l qo'yiladi.

## **III. Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog'liq xatolar.**

1. «Yolg'on (soxta) isbotlash». Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Bunda tezisga aloqador bo'lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, «A shaxs yomon odam», degan tezis «Tunda yomon odamlargina ko'chada yuradi», «A shaxs ko'chada tunda yuribdi» degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan bo'ladi.

2. Shartlangan fikrdan shartlanmagan fikrga o'tish. Muayyan vaqt, munosabat doirasida chin bo'lgan (shartlangan) fikrni, doimiy, o'zgarmas chin fikr deb qabul qilish natijasida mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi.

3. Xulosa chiqarish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan xatolar:



a) deduktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bu haqda deduktiv xulosa chiqarish mavzusida batafsil ma'lumot berilgan;

b) induktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «shoshib umumlashtirish» va «undan keyin, demak, shuning uchun», deb ataluvchi xatoliklardir. Masalan, bir-ikki talabaning darsga mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lishini umumlashtirib, «hamma talabalar mas'uliyatsiz», deb ta'kidlash xatodir;

v) analogiyada uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «yolg'on analogiya» bilan bog'liq xatolardir. Unda tasodifiy belgining zaruriy deb olinishi, faqat birgina o'xshash belgiga asoslanishi yoki mutlaqo taqqoslab bo'lmaydigan hodisalarning o'zaro taqqoslanishi natijasida fikrda chalkashliklar yuzaga keladi.

Mantiqiy xatolar tafakkur qonunlarini buzish, xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Mantiq tarixida isbotlash jarayonida ataylab (qasddan) xatoga yo'l qo'yuvchilar – **sofistlar**, ularning ta'limoti esa **sofizm** (grek. – ayyorlik) deb ataladi. Fikr yuritish jarayonida bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yilsa, **paralogizm** deyiladi. Chinligini ham, xatoligini ham birday isbotlash mumkin bo'lgan fikrlar esa **paradoks** deb ataladi.

**Dalillarga doir koidalar**retarli asos qonunining talablari bilan belgilanadi. Bu shu bilan izohlanadki, isbot va rad etish bu berilgan muhokamaning chin yoki xatoligini asoslashdir.

1. Dalillarchinligi amaliyotda aniqlangan bilimlar bo'lishi zarur. Xato dalillar bilan tezisni isbot va rad etib bo'lmaydi. Mazkur qoidaning buzilishi ikkita mantiqiy xatolikka olib keladi: "asosiy yanglishish" va "asosni oldindan payqash".

"Asosiy yanglishish" (lot: yeggog tundamentaeis) xatoligining mohiyati shundaki, keltiriladigan dalillar xato, noto'g'ri bo'ladi. Masalan, Klavdiy Ptolomey (eramizgacha 90-160 yillar) dunyoning tuzilishi haqidagi qarashlarini "Quyosh Yer atrofida aylanadi", "Yer harakatsizdir", degan dalillar bilan asoslaydi.

"Asosni oldindan payqash " (lotincha petitio principii) shunday mantiqiy xatolikka, unda ayrim taniqli, nomdor shaxslarning (avtoritetlarning) fikrlari, hali to'lasincha tasdiqlanmagan faktlar, kishilar orasida yurgan mish-mish gaplar dalillar sifatida keliriladi.

2. Dalillar tezisni yetarli darajada asoslay olmog'i zarur. Mazkur qoidaning buzilishi "kelib chiqmaydi", degan (lot. pop sequitur) degan mantiqiy xatolikka olib keladi. Bunda keltiriladigan dalillar muayyan darajadagi chin bilimlar bo'lsa-da, lekin ular tezisni to'liqasoslab beraolmaydi. Masalan: Hozirgi paytda kechayotgan jahon- iqtisodiy inqirozning sabablarini ayrim G'arb mutaxassis, ekspertlari asosan moliya-bank tizimida yo'l qo'yiladigan nuqson, kamchiliklardir, deb asoslashga harakat qilmoqdalar. Lekin mazkur inqirozni keltirib chiqargan boshqa bir qancha omillari borligini Prezidentimiz ko'rsatib beradi.<sup>18</sup>

3. Dalillarning chinligi mustaqil, tezisga bog'liq bo'lmagan holda isbot

<sup>18</sup> Қаранг: Ислом Каримов. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Т., "Ўзбекистон", 2009, 5-6- бетлар.

etiladigai bo'lishi kerak. Ushbu qoidaning buzilishi natijasida "fikrning bir doirada aylanishi" (lot. circulus itjosus) degan mantiqiy xatolik yuzaga keladi. Ushbu xatolikning mohiyati tezisniig dalillardan, dalillarning esa tezisdan keltirib chiqarishligi bilan izohlanadi Masalan, "Feyrebax- materialist" degan tezis "Materializm idealizmga muqobil falsafiy oqim. Feyerbax ana shu oqim vakilidir" tarzida asoslaniladigan bo'lsa, fikrning bir doirada aylanishiga yo'l qo'yilgan bo'ladi.

Materializmning falsafiy oqim sifatidagi tamoyillari ko'rsatilgan paytdagina mazkur tezis mustaqil isbot etilgan bo'ladi.

**Isbotlash usuliga(namoyish etishga) oid qoidalar**. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, isbotlash usuli dalillarning tezis bilan mantiqiy bog'lanishi usuli bo'lib, mazkur bog'lanish xulosa chiqarish shaklida bo'ladi. Shunga ko'ra xulosa chiqarishning umumiy va xususiy qoidalari namoyish etishga ham oid qoidalar hisoblanadi. Masalan, "Ehtimol" so'zi mustaqil so'zdir", degan tezisni: "Agar so'zlar mustaqil bo'lsa, unda gap bo'lagi bo'lib keladi. "Ehtimol" so'zi gap bo'lagi o'rniida keladi", degan dalillar bo'yicha isbot etib bo'lmaydi. Chunki bunda shartli-qat'iy xulosa chiqarishning "natijani tasdiqlashdan asosni tasdiqlashga o'tish mumkin emas" degan qoidasi buzilgan.

Isbotlash usulida xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik asosan ikki xil mantiqiy xatolikka yo'l qo'yishga olib keladi. 1. Juz'iylikning xususiyatini umumiylikka ko'chirish, ya'ni asoslardan shoshilib xulosa chiqarish. 2. Asosdagi atamalarning kengaytirilishi (lot.: quaternio terminorum).

Birinchi xil xatolik "mantiqiy kvadrat" bo'yicha chiqariladigan xulosa qoidasi, ya'ni bo'ysunuvchi juz'iy hukmlarning chinligidan bo'ysundiruvchi umumiy hukmlarning chinligi keltirib chiqarmaslik kerak, degan qoida buzilganda, shuningdek, to'liqsiz induksiya qo'llanilganda ro'y beradi. Bunga misol qilib Gidlyan va Ivanov degan kimsalarning 80-yillarning oxirlarida Respublikamizdagi ba'zi tumanlardagi paxta tayyorlash davlat rejasini to'ldirish masalasi bilan bog'liq kamchiliklarni aniqlash asosida "o'zbeklar ishi" degan tuhmat bilan xalqimizning nomini qora qilmoqchi bo'lganliklarini keltirish mumkin. Bunda ular ba'zi rahbarlarning bu boradagi aybini butun bir xalqning aybi sifatida ko'rsatishga harakat qilgan edilar.

Namoyish etishdagi ikkinchi xatolikka asoslardagi atamalarning hajman kengaytirilishi yoki toraytirilishi, turli ma'noda qo'llanishi natijasida yo'l qo'yiladi. Masalan, "fan" tushunchasi shu tarzda qo'llanilganda muhokama yuritishda shunday xatolik kelib chiqadi. Bunda muhokama yuritish quyidagicha bo'lishi mumkin:.

1. Fan ijtimoiy ong shaklidir. Kosmologiya- fandır. Demak, kosmologiya ijtimoiy ong shaklidir.

2. Fan-ijtimoiy ong shakli. San'at- ijtimoiy ong shakli. Demak, san'ag fandır.

Ushbu muhokama xulosalari xatodir, chunki kosmologiya ijtimoiy hayotga aloqasi bo'lmagan ilm sohasidir. Shuningdek, san'at fandan farq qiladigan ijtimoiy ong shaklidir.

Isbotlash va inkor etish jarayonida u yoki bu mantiqiy xatolikka bilmagan holda va qasddan, anglashilgan tarzda yo'l qo'yiladi.

**Paralogizm.** (yunon. raralogismost- noto'g'ri mulohaza) muhokama yuritishda anglamasdan, bexosdan yo'l qo'yiladigan xatolikdir. Bunday xatolik mantiqiy qonun-qoidalarining buzilishi tufayli ro'y beradi. Xalqimiz avval-azaldan sermulohazalik, teran mushohada yuritishni kishining eng muhim fazilati sifatida baholab kelganlar. "Oldin o'yla, keyin so'yla", "Yetti o'lchab bir kes", "O'ylamay gapirgan og'rimasdan o'ladi", "Ovsar do'stdan ziyarak dushman afzal" kabi xalq maqollari shu bois yaratilgandir.

**Sofizm** (yunon. sophisa-ayyorlik) mantiqiy hiyla bo'lib, bunda uydurma, yolg'onlar chin, haqiqat tarzida ko'rsatiladi. Bunda sofistlar mantiqning qonun, qoidalari va usullaridan ustakorlik bilan foydalanadilar. Bundan ko'zda tutilgan maqsad- o'z muxoliflarini qasddan mantiqiy xatolikka, ziddiyatli fikr yuritishga- yo'l qo'ydirishdir.

Bu o'rinda qadimgi grek sofistlarining mulohazalaridan ayrim namunalar keltiramiz. "Bu kuchukning bolalari bor, demak, u ota. Ammo bu sening kuchuging, Demak, u sening otang. Sen uni urayotirsan, demak, sen o'z otangni urayotirsan".

"O'g'ri yomon (keraksiz) narsani olishni istamaydi. Yaxshi narsani olish yaxshidir. Demak, o'g'ri yaxshilik istaydi." va hakoza.

Sofizmning asosiy tamoyillari dastlab qadimgi Gresiyadagi "dialektik maktab" vakillari- Protagor, Georgiy, Prodik va boshqalar tomonidan ishlab chiqiladi. Ular falsafaning asosiy maqsadi haqiqatni anglash, bunga esa bahs-dialog asosida erishiladi, degan prinsipga tayanadilar. Lekin bu prinsip keyinchalik unutiladi va "bahs bahs uchun", degan tamoyilga aylanadi. Sofizmning asosiy tamoyillari keyinchalik dogmatizm (grekcha -gidogma-aqida, qaror), eklektika ( grekcha yeklektikos -tanlamoq) deb ataladigan oqimlarning yuzaga kelishida asos bo'lib xizmat qiladi.

**Paradoks** (grekcha rara -qarshi va doxa-fikr) ziddiyatli mulohaza bo'lib, u bir paytning o'zida ham chin, ham xato fikr sifatida anglashiladi. Mazkur ziddiyatni formal mantiq vositalari bilan hal qilib bo'lmaydi. Masalan, mantiq ilmida eramizgacha IV asrda yashagan qadimgi grek. faylasufi, miletlik Yevbulid tomonidan ilgari surilgan "Yolg'onchi" nomi bilan ataladigan paradoksni olib qaraylik.

Bir kishi shunday deydi: "Men yolg'on gapirayotirman". Xo'sh u yolg'on gapirayotirmi, yoki rost? "U ham rost, ham yolg'on gapirdi", deb aytish mumkin. Darhaqiqat, u agar aldayotgan, yolg'on gapirayotgan bo'lsa, demak, u yolg'onchi. Agar u aldamayotgan bo'lsa, ya'ni yolg'on gapirayotganligini tan olayotgan bo'lsa, uning gapi rostdir.

Shuningdek , "bu hukm xatodir", desak, agar u haqiqatdan xato bo'lsa, xato, xatoligi chin bo'lsa chindir.

Paradokslarning sababi shuki, muhokamalardagi atama (sub'ekt va predikat) larning hajm va mazmuni noaniq bo'ladi.

"Men yolg'on gapirayotirman" muhokamasini olib qaraylik. Bunda "yolg'on gapirish" tushunchasining mazmuni noaniqdir. Chunki u kishining nima haqida yolg'on gapirayotganligi noma'lumdir.

Agar bu aniq ko'rsatiladigan, konkretlashtiriladigan bo'lsa, mazkur muhokamaning hech qanday paradoksligi qolmaydi.

Masalan, kimdir: "Men Oy Yerning tabiiy yo'ldoshi desam, xato (yolg'on) gapirgan bo'laman" desa, haqiqatdan mavjud narsani inkor etayotganligini e'tirof etishi ma'nosida uning fikri chindir.

Lekin u: "Men Oy Yerning tabiiy yo'ldoshi, deb yolg'on gapirayotirman", deb aytsa, uning fikri xatodir. Chunki u mavjud reallikni inkor etmoqda.

"Bu hukm xatodir", degan mulohazani ham xuddi shu tarzda- uning atamalarini hajm va mazmun jihatidan konkretlashtirilsa, u holda paradokslilik bo'lmaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, qadimdan oq faylasuflar paradokslarning sababini aniqlashga va ularni hal etishning mantiqiy usullari ustida bosh qotirganlar. Masalan, stoiklik mantiqshunos Xrisipp (eramizgacha 281-208 yillar) "Yolg'onchi" paradoksiga bag'ishlab uchta risola yozadi. Rivoyatlarga ko'ra qadimgi grek mantiqshunoslari Diodor Kronos va Filet Kosskiylar ushbu paradoks yechimi bilan butun umr shug'ullanadilar va bunga erisha olmagach, hayotlarini o'z jonlariga qasd qilish bilan tugatadilar.

Hozirgi paytda paradokslarni yechishning ba'zi usullari topilgan bo'lib, ular asosan dialektik mantiq tamoyillariga tayaniladi.

Paradokslar fan sohasidagi antinomialarni (grekcha anti- qarama-qarshi, homos- qonun) hal etishga yo'naltiradi va shu jihatdan bilishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki antinomialar fikr yuritishdagi ziddiyatlar bo'lib, uning yechimi bilish jarayoni tarakqiyotining muhim omili hisoblanadi. Mazkur ziddiyatlar esa dialektik mantiq tamoyillari asosida hal etiladi. Masalan, quyidagi antinomialarni formal mantiqning nozidlik va uchinchi mustasno qonunining talablari bo'yicha hal etib bo'lmaydi.

1) Olamning vaqtda boshlanishi bor va u fazoda chegaralangan. Olamning vaqtda boshlanishi yo'q va u fazoda chegaralanmagan.

2) Narsa, hodisalar doimiy o'zgarishda. Narsa, hodisalar nisbiy barqarorlikda, o'zgarishsiz majud.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Xukm turlari, ularning ta'rifi va tasnifi. **Tayanch iboralar:** murakkab, sodda, mavjudlik, atributiv-aniqlovchi, munosabat, yakka, juz'iy, umumiy xukmlar, zaruriy, birlashtiruvchi, ayiruvchi, shartli, shartsiz.
2. Taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan xukmlar. Ularning bog'lanish shartlari. **Tayanch iboralar:** xukm, sub'ekt va predikat jihatlari.
3. Sig'ishadigan va sig'ishmaydigan xukmlar. Ularning o'zaro munosabatlari. **Tayanch iboralar:** qarama-qarshi xukmlar, chin va xato xukmlar, zid munosabat.
4. Alohida umumiy belgilar. Muhim va muhim bo'lmagan belgilar. Ularning nisbatlari. **Tayanch iboralar:** buyumlarning o'xshashligi va farqi, xususiyatlari, umumiy, yakka, konkret, mohiyat, in'ikos, ob'ektiv, so'z, tushuncha.
5. Taqqoslashning chinligini topish shartlari va ahamiyati. **Tayanch iboralar:** real bog'lanish, qiyoslash belgisi, bir xil belgi, muhim ahamiyatli belgilar, analiz, sintez, abstraksiyalash.

6. Tushunchalarning mazmuni va hajmi, ularning izohi. **Tayanch iboralar:** nisbatli tushuncha, nisbatsiz tushuncha, nisbatdosh tushunchalar mazmuni, tushunchalar xajmi.
  7. Konkret va abstrakt tushunchalarning ta'rifi va tahlili. **Tayanch iboralar:** tushuncha, tushuncha mazmuni, real buyum, konkret, ob'ektiv, in'ikos.
  8. Nisbatli va nisbatsiz tushunchalar. Ularning mazmuni va ifodalash shartlari. **Tayanch iboralar:** tushuncha mazmuni, nisbatli tushuncha, nisbatsiz tushunchalar, aloqadorlik, ob'ektivlik, in'ikos.
  9. Tafakkur shakllari va mantiqiy qonunlar. **Tayanch iboralar:** Tafakkur, tafakkur shakli, to'g'ri tafakkur, chin fikr,
  10. Tafakkur qonunlarining umumiy tavsifi. **Tayanch iboralar:** qonun tushunchasi, tafakkur qonunlari, tafakkur qonunlarining xususiyati, tafakkurning ajralmas xislati.
  11. Ayniyat qonuni. **Tayanch iboralar:** Ayniyat tushunchasi, aynanlashtirish, ayniyat va tafakkur, ayniyat va simvollar.
  12. Ziddiyat qonuni. **Tayanch iboralar:** Ziddiyat va ziddiyatsizlik. Ziddiyat va nozidlikni belgilarda ifodalanishi. Fikr va ziddiyat.
- Uchinchisi istisno qonuni. **Tayanch iboralar:** Son va sifat. Istisno va simvollar

**5-Mavzu: Ilmiy muammo tushunchasi. Mantiqiy tahlil va uning strukturasi. Mantiqiy bog'liqlik.**

**REJA:**

- 1. Muammo va uning tafakkur jarayonida tutgan o'rni*
- 2. Faraz(gipoteza) va uning turlari*

Mantiqni o'rganishda manbalardan foydalanish masalalari. Ma'naviy hayotda mantiqning tutgan o'rni.

***Muammo va uning tafakkur jarayonida tutgan o'rni***

Bilishning maqsadi qayd qilingan hodisalarning mohiyatini tushuntirishdan iborat. Buni hamma vaqt ham mavjud tasavvurlar, prinsiplar yordamida amalga oshirib bo'lmaydi. Bilish jarayonida ma'lum bir ziddiyatlar, birinchi navbatda, mavjud bilimlarimizning erishgan darajasi bilan yangi bilish vazifalarini hal qilish zaruriyati o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi, muammoli vaziyat paydo bo'ladi. Bunday ziddiyatlar, ayniqsa, kundalik hayotimizda murakkab vazifalarni hal qilish, fanda esa tub burilishlar davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida vujudga keladigan juda ko'p muammolarni yechish uchun yangicha yondashish taqozo etiladi. Masalan, tabiatshunoslik fanida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida radioaktivlik hodisasining qayd qilinishi, elektronning kashf etilishi, nurlanishning kvant xususiyatga egaligining asoslanishi va shu kabi kashfiyotlar natijasida muammoli vaziyat vujudga kelgan. Uning mohiyatini tabiatshunoslikning, birinchi navbatda, fizikaning mavjud qonun va prinsiplarining yangi qayd qilingan hodisalarni tushuntirish uchun yetarli emasligida, deb bilmoq zarur.

Shuni ham aytish kerakki, ilmiy bilishda muammoli vaziyatni fan taraqqiyotining ichki ehtiyojlari ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, hozirgi paytda fanda sinergetika g'oyalari va metodlarini tushuntirish, matematikada aksiomatikaning imkoniyatlari va qo'llanish sohalarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni hal qilish zaruriyati bunga misoldir.

Demak, muammoli vaziyat mavjud ilmiy tasavvurlar bilan qayd qilingan yangi faktlar o'rtasidagi ziddiyatning paydo bo'lishi yoki ana shu ilmiy tasavvurlar yetarli darajada tizimga solinmaganligi, yaxlit bir ta'limot sifatida asoslanmaganligi natijasidir.

Mana shundan kelib chiqib, **muammoli vaziyat** bilish taraqqiyotining turli bosqich va bo'g'inlarida olam hamda uni bilish haqidagi mavjud tasavvurlarni, bilish metodi va vositalarini o'zgartirishning ob'ektiv zaruriyatidan iborat, deyish mumkin.

### ***Muammoni qo'yish va hal etish***

Muammoli vaziyatni tahlil qilish yangi muammoni yuzaga keltiradi.

**Muammo** – javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va yechish usuli noma'lum bo'lgan savoldir.

Shuning uchun ham muammoni qo'yish va hal qilish mavjud bilimlarni qayta ishlash, ba'zi hollarda esa, hatto, ular doirasidan chetga chiqishni, yangicha yechish usuli, metodlarini qidirib topishni taqozo etadi. Qanday muammolarni ilgari surish va muhokama qilish xususiyatini amaliy faoliyatimiz va bilishimiz ehtiyojlari belgilab beradi.

Muammoni muvaffaqiyatli hal qilishning zarur shartlaridan biri uni to'g'ri qo'yish va aniq bayon qilishdan iborat. To'g'ri qo'yilgan savol, V. Geyzenberg aytganidek, muammoni yechishning yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi.

Muammoni to'g'ri qo'yish uchun muammoli vaziyatni aniq tasavvur qilishning o'zi yetarli emas. Buning uchun muammoni hal qilishning turli xil usullari va vositalarini ham oldindan ko'ra bilish kerak.

Muammolarni qo'yishda kishilarning hayotiy tajribasi, bilimlari va qobiliyati muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Odatda, ko'p hollarda yangi muammolar ilmiy bilishning u yoki bu sohasining yirik mutaxassislari, boy tajribaga ega va chuqur bilimli olimlar tomonidan ilgari suriladi hamda ular ba'zan uzoq yillar davomida tadqiq qilinadi. Buni, masalan, milliy g'oya va milliy mafkurani yaratish muammosining qo'yilishi va tadqiq etilishi misolida ko'rish mumkin. Jahon tajribasiga murojaat qilsak, «millatning mafkurasi bir emas, balki bir necha avlodning umri davomida ishlab chiqilishi va takomilga erishuviga guvoh bo'lishimiz mumkin»<sup>19</sup>.

Uni shakllantirish uchun kuchli iste'dod va «yorqin tafakkur»ga ega bo'lgan Konfutsiy, Maxatma Gandi, Forobiy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk zotlar zahmat chekkanlar<sup>20</sup>.

<sup>19</sup> И.А. Каримов. Миллий истиқлол мафкураси – халқ этиқоди ва буюк келажакка ишончдир. // Асарлар тўплами. 8- жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000, 25-бет.

<sup>20</sup> Қаранг. Ўша ерда.

Hozirgi paytda esa birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «Milliy g'oya, milliy mafkurani ishlab chiqish, uni shakllantirish uchun har qaysi millatning eng ilg'or vakillari, kerak bo'lsa, mutafakkirlari, ziyolilari mehnat qilishi lozim»<sup>21</sup>.

Muammoli vaziyatni tahlil qilishga turli xil tomondan yondashish mumkin bo'lganligi uchun ham hal qilinishi lozim bo'lgan vazifa turli xil muammolar tarzida bayon qilinishi mumkin. Bunda ba'zi muammolar asosiy vazifani ifoda qilsa, ba'zilari bu vazifaning ayrim tomonlarini aks ettiradi va shuning uchun ham juz'iy xususiyatga ega bo'ladi. Ko'p hollarda bir-biri bilan bog'lanib ketgan mana shunday juz'iy muammolar hal qilingandan keyingina asosiy muammoni aniqroq bayon qilish va yechish imkoniyati vujudga keladi.

Muammolarni to'g'ri qo'yish va bayon qilish ularni yechishdan kam ahamiyatga ega emas. Muammoni to'g'ri qo'yish uchun uning ilmiy bilish taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyatini to'g'ri baholash, uni hal qilishning metodlarini topish zarur. Bu amalda qo'yilishi mumkin bo'lgan turli xil muammolar ichidan eng muhimi va to'g'risini tanlab olishni bildiradi. Muammoni tanlash ma'lum bir darajada tadqiqotning umumiy yo'nalishi va xususiyatlarini belgilab beradi.

Oxir-oqibatda qaysi muammoni qo'yish amaliy faoliyatimiz ehtiyojlariga bog'liq. Chunki faqat amaliy faoliyatdagina kishilarning ehtiyojlari va maqsadlari bilan ularni hal qilish vositalari o'rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo'ladi, ilmiy izlanish predmeti aniqlanadi va shu asosda bilish oldiga konkret vazifalar qo'yiladi.

Ilmiy muammo, odatda, ma'lum bir nazariya doirasida vujudga keladi

Nazariya keyinchalik ilgari surilishi mumkin bo'lgan muammoni umumiy holda belgilash va uni to'g'ri tanlashga yordam beradi. Shuningdek, har bir muammo ma'lum bir nazariya yordamida hal qilinadi. Ba'zi hollarda esa muammo mavjud nazariyani modifikatsiya qilish va muammoni yechishga moslashtirishni talab qiladi.

Muammoni yechish uchun quyidagi dastlabki tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi:

a) mavjud nazariyalar doirasida tushuntirib bo'lmaydigan fakt va hodisalarni aniqlash;

b) muammoni hal qilish g'oyalari va metodlarini tahlil qilish hamda ularga baho berish;

v) muammoni hal qilish turi, maqsadi, olingan natijani tekshirish yo'llarini belgilash;

g) muammoning negizi bilan uni yechish uchun ilgari surilgan g'oyalar o'rtasidagi aloqaning xususiyatlarini ko'rsatish.

Bu dastlabki ishlar amalga oshirilgandan keyin bevosita muammoni yechishga kirishiladi.

Shuni alohida qayd qilib o'tish kerakki, muammoning yechilishi nisbiy xususiyatga ega. Boshqacha aytganda, muammoning mutlaq to'la yechimini topish qiyin. Chunki o'rganilayotgan hodisaning barcha tomonlarini qamrab olib

---

<sup>21</sup> Қаранг. Ўша ерда.

bo'lmaydi. Shuning uchun ham ilmiy izlanish davomida yangi muammolar vujudga kelishi mumkin bo'lib, u mavjud muammoni boshqacha talqin qilishni taqozo etadi. Bunga misol qilib I. Nyuton tomonidan jismlarning o'zaro tortishishi muammosining qo'yilishini ko'rsatish mumkin. Butun olam tortishish qonunini kashf qilib, u faqat tortishuvchi jismlar o'rtasidagi miqdoriy aloqalarnigina topganligini uqtirib o'tgan edi.

A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi jismlarning o'zaro tortishishi muammosini boshqacha talqin qiladi va bu muammo haqidagi tasavvurlarimizni ma'lum bir darajada kengaytiradi. Jismlarning o'zaro tortishishining tabiati, amalga oshish mexanizmi hozirgacha to'la ochib berilmagan. Boshqacha aytganda, muammo uzil-kesil hal bo'lmagan.

Ba'zi hollarda muammolarning yechimini uzoq vaqtgacha topib bo'lmaydi. Masalan, rak kasalining sababini o'rganish bilan bog'liq muammo hozirgacha to'la hal bo'lmagan.

Bu, albatta, ayrim muammolar butunlay yechimiga ega emas, degan fikrni bildirmaydi, balki ularni mavjud metodlar, vositalar yordamida yechib bo'lmaslikni ko'rsatadi xolos, va shu tariqa yechishning yangi vositalarini qidirib topishga undaydi. Demak, muammo hal qilinmaguncha ilmiy izlanish davom etadi.

**MUAMMO**- bu ijtimoiy ehtiyoj natijasi o'laroq yuzaga keladigan masalalar ko'lamini bo'lib, ularning yechimi muayyan soha uchun nazariy va amaliy ahamiyatga molik bo'ladi. Muammo shunga ko'ra quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan masaladir.

1. Mavjud qoida, usullar bilan bevosita hal qilib bo'lmaydi.
2. Hal etilishi ba'zi nazariya va qarashlarni (konsepsiyalarni) yangicha talqin etish, o'zgartirish, aniqlik kiritishni taqozo etadi.
3. Hal etilishi fan-texnika, ijtimoiy hayot sohasida tub o'zgarishlarni va shunga muvofiq yangi muammolarni yuzaga keltiradi.

Muammolar birdaniga anglab olinmaydi, ularning nazariy masala sifatida shakllanishi muayyan vaqt - davrni o'z ichiga oladi. Bu pirovardida mavjud ba'zi nazariya, konsepsiyalarni o'zgartirishni taqozo etadi. Masalan, kishilar sababchisi bo'lgan hozirgi ekologik muammolar o'tgan asr oxirlaridan boshlangan bo'lib, faqat asrimizning ikkinchi yarmidan boshlab uning hal etilishi zarurligi anglab olindi. Bu esa «Biz tabiatdan xayr-ehson kutib o'tirmaymiz, uni o'z xohishimiz bilan o'zgartiramiz», degan moddiyunchilik qarashni bekor qilishga olib keldi.

Muammolarning muayyan masalalar-tizimi sifatida ifodalanish shakli savol hisoblanadi. Darhaqiqat, muammolar o'z mohiyatiga ko'ra u yoki bu tarzda qo'yilgan savollar bo'lib, ular zaruran o'z javobini, yechimini talab etadi.

Mantikda savol deb hal etilishi zarur bo'lgan masalaga doir fikrga aytiladi. Savol so'roq gaplarda ifodalanadi, lekin har qanday so'roq gaplar mantiqiy savolni ifodalamaydi.

Barcha muayyan nazariy va amaliy ahamiyatga molik muammoga javob topishga qaratilgan so'roq gaplarga mantiqiy savol hisoblanadi. Savol muammoni ifodalash va uni hal etishga qaratilgan bilishning shakli bo'lib, metodologik ahamiyatga egadir.

Barcha fanlar bilimlar tizimi sifatida o'z muammolarini qo'yish orqali



rivojlanadiki, ular mantiqiy savollar tarzida ifodalanadi. Masalan, falsafaning azaliy muammolari «Olamning asosida nima yotadi?», «Vaqt va fazo nima?», «Inson kim, uning mohiyatini nima tashkil etadi?» degan savollar tarzida tuziladi. Va ana shu savollarga berilgan javoblarga ko‘ra falsafiy oqim, ta’limotlar yuzaga keladi.

O‘zbekistonning kelajagi ana shunday savollarga qanday javob berishimizga bog‘liq. Bular quyidagilardir: xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim?, Barqarorlikni qanday ta’minlash darkor? Taraqqiyot yo‘lidan sobitqadam rivojlanishiga nimalar hisobiga erishish mumkin? Bular strategik muammolar bo‘lib har qanday mustaqil davlat eng avvalo, ana shu muammolarga e’tibor berib kelgan va bundan buyon ham e’tibor berajak».<sup>22</sup>

Savol bilish jarayonida muammo, gipotezalarni ilgari surishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun oddiy muhokama yuritish hamda ilmiy tadqiqot ishlarida mantiqiy savolga murojaat etiladi.

**Mantiqiy savol**– bu inson bilimidagi ikkilanish, noaniqliklarni bartaraf etishga hamda tadqiq etilayotgan ob’ektlar haqida to‘liq bilim olishga qaratilgan fikrdir. Savollar tuzulishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: yechimga doir va to‘ldirishga doir savollar. Qo‘yilgan muammolarning hal etilish yo‘llarini aniqlashga qaratilgan savol yechimga doir savol hisoblanadi. Masalan, «Mafkuraviy ta’sirlar salbiy oqibatlariga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak?» (Islom Karimov). To‘ldirishga doir savol – bu berilgan muqobil /alternativ/ hukmlar guruhiga to‘g‘ri /chin/ javob topishga qaratilgan savoldir.

Savol mantiqiy tarkibga ega, ya’ni u o‘zida muayyan bilimni ifodalaydi. Masalan, «Kim birinchi bo‘lib Amerikani kashf etgan?», degan savoldan «Ma’lum bir davrgacha Amerika qit’asi kishilarga noma’lum bo‘lgan, ushbu qita biror kishining sayi- harakati bilan kashf etilgan», degan fikr anglashiladi.

Savol mantiqiy tarkibiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: yechimga va to‘ldirishga doir savol. **Yechimga doir savolda** muayyan muammoni hal etish imkoniyatlarining bir-birini istisno etuvchi holat, variantlari ilgari suriladi. Masalan: "Insoniyat yer yuzida o‘zi bunyod etgan sivilizatsiyani kelajakda saqlab qola oladimi yoki yo‘qmi?".

**To‘ldirishga doir savolda** muammoning yechimi uchun eng muhim omilni aniqlab olishga diqqat -e’tibor qaratiladi. Bunga misol qilib Prezidentimizning yuqorida zikr qilingan asarida mamlakatimiz tarakqiyotining- strategik yo‘nalishi, uning kafolatlarini mantiqiy savollarni qo‘yish - bilan belgilanadi va ularning omillari tinchlik barqarorlik va jug‘rofiy -siyosiy muvozanatni saqlab qolish, unga erishish ana shunday omillardan biri ekanligi ko‘rsatib beriladi.<sup>23</sup>

Savollarning mantiqiy tarkibini aniqlash va ularni grammatik shaklda ifodalay bilish muammolarni ilgari surish va ularning yechimini topishda muhim rol o‘ynaydi.

Muammolar o‘z miqyosi va ahamiyatiga ko‘ra turli darajalarda bo‘lib, har xil usul, yo‘llar orqali yechiladi, shulardan uch xilini ko‘rsatish mumkin:

<sup>22</sup> Каримов И.А.Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент: “Ўзбекистон”, 1997,7-8-бетлар.

<sup>23</sup> Қаранг: Ўша жойда, 9- бет.

1. Mavjud nazariya, g'oya, qarashlar doirasida yechiladigan muammolar. Mazkur muammo turi yechimi ijtimoiy hodisalarni hal etishda keng qo'llaniladi. Masalan, bugungi kunda milliy istiqlol g'oyasini kishilarimizning qalbi va ongiga singdirish muammosi kun tartibidagi dolzarb vazifa hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun esa, eng avvalo, «G'oya nima, uning qanday turlari bor?», «G'oyaning kishi qalbi va ongiga ta'sir ko'rsatish, singdirishning qanday vosita, usullari bor?» degan savollarni ko'ndalang qo'yishni va ularga batafsil, ilmiy javoblar topish talab etiladi.

2. Bir qator nazariyalar orqali amalga oshiriladigan muammolar yechimi. Masalan, mamlakatimizda o'ziga xos modeldagi fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish muammosining yechimi shu haqidagi mavjud ta'limotlar doirasida talqin qilinadi, chunki bunda fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlar, ta'limotlarga tayanilgandir.

Z. Yangi nazariyalar yaratilishi taqozo etadigan muammolar yechimi Masalan, mustaqillikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan «Milliy istiqlol g'oyasi» ta'limoti-nazariyasi ana shunday muammo yechimi tahlilining natijasidir.

Muayyan qoidalarga amal qilinadigan paytdagina muammolar yechimi usuli bilish shakli vazifasini o'taydi. Bular:

1. Savol odob doirasida ig'vogarliksiz, to'g'ri qo'yilishi kerak.
2. Aniqlovchi savollarning alternativ javoblarni nazarga olish lozim.
3. Savol qisqa, lo'nda va aniq bo'lishi kerak.
4. Murakkab ayiruvchi savollarda barcha alternativalar ko'rsatib o'tilishilozim.
5. Savol ritorik tarzda tuzilmasligi zarur. Chunki ritorik savollar fikrpredmetining xususiyatini o'ziga xos tasdiq tarzida ifodalovchi fikr shaklidir

Mantiqiy savollar, ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida muhim rol o'ynaydi. Chunki o'quvchi, talabalarni fan asoslarini o'rganishga jalb etish, qiziqtirishning zarur sharti bo'lgan darslarda muammoviy vaziyatlarni yuzaga keltirishi mantiqiy savollarni tuzish orqali amalga oshiriladi.

### **Faraz(gipoteza) va uning turlari**

Muammolarning yechimi qanday usulda bo'lmasin, faraz-gipotezalarni ilgari surishni talab etadi. **Gipoteza** (yunoncha hypothesis-faraz, taxmin) bilish jarayoni, muammolarni hal etishda yuzaga keladigan ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan ehtimolli fikr bo'lib, tadqiq etilayotgan hodisaning sababi, xususiyatlarini aniqlashga qaratilgai bo'ladi. **Faraz** fikr shakli sifatida quyidagi belgilarga ega:

1. Bilish taraqqiyotning shakli ekanligi. Barcha fanlar sohasida bilmaslikdan (nisbiy bilimdan) bilishga, mutlaq haqiqatga o'tish jarayoni farazlarni ilgari surish va ularning chin yoki xatoligini asoslash tarzida kechadi.

2. Hodisalarning sabab va oqibat bog'lanishlarini aniqlash, mavjud faktik materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish bo'yicha ilgari surilishligi, shu ma'noda faraz- bu har qanday taxmin bo'lmasdan, muayyan ilmiy asosga ega bo'lgan ehtimolli bilimlardir.

Z. Farazlarning amaliyotda tasdiqlanishi yangi bilimlarni hosil qiladi va uning negizida yana boshqa ilmiy taxminlar ilgari suriladi.

4. Farazlarni ilgari surishning mantiqiy asosini analogiya bo'yicha xulosa chiqarish tashkil etadi.

Tadqiq ob'ektiga ko'ra faraz ikki turga ajratiladi: umumiy va xususiy.

**Umumiy faraz** deb muammo darajasidagi tabiiy va ijtimoiy hodisalarning sabab va oqibat bog'lanishlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy taxminga aytiladi. Akademik A.G.Oparin (1894-1980) tomonidan ilgari surilgan Yerda hayotning paydo bo'lishi haqidagi, shuningdek, Quyosh tizimidagi planetalarning kelib chiqishi, Yerdan boshqa planetalarda organik materiyaning borligi va boshqa shu kabi ilmiy taxminlar umumiy farazlar hisoblanadi.

**Xususiy faraz** ayrim narsa-hodisalarning yuzaga kelishi, xususiyatlari haqidagi ilmiy taxmindir. Har bir fan sohasida tadqiq etilayotgan ob'ekt bo'yicha u yoki bu tarzda taxminlar qilinadiki, ular o'z ko'lami va ahamiyatiga ko'ra xususiy farazlar sanaladi. Masalan, mediklar bedavo kasalliklarini sababini aniqlash bo'yicha farazlarni olg'a suradilar va shu bo'yicha tadqiqot ishlari olib boradilar. Sud-tekshiruv ishlarida keng qo'llaniladigan versiya-taxminlar tuzishda ham mantiqiy faraz tamoyillariga tayaniladi. Farazlarning ishonchli ilmiy nazariyalarga aylanishida mantiqiy tasdiqlash (isbotlash) usuli muhim rol o'ynaydi. Farazning mantiqiy tasdiqlash usuli-bu uning asosiy mazmunini natija sifatida deduktiv yo'l bilan keltirib chiqarish va uni keyinchalik faktlar bilan solishtirish, tajriba, eksperimentlar o'tkazish, ya'ni induktiv metodlar vositasida asoslashdir.

Bunga misol kilib Quyosh sistemasida Neptun planetasining kashf etilishini keltirish mumkin. Noma'lum planeta haqidagi gipoteza I.Keplerning planetalar harakati orbitasi va butun dunyo tortilish qonuni asosida ilgari suriladi va keyinchalik tadqiqotchilar tomonidan ushbu planetaning Quyosh tizimidagi o'rni (Quyoshdan 4500 mln. km uzoqlikdaligi, diametri- 30100 km, atmosfera tarkibi  $SN_4 N_2$ ) aniqlanildi.

Nazariy tadqiqotlarning maqsadi empirik tadqiqot davomida o'rnatilgan faktlarni tushuntirish, bashorat qilish va sistemalashtirishga imkon beradigan qonun va prinsiplarni aniqlashdan iborat.

Metodologiyada "faraz"- "gipoteza" atamasi ikki ma'noda ishlatiladi: 1) Bilimning mavjudlik shakli sifatida muammolilik, ishonchsizlikni ifodalashi; 2) G'oyalarni tushuntirib beruvchi, shakllantiruvchi va asoslovchi metod sifatida qonun, nazariyalarni o'rnatishga eltuvchi yo'l

Gipoteza strukturasi bilan tanishish bu metod to'g'risida yaxshi tasavvur beradi. Faraz bilish metodi sifatida bir qancha bosqichlardan iborat bo'ladi.

- 1) ilgari surilgan taxminga taalluqli faktlar, empirik dalillar bilan tanishish;
- 2) o'rganilayotgan hodisalar sabablarini induktiv metodlar bilan aniqlash;
- 3) ilgari surilgan farazni unga daxldor boshqa farazlar bilan takqoslash va ehtimolga yaqinini tanlash;

- 4) ilgari surilgan farazni tajribada, eksperimental empirik tekshirib ko'rish va induktiv va deduktiv metodlar yordamida uning chin yoki xatoligini ko'rsatish.

Fanlardagi, ayniqsa, aniq fanlardagi ilmiy nazariyalar, kashfiyotlar gipoteza bosqichlarining yakuniy xulosalari hisoblanadi.

Gipoteza uslubining umumiy tuzilishi tamoyillarini yaxshi bilish fan rivojiga xizmat qiladigan farazlarni ilgari surish va ularning chin xatoligini aniqlashga

yordam beradi.

Ijtimoiy hayot sohasida farazlar muayyan muammolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar hamda hal etilishining yo‘l-yo‘riklarini chuqur tahlil etilishi asosida ilgari suriladi. Bu orqali jamiyat taraqqiyoti yo‘nalishi haqida bashoratlar qilinadi. Bunga misol tariqasida Prezidentimiz Respublikamizning hozirgi kundagi ichki imkoniyatlarini, salohiyatlarini, xalqaro nufuzini chuqur tahlil qilishi asosida uning kelajagi haqidagi ilgari surgan ilmiy farazni keltirish mumkin. Aminmanki, deb bashorat qiladi u, mamlakatimiz XXI asrda jahon iqtisodiyoti, madaniyati va siyosatida munosib o‘rin oladi.<sup>24</sup>

**Nazariya** ilmiy bilimlar tizimi bo‘lib, faraz-gipotezalar negizida shakllanadi. Nazariya- bu chinligi, haqiqatligi ilmiy jihatdan to‘liqasoslangan va amaliyotda tekshirilgan, tasdiqlanilgan, tizimlashtirilgan bilimlar majmuidir. Har qanday fanlar nazariyalarga tayanadi. Nazariyada tadqiq etiladigan ob‘ektlar, modellar, ya‘ni ideallashtirilgan tarzda aks ettiriladi.

Bunda mavhum atama, tushuncha, formulalar hosil qilinadi. Ob‘ektlarni ideallashtirish ijtimoiy fanlarda ham qo‘llaniladi. Masalan, falsafa, iqtisodiy nazariya fanlari eng umumiy tushuncha- kategoriyalar bilan ish ko‘radilar. Masalan: «makon», «zamon», « borliq", «harakat», «qiymat», «tovar» va boshqalar. Nazariyalar o‘zida bilimlarni qay darajada, usulda umumlashtirish, ideallashtirish xarakteriga ko‘ra deduktiv va nodeduktiv (induktiv) turlarga ajratiladi. Deduktiv nazariyalar mavjud nazariya, aksioma, qoidalar asosida shakllanadigan ilmiy bilimlar tizimidir. Masalan, I.Kepler (1571-1630) planetalar harakati(orbitasi)ga doir qonunlarini butun dunyo tortilish "qonuniga tayangan, undan kelib chiqqan holda kashf etadi.

Islom Karimovning mustaqil O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyoti masalasiga oid nazariy -metodologik ahamiyatga molik “o‘zbek modeli” tamoyillari jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlariga asoslangan tarzda ishlab chiqilganidir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan Xarakterlar strategiyasi xam ana shu jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlariga asoslangandir.

Induktiv nazariyalar bevosita empirik tajriba, eksperimentlar asosida shakllanadi. Bunda induktiv metodlardan foydalaniladi va narsa, hodisalarning aniqlanilgan eng muhim belgi, xususiyatlari umumlashtiriladi va qonuniyatlari ochib beriladi. Aniqfanlar, xususan, fizika, ximiya, biologiya kabi fanlarning qonunlari mohiyatan induktiv nazariyalar hisoblanadi. Masalan, Om qonunini olib qaraydigan bo‘lsak, u empirik tadqiqotlarning natijasi o‘laroq kashf etilganidir. Darhaqiqat, zanjirning bir qismidagi tok uchun shu qism kuchlanishiga teskari proporsional, degan xulosani deduktiv yo‘l bilan chiqarib bo‘lmaydi.

Mantiq bilimlarni tizimlashtirishda metod vazifasini o‘taydi. Bilimlarning tizimliliigi - bu eng avvalo ularning g‘oyat aniq, lo‘nda ta‘riflarda ifodalanishi bilan izohlaniladiki, bu tafakkurning qonun, shakllari va barcha mantiqiy usullarga qat‘iy rioya qilishni talab etadi.

Har bir nazariya, qonun mohiyatan mantiqiy xulosa chiqarishning yakuni

---

<sup>24</sup>Қаранг: И.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Т.: «Ўзбекистон», 1997, 15-бет.

bo'lib, ular ilmiy ta'riflarda ifodalanadi. Mantiq fanining bilish jarayonida tutgan yo'li, nazariy-metodologik funksiyasi bugungi fan-texnika, axborot texnologiya davrida yanada oshib bormoqsa. Eng muhimi - mantiq ilmi hozirgi globallashuv davrida fan, texnika yutuqlarini gumanistik maqsadlar uchun yo'naltirishga, ma'naviyatni anglab olishiga xizmat qiladigan fan maqomatini olmoqda.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Yetarli asos qonuni. **Tayanch iboralar:** Isbot va ishonch. Intuitsiya. E'tiqod. Avtoritar tafakkur. Yetarli asos qonunini belgilarda ifodalanishi.
2. Murakkab hukmlar. **Tayanch iboralar:** Hukm terminlari, kon'yuktiv hukmlar, ayiruvchi (dizyunktiv) hukmlar, shartli hukmlar.
3. Tushunchaning turlari. **Tayanch iboralar:** yakka tushunchalar, umumiy tushunchalar, abstrakt, mavhum tushunchalar.
4. Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar. **Tayanch iboralar:** taqqoslanadigan tushunchalar, taqqoslanmaydigan tushunchalar, sig'ishadigan tushunchalar, sig'ishmaydigan tushunchalar, moslik, buysunish.
5. Oddiy hukmlar. **Tayanch iboralar:** Oddiy hukmlar, tasdiq hukmlar, inkor hukmlar, yakka hukmlar, juz'iy hukmlar, umumiy hukmlar.
6. Hukmlarning modalligi. **Tayanch iboralar:** modal hukmlar, zaruriy hukmlar, voqeiy hukmlar, apodiktik hukmlar.
7. Sillogizmning umumiy qoidalari: **Tayanch iboralar:** Sillogizm terminlari, katta termin, kichik termin, o'rta termin.
8. Sillogizm aksiomasi. **Tayanch iboralar:** atributiv, sillogizm terminlari, miqdor va sifat.
9. Sillogizm tarkibi. **Tayanch iboralar:** Xulosa asoslari, xulosa terminlari, katta asos, kichik asos.

#### IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MATERIALLARI

(jami 10 soat)

Amaliy mashg'ulotlar ijtimoiy fan yo'nalishi bo'lganligi sababli seminar tarzida o'tkaziladi hamda quyida beriladigan savollar va ularning javoblarini zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llagan holda bajarishni taqazo etadi.

##### 1- amaliy mashg'ulot: Tafakkur — mantiq fanining o'rganish ob'ekti.

**REJA:**

*1. Tafakkur - mantiq ilmining o'rganish ob'ekti*

*2. Tafakkur shakli va tafakkur qonuni tushunchalari*

Jahonning ilg'or oliy ta'lim maskanlarida tafakkurni o'rganish va o'qitish tajribalari. O'zbekistonda tafakkurni qiyosiy o'rganish muammolari.

##### *1. Tafakkur - mantiq ilmining o'rganish ob'ekti*

Mantiq (logika) eng qadimgi fanlardan biri bo'lib, uning asoschisi yunon faylasufi Aristoteldir. logos atamasi grek tilida «fikir», «so'z», «aql», «qonuniyat» kabi ma'nolarni ifodalaydi. "Mantiq" atamasi logika terminiga ekvivalent xisoblanadi. Mantiq (logika) atamasi quyidagi ma'nolarda qo'llanadi: birinchidan, ob'ektiv olam qonuniyatlarini ifodalashda (masalan, «ob'ektiv mantiq», «narsalar mantig'i» kabi iboralarda); ikkinchidan, har bir insonning o'ziga xos tafakkurlash usulini, fikrlar o'rtasidagi aloqadorlikni anglatishda (masalan, «sub'ektiv mantiq» iborasida) va uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan ma'nosida.

Mantiq ilmining o'rganish ob'ektini tafakkur tashkil etadi. «Tafakkur» ham arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilidagi «fikrlash», «aqliy bilish» so'zlariga teng ma'noli tushuncha sifatida qo'llaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Bilish voqelikning, shu jumladan, ong hodisalarining inson miyasida sub'ektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iborat. Bilish jarayonining asosini va oxirgi maqsadini amaliyot tashkil etadi. Bilish murakkab, ziddiyatli, turli xil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir. Bu jarayonni shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin: hissiy bilish va aqliy bilish. Hissiy bilish (sezgi organlari vositasida bilish) uning dastlabki bosqichi bo'lib, unda inson sezgi organlari yordamida predmet va hodisalarining tashqi xususiyatlari va munosabatlari haqida ma'lumotlarni oladi. Sezgi, idrok va tasavvur hissiy bilish shakllari xisoblanadi.

Hissiy bilishga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

6. Hissiy bilishda ob'ekt (voqelik) sub'ektga (insonning sezgi organlariga) bevosita ta'sir etadi.
7. Hissiy bilish shakllari: sezgi, idrok va tasavvur predmetning tashqi xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradi.
8. Hissiy bilish shakli predmetning yaqqol obrazini xosil qiladi.
9. Hissiy bilish har bir konkret insonning sezish qobiliyati bilan bog'liq tarzda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.
10. Hissiy bilish bilishning dastlabki va zaruriy bosqichi hisoblanadi, usiz bilish mavjud bo'la olmaydi. Chunki, inson tashqi olam bilan sezgi organlari orqali bog'langan bo'lib, bilishning keyingi bosqichida sezgilari bergan ma'lumotlarga

tayanadi.

Hissiy bilish imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, unda mavjud predmetlar o'rtasidagi aloqadorlik o'rganilmaydi, predmetlarning umumiy va yakka, muhim va nomuhim, zaruriy va tasodifiy xususiyatlari farq qilinmaydi, mohiyati aniqlanmaydi. Hissiy bilish tafakkur (aqliy bilish) bilan uzviy bog'liq.

Tafakkur yordamida buyum va hodisalarning mohiyatini tushunishga erishiladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichi - ratsional (lotincha ratio – aql) bilish bo'lib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlar aks ettiriladi. Aqliy bilish, tafakkurlash quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

5. Tafakkurda voqelik mavhumlashgan va umumlashgan holda in'ikos qilinadi. Umumiy belgilarni aniqlash predmetlar o'rtasidagi munosabatlar va bog'lanish usullarini o'rnatishni taqozo etadi. Turli xil predmetlar fikrlash jarayonida o'xshash va muhim belgilariga ko'ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa ularning mohiyatini tushunish, ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarni bilish imkoniyati tug'iladi. Masalan, "o'simlik" tushunchasida barcha o'simliklar bitta mantiqiy sinfga birlashtirilib, ularga xos muhim, umumiy hususiyatlar (masalan, xujayradan tashkil topganligi) bilib olinadi.

6. Tafakkurda mavjud bilimlarga tayangan holda yangi bilimlar hosil qilinishi mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqsa, xulosa chiqarishda aniq namoyon bo'ladi. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, ob-havoning o'zgarishiga qarab olinadigan xosil miqdori haqida fikr yuritish mumkin. Demak, tafakkurda borliq nafaqat bevosita, balki bilvosita ham aks eta oladi.

7. Tafakkur insonning ijodiy, konstruktiv faoliyatidan iborat. Bilish jarayoni borliqda real mavjud bo'lmagan narsalarni fikrda yaratish, tushunchalarni shakllantirish, turli xil formal sistemalarni qurish orqali amalga oshadi. Natijada predmet va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

8. Tafakkur til bilan uzviy bog'liqdir. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda – moddiy hodisada (tovush to'lqinlari, grafik chiziqlari, qo'l harakatlarida) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi.

Bilish jarayonida hissiy va aqliy bilish o'zaro ta'sirlashib, bir-birini to'ldiradi, boyitadi.

## ***2.Tafakkur shakli va tafakkur qonuni tushunchalari***

Tafakkur tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shaklida mavjud bo'ladi. Inson bilish jarayonida buyum va hodisalar, ularning sifat, xususiyatlari haqida tushunchalar xosil qiladi, fikr-mulohaza yuritadi, ularni mantiqiy bog'lab, xulosalar xosil qiladi. Bu jarayonni tushunish uchun tafakkur shakli va tafakkur qonuni nima ekanligini bilib olish zarur.

**Tafakkur shakli fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli, uning strukturasi (tuzilishi)dir.** Fikrlash elementlari deganda, predmetning fikrda ifodalangan belgilari haqidagi axborotlar tushuniladi. Masalan, "mening onam" tushunchasida bizni dunyoga keltirgan, boqib katta qilgan, tarbiyalagan ayol aks etadi.

Agar tushuncha (mening onam) aks ettirayotgan predmetni A bilan, unda fikr qilinayotgan muhim belgilarni, ya'ni fikrlash elementlarini a, v, s, ..., n bilan belgilasak, tushunchaning mantiqiy strukturasi A (a, v, s, ..., n) shaklida simvolik tarzda ifodalash mumkin.

Hukm (mulohaza)larda predmet bilan uning xossasi, predmetlar o'rtasidagi munosabatlar, predmetning mavjudligi haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklda ifoda etiladi. Masalan, "Hunarli kishi – xor bo'lmas" degan hukmda predmet (hunarli kishi) bilan uning xossasi (xor bo'lmas) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. "Adxam Karimning ukasi" degan hukmda ikkita predmet (Adxam va Karim) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jihatdan turli xil bo'lgan bu hukmlar tuzilishiga ko'ra bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (S) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (P) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan, ya'ni R ning S ga xosligi tasdiqlangan. Umumiy holda hukmning mantiqiy tuzilishini  $S \rightarrow R$  formulasi yordamida ifoda etish mumkin. Tushuncha va hukmni farqlashda ularning shakli e'tiborga olinadi. Masalan: a'lochi o'quvchi(tushuncha) va o'quvchi a'lochidir (hukm).

Xulosa chiqarishda ham uning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli mavjud bo'lib, unga ko'ra o'zaro mantiqan bog'langan xukmlardan yangi bir hukmni xosil qilish mumkin.

Masalan, Hunarli kishi hayotda o'z o'rnini topadi. Do'stimning hunari bor.

Demak, do'stim hayotda o'z o'rnini topadi. yoki Aqlli insonlar avval o'ylab, keyin gapiradilar Demak, avval o'ylab, keyin gapiradiganlar aqlli insonlardir.

Bu xulosa chiqarish yo'llari turlicha bo'lishiga qaramasdan, bir xil mantiqiy strukturaga ega. Har ikkalasida ham xulosa chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qilayotgan hukmlardan xulosa mantiqiy bog'liqlik mavjud bo'lgani sabab xosil qilindi.

Yuqoridagi misollar tafakkur shakli fikrning konkret mazmuniga nisbatan mustaqil holda mavjud bo'lishini va o'ziga xos qonuniyatlarga egaligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham mantiq ilmida tafakkur shakli alohida olib o'rganiladi.

Fikrning chin bo'lishi va shakl jihatdan to'g'ri qurilishi ishonchli bilimga erishishning zaruriy shartlaridan biridir. O'zi ifoda qilayotgan predmetga muvofiq keluvchi fikr chin hisoblanadi (masalan, paxta-yumshoq). Predmetga mos kelmaydigan fikr xato fikrdir (masalan, suv – suyuqlik emas»). Fikrning to'g'ri yoki xato bo'lishi uning mazmuniga tegishli xususiyatdir.

Fikrning chin bo'lishi formal jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishiga ham bog'liq. Bu xususiyat fikrning shakliga taalluqli bo'lib, tafakkurda hosil bo'ladigan turli xildagi mantiqiy amallarda o'z aksini topadi. Fikr chin bo'lib, shakliga ko'ra xato bo'lishi, va aksincha, fikr xato bo'lishi, lekin shakliga ko'ra to'g'ri tuzilgan bo'lishi mumkin.

**Tafakkur qonuni muhokama yuritish jarayonida qatnashayotgan fikrlash elementlari o'rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat.** Fikrni to'g'ri qurishga tafakkur qonunlari talablariga rioya qilgandagina erishish mumkin.

Bu talablarga birinchi navbatda, ularning muayyan prinsiplar, qoidalar tarzida, ya'ni to'g'ri tafakkur prinsiplari sifatida amal qilinishi kiradi. To'g'ri tafakkur prinsiplarining buzilishi muhokamaning noto'g'ri qurilishiga sabab bo'ladi. Bunda, chin fikrlardan xato xulosa chiqishi (masalan, "Do'konga mol keldi. Mol – uy xayvoni. Demak, do'konga uy xayvoni keldi.") yoki xato qurilgan muhokamadan chin xulosa



chiqishi mumkin. Tafakkur shakli va qonunlarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanish bilish jarayonining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

**Formal mantiqning predmeti, muammolari** uning falsafiy fan ekanligi bilan belgilanadi. Shu bois falsafaning azaliy muammosi hisoblanmish odam va olam munosabati bilan bog'liq bilish, haqiqat, unga erishish masalasi mantiq fanining ham asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Mazkur fan umuman tafakkurni emas, balki uning asosiy shakllari va qonunlarini o'rganadi. Tafakkurning ushbu jihatini o'rganish to'g'ri, mantiqiy fikr yuritishning zaruriy shartidirki, busiz haqiqat, chin bilimlarga erishib bo'lmaydi.

«Haqiqat nima, unga qanday qilib erishiladi?», «Haqiqatning mezon nima?» degan savollarga javob topish uchun barcha davrlarda faylasuf, mantiqshunoslar bosh qotirib kelganlar va bunda, asosan, masalaning echimiga idealistik va materialistik qarashdan turib yondashganlar.

Ob'ektiv idealizmning asoschisi Platon (Aflotun) haqiqatni fikrning «g'oyalar dunyosi»ning «soya»si bo'lgan buyum, predmetlarga muvofiq kelishidir, deb tavsiflaydi. «Kim agar buyum qanday bo'lsa, shunga -muvofiq gapirsa,- deb yozadi faylasuf,- u haqiqatni aytgan va aksincha bo'lsa, yolg'on, xato gapirgan bo'ladi».<sup>25</sup>

Aristotel(Arastu) o'z salafining fikrini yanada konkretlashtiradi: «Kimki yo'q narsaning mavjudligi haqida gapirsa yolg'onni, lekin mavjud narsani bor, mavjud bo'lmagan narsani yo'q, deb tasdiqlasa, haqiqatni aytgan bo'ladi».<sup>26</sup> Platon va Aristotel tomonidan berilgan haqiqatning (mumtoz) ta'rifi to hozirgacha falsafa, mantiqda o'z ahamiyatini yo'qotmasdan tayanch ta'rif sifatida qo'llanilib kelinmoqda. Olmon faylasufi I. Kant o'z vaqtida haqiqatga Platoncha va Aristotelcha qarashning cheklanganligi va bu bo'yicha uning (haqiqatning) eng umumiy, ishonchli mezonini belgilab bo'lmasligini ta'kidlagan edi. Chunki, uningcha, bunday qarash haqiqat mezonini deb qabul qilingan amaliyotni faqat tajribaviy-yempirik bilimlarga nisbatan qo'llash mumkin bo'lgani holda, uni aprior, (lot. arriori- boshlang'ich), tajribadan tashqari bilimlarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. «Haqiqat nima?- deb yozadi u, - bu-faylasuflarni boshi berk ko'chaga kiritgan, ularni mantiqan bir doirada aylantirgan ko'hna va azaliy savol. Haqiqatning nominal ta'rifiga ko'ra (platoncha, arastucha ta'rif- izoh bizniki) u bilimning predmetga mos, muvofiq kelishidir. Lekin eng muhim masala- bu har qanday bilim uchun eng umumiy va ishonchli mezonni topish bo'lmog'i kerak».<sup>27</sup>

Ye'tirof etish kerakki, garchi Kant masalaga o'zining sub'ektiv idealistik qarashidan turib yondashgan bo'lsa-da, lekin u ko'p jihatli haqiqat fenomenining mohiyatini platoncha, arastucha ta'rif to'liq ochib beraolmasligini anglab etgan edi.

Hozirgi globallashuv davrida umumjahon va mintaqaviy miqyosdagi ijtimoiy muammolar echimi tafakkur orqali erishiladigan haqiqatning mohiyatini, uning mezoniy o'lchovlarini qadriyatlilik doirasida hal etishni taqozo etmoqda. Zotan "haqiqat ma'naviy-axloqiy o'lchovlarda baholanilmasa, qadrlanmasa, o'z vazifasini

<sup>25</sup> Платон.В 3-х т. Т.1.М.; 1968, с. 417

<sup>26</sup> Аристотель. Соч.в.4 томах, Т.1, М; 1976, с.141

<sup>27</sup>Иммануил Кант. Критика чистого разума. Ростов на Дону. «Феникс»,1999,с.92

bajaraolmaydi, haqiqiy ijtimoiy mazmunini namoyon qilaolmaydi”<sup>28</sup>.

Haqiqatning qadriyatlilik (aksiologik) jihati uning ezgulik, go‘zallik axloqiy-yestetik mezoniy tushunchalari va tamoyillari bilan o‘zaro birlikda ma’naviyat tizimining tarkibiy qismi, uni yuksaltiruvchi kuch sifatida amal qilishi jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda Prezidentimizning quyidagi dasturilamaliy ahamiyatga molik fikrini keltirib o‘tish joizdir: ”Qaerda... yuksak aql –idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha erda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi”<sup>29</sup>.

Tafakkur murakkab, ko‘p jihatli jarayon bo‘lib, uni tadqiq etish bilan bir qator fanlar (gnoseologiya, tilshunoslik, psixologiya, kibernetika, fiziologiya va b.) shug‘ullanadi. Formal mantiq boshqa fanlardan farqli ravishdatafakkurning shakllarini va ularning o‘zaro muayyan tamoyillar asosida bog‘lanish - qonunlarini o‘rganadi. Aniqroq qilib aytganda, nazariy-mantiqiy bilishning shakllari, usullari va ularning asosini tashkil etuvchi qonunlar formal mantiqning predmetidir.

Tafakkurni bunday, ya’ni formal tuzilishi jihatidan o‘rganish to‘g‘ri muhokama, fikr yuritishning zaruriy shartidirki, bu esa chin bilimlarga, haqiqatga erishishning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Nazariy bilish, haqiqat muammosi dialektik va matematik mantiqning ham tadqiqot ob’ekti bo‘lib, ushbu umumiylik mazkur fanlarning formal mantiq bilan o‘zaro munosabatini belgilaydi. Arastu asos solgan formal mantiq negizida XVII-XIX asrlarda yuzaga kelgan yangi mantiqiy sistemalar, jumladan, matematik va dialektik mantiqda nazariy bilish, haqiqat masalasi yangicha usul, tamoyillar bo‘yicha talqin qilinadi. Va bu formal mantiqning rivojlanishi uchun muhim rol o‘ynaydi.

Gegel tomonidan ishlab chiqilgan dialektik mantiq tafakkurni paydo bo‘lish, rivojlanishda, uning shakllari mazmuni va qonunlari birligida o‘rganadi.

Formal mantiq tafakkur shakllarini to‘g‘ri fikrlash maqsadini ko‘zda tutgan holda, turli xil mazmunga ega bo‘lgan fikr qismlari tarzida, umumiy

tarkibiy tuzilishda o‘rganadi. Masalan, tushuncha va hukm konkret mazmun birligida emas, balki muayyan strukturaviy tuzilishidagi fikr shakli sifatida olib qaraladi va bunda ularda qanday predmet anglashilayotganligi fikran soqit qilinadi. Dialektik va formal mantiq usul, tamoyillari va qonunlarini o‘zaro birlikda olib qarash va ularni bilish jarayonida qo‘llash chin bilimlarga, haqiqatga erishishning eng samarali yo‘lidir.

XVIII asrda evropa mamlakatlarida ilmiy-texnika taraqqiyotining yuz berganligi, ayniqsa mexanika va matematika fanlarining amaliyot bilan bog‘liq holda rivojlanishi an’anaviy mantiq negizida yangi - matematik mantiq yo‘nalishining yuzaga kelishiga zamin tayyorladi.

Nemis faylasufi, matematigi G.Leybnits (1646-1716) matematik hisoblash metodini ishlab chiqadi va uni mantiqqa tadbiiq qiladi.

Hisoblash - bu belgi-simvollar bilan fikrlash qoidalarining tizimi bo‘lib, Leybnits ular orqali tafakkur shakllariga (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish) nisbatan qo‘llaydi va maksimal aniqlik darajasida mantiqiy muhokama yuritish usullarini aniqlashga muvaffaq bo‘ladi.

Bu o‘rinda shu narsani ta’kidlash joizki, aslida matematik mantiqning ilk asoschisi

<sup>28</sup> Бишлиш фалсафаси (гносеология). Т., «Университет», 2005, 245-бет

<sup>29</sup>Ислом Каримов. Юксак маънавият- энгилмас куч. Т., “Маънавичт”, 2008, 116-бет.

IX asrlarda yashab ijod etgan yurtdoshimiz, mutafakkir Muhammad al-Xorazmiydir (780-850). U «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» nomli asarida hisoblashning algebraviy (algoritimli) usullarini ishlab chiqadiki, bu oradan ming yildan ziyod vaqt o'tib kibernetika fanining yuzaga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. XIX asrning o'rtalariga kelib matematik mantiq mustaqil fan sifatida to'liq shakllanadi, bunga ingliz matematigi, mantiqshunosi J.Bul (1815-1864) va nemis faylasufi, matematigi G.Frege (1848-1925)lar katta hissa qo'shadilar.

J.Bul «Mantiqning matematik tahlili», «Fikr qonunlarining tadqiqi» nomli asarlarida "mantiq algebrasi" deb ataladigan matematik mantiq sistemasini ishlab chiqadi.

G.Frege birinchi bo'lib mulohazalar va predikatlar mantiq'ining aksiomatik tuzilishining formallashtirilgan arifmetik sistemasini tuzadi. Va buni u ikki tomlik «Arifmetikaning asosiy qonunlari» degan asarida bayon etadi.

Bul, Fregelarning matematik mantiqqa oid qarashlari, keyinchalik ingliz faylasuf, mantiqshunoslari B.Rassel (1872-1970) va A.Uaytxed (1861-1947)lar tomonidan yanada rivojlantiriladi. XX asrning oxirlariga kelib ularning qarashlari negizida intuitiv, konstruktiv, ko'p mohiyatli, modalli mantiq kabi matematik mantiq yo'nalishlari yuzaga keladi. Matematik mantiqning yuzaga kelishi formal mantiqning ilmiy bilish metodologiyasi vazifasini o'tash imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi davr, axborot-texnologiya tizimining tobora takomillashib borishi formal mantiqning ushbu vazifasining ahamiyatini «Kuch- bilim va tafakkurda»(I.A.Karimov) degan tamoyilni hayotga tadbiq qilishda yanada dolzarb qilib qo'ymoqda.

Formal mantiqning vazifalari uning o'ziga xos amaliy-nazariy ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy fan ekanligi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra mazkur fan nazariy-metodologik va me'yoriy (normativ) – praksiologik(yunon.praktikos-faoliyatli) vazifalarni o'taydi. Bular:

1. Talabalarni mantiq fani asoslarini o'zlashtirishga erishish orqali ularda o'zlikni anglash e'tiqodi, mustaqillik dunyoqarashini shakllantirish.

2. Talabalarni Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining jahon falsafiy-mantiqiy fikri taraqqiyotiga qo'shgan hissasini anglatish, ularning ta'limotlarini chuqur egallashga yo'naltirish bilan ularda milliy g'urur, iftixor tuyg'ularini hosil qildirish.

3. Talabalarda milliy mustaqillik g'oyamizga yot bo'lgan hozirgi mafkuraviy xatar, buzg'unchi g'oyalarga qarshi turish qobiliyati -mafkuraviy immunitetni shakllantirish va buning uchun mantiqiy isbotlash va rad etish nazariyasining tuzilishi, tamoyillarini o'zlashtirishlariga erishish.

4. Talabalarda to'g'ri fikrlashning mantiqiy shakllari, qonun-qoidalaridan ilmiy bilish metodlari sifatida qo'llay bilish va ulardan boshqa fanlarni o'zlashtirishda foydalanish malakasini hosil qilish.

### **Yuqoridagi matndan berilgan savollarga javob yozing**

#### **SAVOLLAR**

1. Mantiq fanining predmeti. **Tayanch iboralar:** qonun, til, tafakkur, tushuncha, hukum, xulosa.
2. Bilish va uning asosiy bosqichlari. **Tayanch iboralar:** bilish, xissiy bilish va aqliy bilish, tafakkur va til.

3. Mantiq fanining falsafiy bilimlar tizimida tutgan o'rnini. **Tayanch iboralar:** ontologik, gnoseologik, formal mantiq, qonun, tafakkur, til.
4. «Umumiy mantiq» va «formal (sof) mantiq» o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar, ularning ahamiyati. **Tayanch iboralar:** mantiq, falsafa, bog'lanish, dialektika, psixologiya, matematika.
5. Mantiq fani va uning shakllanish bosqichlari. **Tayanch iboralar:** qadimgi Misr, Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Aristotel, Organon, Forobiy, Ibn Sino, Markaziy Osiyo, Bekon, Dekart.
6. Tafakkur mantiq ilmining o'rganish ob'ekti sifatida. **Tayanch iboralar:** Tafakkur, sezgi, idrok, tasavvur.
7. Tushuncha va uning ta'rifi. Tushunchalarning hayotiy ahamiyati. **Tayanch iboralar:** in'ikos, belgi, xususiyat, miqdor, sifat, yakkalik, konkret, ob'ektivlik, so'z, analiz, sintez, abstraksiya.
8. Tushunchalarning mazmuni, hajmi va ularning o'zaro nisbatlari. **Tayanch iboralar:** tushunchaning mazmuni, xajmi, ifodasi, buyum belgilari, xodisalar to'plami, teskari nisbat, yakka va umumiy tushuncha.
9. Xukm va uning ta'rifi. Xukmning tafakkur shaklida tutgan o'rnini. **Tayanch iboralar:** xukm, belgi, xususiyat, tasdiq, inkor, xodisalar munosabatlari va xukm predikat, bog'lovchi element.
10. Xukmlarda terminlarning bo'linishi. **Tayanch iboralar:** xukmning sub'ekti, xukmning predikati, xukm terminlari, ega va kesim predikat simvoli, mintaqaviy bog'lovchi.
11. Xukmning son jihatdan bo'linishi. **Tayanch iboralar:** yakka xukm, juz'iy xukmlar, umumiy xukmlar.

#### **Amaliy mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

1. Tinglovchi berilgan har bir savol bo'yicha o'z fikrini bayon qiladi;
2. Qo'yilgan savolni qanday qilib qulay o'qitish metodlari haqida taklif beradi;
3. Berilgan taklif bo'yicha bir nechta misollar ko'rsatadi;
4. Taklif qilinayotgan zamonaviy ta'lim metodining samaradorligini isbotlaydi.

#### **2-amaliy mashg'ulot: Mantiq fanining fikrlash madaniyatini o'stirishdagi ahamiyati.**

##### **REJA:**

- 1. Mantiq ilmini o'rganishning ahamiyati*
- 2. Mantiq fanining ilmiy ishonch-ye'tiqodning shakllanishida tutgan o'rnini*
- 3. O'rta asrlarda mantiq ilmning taraqqiyoti*

Mantiqni o'rganishda Sharq allomalarining yondashuvlari. Abu Rayhon Beruniyning "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari Falsafa sohasida muhim manba.

#### **1. Mantiq ilmini o'rganishning ahamiyati**

Mantiq ilmini o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Mantiqni

bilish, ayniqsa, ilm-fan bilan shug'ullanish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ko'payib borayotgan ilmiy axborotlarni tartibli ravishda o'zlashtirish, ilmiy masalalarning tuzilishini tez bilib olish uchun ham muhim rol o'ynaydi.

Mantiq inson tafakkuri madaniyatini ko'tarish va insoniyatning uzoq tajribasi natijasida takomillashgan tafakkur shakllari, qonun va qoidalarini bilish uchun xizmat qiladi. U inson fikrining ketma-ket, ziddiyatsiz va asosli bo'lishini ta'minlaydi. Mantiq fani mazmunini chuqurroq o'rganish kishilarning o'z tafakkuri va o'z g'alar tafakkuri natijalariga tanqidiy qarash xislatlarini rivojlantiradi. Tafakkurning bu sifatleri esa insonning turli ilmiy va amaliy faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Mantiqiy usullardan to'g'ri foydalana olish, ta'lim-tarbiya jarayonida isbot va raddiyaning mantiqiy tomonlarini bilish inson nutqining asosli bo'lishini ta'minlab, fikrdagi ziddiyatlarni ochishga yordam beradi.

Mantiq ishonch-e'tiqodning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Faktlar va boshqa dalillarga tayanuvchi fikr yuksak ishonch kuchiga ega bo'ladi, kishilarda ishonch-e'tiqodni mustahkamlaydi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat. Ana shuning uchun ham yoshlarda ilmiy asosga ega ishonch-e'tiqodni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqan asoslangan to'g'ri fikr ishonch-e'tiqodni shakllantirish vositasidir. Ishonch-e'tiqod esa, insonning komillik mezonlaridan biri hisoblanadi. Chuqur tahlilga, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlilga asoslangan to'g'ri xulosalargina haqiqatni bilishga yo'l ochadi.

Mantiq insonlar o'rtasidagi turli daraja va mazmundagi munosabatlarni uyg'unlashtirishda, o'zaro muloqotning samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bir qarashda aqliy mushohada oddiy mantiqiy ishga o'xshab ko'rinadi. Xususan, mantiqni maxsus o'rganmagan kishilar ba'zan qiziqarli fikrlarni bildirishadi, ba'zi olimlarga qaraganda hayotga tezroq moslashadi. Ana shuning uchun ham ba'zan mantiqiy muhokama yuritish hislati insonga tabiatan xos, uni mantiqni o'qitish yo'li bilan tarbiyalash shart emas, degan fikrlar uchrab qoladi. Bunday fikrning xatoligini mutaxassislar o'tkazgan maxsus ilmiy tadqiqotlar natijasi ko'rsatadi. Xususan, bu borada M.Koen va e.Morrislar bildirgan mulohazalar e'tiborga loyiqdir: "Kundalik ishlarimizning ko'pini amalga oshirayotganda odatga ko'ra chin deb hisoblaydigan fikrning haqiqatligi masalasi to'g'risida o'ylab o'tirmaymiz. Biroq o'z fikrimizning chin ekanligiga hamma vaqt ham to'la ishonch hosil qila olmaymiz, chunki atrof-muhitda kutilmaganda o'zgarish sodir bo'lishi yoki o'zimizning o'y-xayolimiz, yo bo'lmasa boshqa kishi fikri ta'sirida ishongan narsamiz chinligi haqida savol qo'yishga majbur bo'lamiz.

Boshqacha aytganda, haqiqatligi o'z-o'zidan ravshan bo'lmagan fikr-mulohazalar mavjud. Agar o'quvchiga ergashib kelgan Sokrat soyasi sug'urta kompaniyasi binosiga kirayotganida undan nima qilmoqchiligini so'rasa, u shunday javob bergan bo'lardi: "Men sug'urta polisi olmoqchiman". Agar soya uning sababi bilan qiziqib, so'rasa, demak, shunday javob bo'lishi mumkin: "Bir kun men o'laman, shu sababli yaqinlarimni ta'minlashni xohlayman". Agar Sokrat "bir kun

men o‘laman” degan mulohaza chin bo‘lsa, unda “o‘zing ko‘rmayapsanmi, axir”, deb ayta olmaydi. Gap shundaki, biz qachon o‘lishimizni oldindan bilmaymiz. Lekin biroz o‘ylangandan keyin, quyidagicha javob berish mumkin: “Sokrat, barcha tirik mavjudotlar bir kuni o‘ladilar, men esa tirik mavjudotman, demak men ham bir kuni o‘laman”.

Yuqorida keltirilgan savol-javob mantiqning eng oddiy holatlarda ham kerakligini tasdiqlaydi” .

Mantiq turli xil asoslarning adekvatligi va asoslovchi kuchi haqidagi masalani tadqiq etuvchi ilm sohasidir. Lekin, an’anaga ko‘ra u ko‘proq isbotning qanday qismlardan tashkil topishini o‘rganadi. Ya’ni to‘la va rad etib bo‘lmaydigan asoslarni keltirishni talab qiladi. Ba’zan biz bunday asoslarning qisman bo‘lishini ham kuzatamiz. Bunday hollarda xulosa muayyan darajada ehtimoliy xarakterga ega bo‘ladi .

Demak, barcha kishilar fikrlaydilar, lekin tafakkurning qanday amalga oshirishini hamma vaqt ham tushunib yetmaydilar. Xalq orasidan chiqqan, yuksak mantiqiy fikrlash madaniyatiga ega, bilishning mantiqiy usullaridan ongli ravishda foydalanadigan buyuk olimlar, mutafakkirlar, konstruktorlar ijodi natijalari, oddiy kishilarning kundalik tajriba asosida bildiradigan mulohazalari, hosil qiladigan xulosalaridan (ular chin bo‘lgan taqdirda ham) farqli o‘laroq, ilmiy asosga ega tushunchalar, mulohazalar, farazlar, g‘oyalar, ularning nazariy tizimi ko‘rinishida yuzaga chiqadi, turli masalalar yechimini gavdalandiruvchi loyihalarda o‘z aksini topadi va butun insoniyat mulkiga aylanadi. Al-Xorazmiy yaratgan hisoblash usullari, ilk bor Beruniy ilgari surgan va keyinchalik Kopernik asoslagan geliotsentrik g‘oya, Gippokrat, ar-Roziy, Ibn Sinolar ishlab chiqqan tashhis qo‘yish va davolash usullari, al-Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘beklarning astronomiyaga oid kashfiyotlari va boshqalar buning yaqqol ifodasidir.

Tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganish, ulardan ongli ravishda foydalanish fikrlash madaniyatini o‘stiradi, xususan, fikrni to‘g‘ri qurish malakasini rivojlantiradi; bahs yuritishda o‘zining va boshqalarning fikriga tanqidiy munosabatda bo‘lishiga, suhbatdoshining mulohazalaridagi xatolarni ochib tashlashga yordam beradi.

Muhokamani to‘g‘ri qurishga, formal ziddiyatlar, xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka erishish, aytish mumkinki, o‘ziga xos san’at – mantiq san’ati hisoblanadi. Bu san’atning nazariy asoslarini chuqur egallagan kishigina uning imkoniyatlarini amaliy muhokama yuritishda namoyish qila oladilar. Bu o‘rinda buyuk mutafakkir Forobiyning mantiq ilmining ahamiyati haqida bildirgan quyidagi fikrlarining alohida e‘tiborga loyiq ekanligini ta’kidlash zarur. U shunday yozadi: “Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan barcha hollarda, to‘g‘ri tafakkurga yetaklaydigan, uning yordamida har safar xulosa chiqarayotganda adashishga qarshi ehtiyot choralarini ko‘rsatadigan san’atni – mantiq san’atini o‘rganishdir. Uning asosiy qonun-qoidalarining aqlga bo‘lgan munosabati grammatika san’ati qoidalarining tilga bo‘lgan munosabatiga o‘xshash; xuddi grammatika kishilarning tilini to‘g‘rilash ehtiyoji sababli yaratilgani, unga xizmat qilishi zarur bo‘lgani singari, mantiq ham tafakkur jarayonini yaxshi amalga oshirish maqsadida xatoga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan barcha hollarda aqlni to‘g‘irlab

turadi” .

To‘g‘ri fikrlashning mantiqiy shakllari va qonunlari insonning bilish va amaliy faoliyatining barcha sohalarida qo‘llaniladigan universal metodologik vositalardir. Fan sifatida formal mantiq muhokamani to‘g‘ri qurishga xos umummantiqiy qonuniyatlarni o‘rnatish, ilmiy tadqiqot medodlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi, murakkab mantiqiy muammolarni qo‘yish va yechish vositalarini beradi. Bunday vositalar, odatda, fan uchun ilmiy nazariya‘ning strukturasi shakllantirishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tushuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo‘lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Mantiqni o‘rganish mantiqiy tafakkur madaniyatini shakllantirish va o‘stirishning samarali vositasidir. Mantiq to‘g‘ri muhokama yuritish usullarini nafaqat ishlab chiqadi, balki ularni sistemaga ham soladi, muhokamada yo‘l qo‘yiladigan tipik xatolarni aniqlaydi va tartibga soladi. U fikrlarni aniq ifodalash vositalarini taqdim etadi. Busiz ta‘limdan tortib, ilmiy tadqiqot ishlarigacha bo‘lgan fikrlash faoliyati kam samara beradi.

Uning ta‘lim sohasidagi vazifalari ham jiddiydir. O‘quv jarayonining samaradorligi ma‘lum bir darajada ishlatiladigan tushunchalarning, terminlarning aniq bo‘lishiga, muammolarning mantiqan to‘g‘ri qo‘yilishi va hal qilinishiga, mavjud gipotezalar strukturasi to‘g‘ri tahlil qila olishga, argumentlash qoidalaridan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq.

Fan uchun formal mantiq murakkab muammolarni yechish vositasini beradi. Bunday vositalar, odatda, ilmiy nazariya‘ning strukturasi o‘rganishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tushuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo‘lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida geosiyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy axborot-kommunikatsiya sohalarida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan, g‘oyaviy kurash keskin tus olayotgan, globallashuv jarayonining mafkuraviy ta‘sir o‘tkazish quroliga aylanayotgan, axborot xavfsizligi masalasining dolzarbliigi ortayotgan sharoitda sog‘lom tafakkur, to‘g‘ri fikrlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, yoshlarda ularning ongiga singdirilmoqchi bo‘lgan turli ko‘rinishdagi buzg‘unchi g‘oyalarning mazmun-mohiyati, maqsadini o‘z vaqtida anglash qobiliyatini mustahkamlash, mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya bilan kurashish, jaholatni ma‘rifat bilan yengish malakalarini rivojlantirishda mantiqiy fikrlash shakllari, qonun-qoidalarini bilish, ulardan oqilona foydalanish yaxshi samara beradi. Buning ahamiyatini birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov qiyoslash asosida sodda va lo‘nda qilib quyidagicha tushuntirgan edi: davlat chegaralarining daxlsizligini saqlash uchun harbiy kuch-qudrat, qurolli kuchlar qanchalik zarur bo‘lsa, yosh avlod ma‘naviy dunyosining daxlsizligini saqlash uchun yuksak aql-idrok va mantiqiy tafakkur kuchidan qurol sifatida foydalaniladigan ma‘naviy tarbiya shunchalik zarur .

Mantiq qonun-qoidalarini bilish davlat xavfsizligi organlari xodimlari uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, harbiy xizmatdagi komandirlar uchun harbiy bo‘linmalarda intizomni saqlashda, xizmatdagi yoshlarning jangovorlik ruhini kuchaytirishda, vatanparvarlik tuyg‘usini o‘stirishda hamda harbiy mashqlar va

harbiy harakatlar davomida vaziyatni to'g'ri baholash, ishonchli xulosa chiqarish, qat'iy qarorga kelishda chuqur o'ylash, mantiqiy fikrlash muhim rol o'ynaydi.

Mantiqiy tafakkur shakllari, usullarini yaxshi o'zlashtirish huquqiy ta'lim va huquq amaliyotining ajralmas qismidir. Bu huquq-tartibot xodimining kasbiy faoliyati xususiyatlari: huquqbuzarlik holatlarini o'rganishda ta'riflash va tasniflash, argumentlash va rad etish kabi mantiqiy usullardan doimiy ravishda foydalanishi bilan belgilanadi.

Mantiqni bilish sud versiyalarini qurishda, jinoyatlarni har tomonlama tekshiruv rejalarini tuzishda, operativ harakatlar tizimini ishlab chiqishda, rasmiy hujjatlarni: jinoyat sodir bo'lgan joyni ko'rib chiqish va so'rovlar, ayblovchi xulosalar, mulohazalar va qarorlar, bildirishnomalar va shu kabi protokollarini shakllantirishda yordam beradi.

Malakali huquqshunoslar har doim mantiqni bilishlarini amalda namoyish qilib kelganlar. Masalan, iqtidorli advokat ayblovchining muhokama yuritishidagi xatoni payqab, uning qanday xatoga yo'l qo'yganini, bunday xatoning mantiqda ko'rib chiqilishi va qanday nomlanishini aytib berib, keltirgan asoslari bilan sud majlisi ishtirokchilarini, shu jumladan, mantiqni o'qimaganlarni ham qoyil qoldirgan.

Keyingi paytda vujudga kelgan normalar mantig'i huquqning ko'p masalalarini soddalashtirishga, masalan, kodekslar va normativ aktlardagi ziddiyatlarni oson topishga, berilgan norma boshqa normalardan mantiqan kelib chiqadimi va uning normativ aktga kiritilishiga ehtiyoj bormi, yangidan qabul qilingan normativ akt avval qabul qilingan normativ aktlarni ortiqcha qilib qo'ymaydimi yoki uni to'ldiradimi va boshqa shu kabi savollar qo'yib, javob izlashga, ularni aniqlashtirishga imkon beradi.

Yuqori darajadagi mantiqiy madaniyat rahbar lavozimini egallab turgan kishilar uchun juda zarur. Xizmatga doir yig'ilishlarda rahbar diskussiya'ni tashkil etuvchi, bahs-munozara hakami rolini bajaradi. Argumentlash va tanqid qilish qoidalarini, bahsda qo'llash mumkin va mumkin bo'lmagan usullarni bilish unga diskussiya'ni haqiqatga erishishga qarab yo'naltirishga yordam beradi.

Rahbarning xizmat vazifalaridan biri boshqaruv bo'yicha qarorlar ishlab chiqish va qabul qilishdir. Mantiqdan xabardorlik rahbarga qarorning ishlab chiqilishi uchun asos bo'lgan omillarni, qarorda xulosa tarzida ifodalangan fikrning qanday hosil qilinganini tushuntirishga, boshqacha aytganda, "qaror qabul qilish mantig'ini" tushuntirishga va shu tariqa, xodimlarning unga bo'lgan ishonchining paydo bo'lishi, amaliyotga joriy qilishning zarurligini tushunib yetishiga olib keladi.

Formal mantiq metodlari tafakkur jarayonini modellashtirish, fikrlovchi qurilmalar-robotlarni yaratish, kompyuterlar uchun dasturlar tayyorlash, turli obektlarning matematik modellarini yaratish, axborot texnologiyalari, kommunikatsiya vositalarini mukammallashtirish kabi ishlarda keng qo'llaniladi. Bu holat ularning zamonaviy funksiyalarining ham yetarlicha ekanligini ko'rsatadi.

### **Mantiq fanining ilmiy ishonch-ye'tiqodning shakllanishida tutgan o'rni**

Faktlar va boshqa dalillarga taya'ni b yuritiladigan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo'ladi, kishilarda ishonch-ye'tiqodni mustahkamlaydi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat. Ana shuning uchun



ham yoshlarda ilmiy asosga ega ishonch-ye'tiqodni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Argumentlash ishonch-ye'tiqodni shakllantirish vositasidir. Ishonch-ye'tiqod esa, insonning komillik mezonlaridan biri hisoblanadi.

Ishonch-ye'tiqod – bu kishillarning xulq-atvori va xatti-harakatini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Vatanimizning gullab-yashnashi, barqaror rivojlanishi ma'lum bir darajada yoshlarning chuqur bilimga, mustahkam ishonch-ye'tiqodga va, umuman, komil inson bo'lishlariga bog'liq. Bu haqda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deb ta'kidlagan: "Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikr olaydigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamlarni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi".

Chuqur tahlilga, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlilga asoslangan to'g'ri xulosalargina haqiqatni bilishga yo'l ochadi.

Bahs, munozara yuritishning, chin fikrlarni isbotlay bilishning, xato fikrlarni rad etishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Bu qoidalarni bilish har bir insonga, shu jumladan, talabalarga chin fikrni xato fikrdan ajrata bilish, to'g'ri tafakkurlash madaniyatini shakllantirish imkonini beradi

### **O'rta asrlarda mantiq ilmning taraqqiyoti**

Bu davrda mantiqiy bilimlarning rivojlanishi ko'proq O'rta va Yaqin Sharq, shuningdek, O'rta Osiyoda kechadi. Qadimgi Gretsiya davlati, keyinroq Rim imperiyasining tanazzulga yuz tutishi bilan ilm, fan, madaniyat Misrda gurkirab rivojlana boshlaydi.

Ma'lumki, VI-VII asrlar antik davrning emirilishi va feodal ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishi davri hisoblanadi. Bu davrda Yaqin, O'rta Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniy hayotida Uyg'onish davri bo'ladi.

Mazkur davr ishlab chiqarishning yuqori darajada rivojlanishi va shunga muvofiq fan, madaniyatning ham yuksalib borishi bilan xarakterlanadi. Aql, tafakkur masalasi faqat aniq fanlarning emas, balki falsafa fanining ham bahs mavzuiga aylandi. Shuning uchun Uyg'onish davrining ko'pgina faylasuf, mutafakkirlari o'zlarining mantiqqa doir asarlarini yaratdilar.

O'rta Osiyolik qomusiy olim Abu Nasr Forobiy (873-950) birinchilardan bo'lib Aristotel, Porfiriylarning mantiqqa oid asarlariga izoh yozadi. Abu Ali ibn Sino o'zining tarjimai holidagi Aristotelning asarlarini qayta-qayta o'qiganligi, lekin faqat Forobiyning unga yozgan izohini («Metafizika tezislari») topib o'qiganidan so'nggina, ularning ma'nosiga tushunganligi haqida yozadi.<sup>30</sup>

Shuningdek, Forobiy «Mantiqqa kirish», «Aql haqida», «Shartli hukmlar» kabi asarlarini yaratadi. U o'zining ushbu asarlarida mantiq fanining predmeti, uning ahamiyati, tushunchalardan hukm va hukmlardan xulosa chiqarish (sillogizm) haqida fikr yuritadi. Forobiy shuningdek to'g'ri fikr yuritishning asosiy usul va

<sup>30</sup>Қаранг: Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане Т.: "Фан", 1976, с.278.

vositlari - isbotlash, munozara-bahs, induksiya va deduksiya haqida ham batafsil to'xtaladi.

Forobiydan so'ng mantiq ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan mutafakkir Abu Ali ibn Sino (980-1037) hisoblanadi. Forobiyning mantiq ilmiga oid asarlarini chuqur o'rgangan Ibn Sino o'zining «Mantiq», «Donishnoma» kabi risolalarini yaratdi. Shuningdek uning tabobat ilmiga oid «Kitob ash-shifo» asarining bir bobini mantiqqa bag'ishlangan bo'lib, u 9 qismdan tashkil topgandir.

O'rta asr mantiqiy fikrlar tarkiqiyotiga ozarbayjonlik Baxmanyor, arabistonlik Ibn Rushd va eronlik Nasriddin Tusiy, Faxriddin Roziy, xurosonlik Sa'duddin Taftazoniy kabi faylasuf, olimlar katta hissa qo'shganlar.

### **Abu Rayxon Beruniy mantiq ilmi haqida**

Abu Rayhon Beruniy (973-1048y.y.) O'rta asrlarning buyuk qomusiy olimidir. Abu Rayhon Beruniy mantiqqa oid asarlar yozmagan bo'lsa ham, uning qonun-qoidalaridan, isbotlash usullaridan o'zining ilmiy-amaliy faoliyatida keng foydalangan, mantiq ilmining bilish jarayonidagi ahamiyatini yuqori baholagan. Beruniy shunday deb yozadi: "Inson nutqqa ega bo'lgan va o'zining muxoliflari bilan dunyoviy va oxirat ishlari haqida bahs-munozara yuritganligi sababli o'z so'zlarida "mezonga" muhtoj bo'ldi. Gap o'z zoti bilan rostni ham, yolg'onni ham o'z ichiga olish ehtimoli borligidan mezon yordamida uni izchil tekshirish va shu yo'sinda uning shubhali yerini to'zatisht kerak bo'lgan. Zeroki, bu bilan mubohasalarda so'zlardan tuzilgan sillogizmlarning kishini adashtiruvchi yolg'onni ham, haqiqatni ochuvchi rosti ham ayon qilingan. Inson shu mezonni topdi. U mantiq deyiladi".<sup>1</sup>

Mutafakkir mantiq ilmining bilish jarayonidagi o'rniga yuqori baho beradi. U o'z davri ulamolarining mantiq ilmiga bo'lgan salbiy munosabatini quyidagicha izohlaydi: "...Mantiq Aristotelga mansub bo'lib, uning qarash va e'tiqodlaridan esa islomga muvofiq kelmaydiganlari qurilgan edi, chunki uning qarashlari nazariy bilimdan bo'lib, dindan emas edi... Ha, mantiq yunonlar tiliga o'xshash alfozda yozilgan va iboralari yangi davr olimlariga ma'lum bo'lganiga xilof. Shuning uchun mantiqni tushunish masalasi o'z-o'zidan nozik bo'lib, u yana qaltirlashayapti, shu sababli ular undan uzoqlashayaptilar...Ular haqlidirlar, jinoyat esa tarjimonlar tomonidan qilingan. Haqiqatan ham agar u ismlar arabchaga tarjima qilinsa va «Kirish kitobi», «Kategoriyalar», «Iboralar», «Qiyos va Isbot» deb aytilsa edi, hamma ularni e'tiroz bildirmay qabul qilishga shoshilgan bo'lardi»<sup>31</sup>.

Abu Rayhon Beruniy tabiatshunos olim sifatida ilmiy metodga katta ahamiyat beradi. Beruniyning buyuk xizmatlaridan biri tabiat va jamiyatni bilishning ilmiy metodini ishlab chiqqanligidadir. Beruniy ilmiy metodining asosiy prinsiplari "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida keltirilgan. Bular quyidagilar:

- aqlni bekorchi fikrlardan tozalash;

---

<sup>1</sup> Абу Райхон Беруний. Геодезия. -Т., 1982. –Б.64

<sup>31</sup> Абу Райхон Беруний. Геодезия.// Танланган асарлар. Т.3. -Т.: Фан, 1982.-Б. 64-65.

- tajribaga asoslanish;
- bilishni, avvalo, predmetni tashkil etuvchi elementlardan boshlash;
- hissiy bilishga asoslangan deduksiyadan foydalanish;
- mantiqiy fikrlash: analiz qilish va umumlashtirish;
- kuzatish, taqqoslash, qiyoslash orqali haqiqatni aniqlash;
- ma'lum narsadan noma'lumga, yaqindagidan uzoqdagiga qarab fikr yuritish;
- uzoq o'tmishni bilish uchun predmet, hodisaning tarixi va u haqida boshqalarning bergan ma'lumotlarini o'rganish.

Beruniy R.Dekart va F.Bekonlardan avvalroq ilmiy bilish metodini yaratish zarurligini ta'kidlagan va uning asosiy qoidalari hamda prinsiplarini ishlab chiqqan. Beruniyning bu masalaga oid fikrlari G'arb faylasuflarinikiga nisbatan keng qamrovliligi bilan ajralib turadi.

### **Yuqoridagi matndan berilgan savollarga javob yozing.**

#### **SAVOLLARI**

11. Xukmlarning son va sifat jihatdan birlashgan tasnifi. **Tayanch iboralar:** yakka yoki juz'iy tasdiqlovchi xukmlar, umumiy tasdiq xukmlar, umumiy inkor xukmlar.
12. Xukmlarning predikat mazmuniga ko'ra bo'linishi. **Tayanch iboralar:** mavjudlik xukmi, xususiyat xukmi, munosabat xukmlari.
13. Murakkab xukmlar va ularning turlari. **Tayanch iboralar:** murakkab xukmlar, kushuvchi xukmlar, shartli xukmlar, ayiruvchi yoki diz'yunktiv xukmlar.
14. Xukmlar orasidagi munosabat (mantiqiy kvadrat). **Tayanch iboralar:** karama-qarshi hukmlar, bir-biriga zid munosabatlar, kuyi karama-karshi munosabatlar, buysunuvchi munosabatdagi xukmlar.
15. Mantikiy xulosa va uning ta'rifi. **Tayanch iboralar:** mantikiy xulosa, asos, asosli natija, xulosaning chinligi.
16. Xulosa chiqarishning ikki asosiy turi. **Tayanch iboralar:** vositasiz xulosa, mantiqiy kvadrat, almashtirish, aylantirish, predikatga qarama-qarshi qo'yish.
17. Deduktiv xulosa chiqarish va uning turlari. **Tayanch iboralar:** induksiya, deduksiya, sillogizm, xulosa chiqarish yo'llari, sillogizm tarkibi.
18. Deduktiv xulosa chiqarishning ahamiyati. **Tayanch iboralar:** bilish, induksiya, deduksiya, rivojlanish, kashfiyot, taraqqiyot, yangilik.
19. Sig'ishmaydigan munosabatlar. **Tayanch iboralar:** qarama-qarshi xukmlar, bir-biriga zid munosabatlar, umumiy tasdiq, umumiy inkor, juz'iy tasdiq.
20. Induktiv xulosalash va uning turlari. **Tayanch iboralar:** yakka, xususiy, umumiy, xulosa chiqarish, induksiya, tajriba, to'liq, to'liqsiz induksiya, ommaviy induksiya, ilmiy induksiya, o'xshatish va tafovut metodlari.

#### **Amaliy mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

5. Tinglovchi berilgan har bir savol bo'yicha o'z fikrini bayon qiladi;
6. Qo'yilgan savolni qanday qilib qulay o'qitish metodlari haqida taklif beradi;

7. Berilgan taklif bo'yicha bir nechta misollar ko'rsatadi;
8. Taklif qilinayotgan zamonaviy ta'lim metodining samaradorligini isbotlaydi.

### **3-amaliy mashg'ulot: Tafakkur qonunlariga rioya qilish – bilishda haqiqatga erishish sharti.**

#### **REJA:**

- 1. AYNIYAT QONUNI*
- 2. NOZIDLIK QONUNI*
- 3. UChINChISI – ISTISNO QONUNI*
- 4. YETARLI ASOS QONUNI*

Tafakkurni tasniflashda G'arb olimlarining qarashlari. Yevropotsentrizm ta'siri.

Mazkur fan umuman tafakkurni emas, balki uning asosiy shakllari va qonunlarini o'rganadi. Tafakkurning ushbu jihatini o'rganish to'g'ri, mantiqiy fikr yuritishning zaruriy shartidirki, busiz haqiqat, chin bilimlarga erishib bo'lmaydi.

«Haqiqat nima, unga qanday qilib erishiladi?», «Haqiqatning mezoni nima?» degan savollarga javob topish uchun barcha davrlarda faylasuf, mantiqshunoslar bosh qotirib kelganlar va bunda, asosan, masalaning echimiga idealistik va materialistik qarashdan turib yondashganlar.

Ob'ektiv idealizmning asoschisi Platon (Aflotun) haqiqatni fikrning «g'oyalar dunyosi»ning «soya»si bo'lgan buyum, predmetlarga muvofiq kelishidir, deb tavsiflaydi. «Kim agar buyum qanday bo'lsa, shunga -muvofiq gapirsa,- deb yozadi faylasuf,- u haqiqatni aytgan va aksincha bo'lsa, yolg'on, xato gapirgan bo'ladi».<sup>32</sup>

Aristotel(Arastu) o'z salafining fikrini yanada konkretlashtiradi: «Kimki yo'q narsaning mavjudligi haqida gapirsa yolg'onni, lekin mavjud narsani bor, mavjud bo'lmagan narsani yo'q, deb tasdiqlasa, haqiqatni aytgan bo'ladi».<sup>33</sup> Platon va Aristotel tomonidan berilgan haqiqatning (mumtoz) ta'rifi to hozirgacha falsafa, mantiqda o'z ahamiyatini yo'qotmasdan tayanch ta'rif sifatida qo'llanilib kelinmoqda. Olmon faylasufi I. Kant o'z vaqtida haqiqatga Platoncha va Aristotelcha qarashning cheklanganligi va bu bo'yicha uning (haqiqatning) eng umumiy, ishonchli mezonini belgilab bo'lmasligini ta'kidlagan edi. Chunki, uningcha, bunday qarash haqiqat mezoni deb qabul qilingan amaliyotni faqat tajribaviy-yempirik bilimlarga nisbatan qo'llash mumkin bo'lgani holda, uni aprior, (lot. arriori- boshlang'ich), tajribadan tashqari bilimlarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. «Haqiqat nima?- deb yozadi u, - bu- faylasuflarni boshi berk ko'chaga kiritgan, ularni mantiqan bir doirada aylantirgan ko'hna va azaliy savol. Haqiqatning nominal ta'rifiga ko'ra (platoncha, arastucha ta'rif- izoh bizniki) u bilimning predmetga mos, muvofiq kelishidir. Lekin eng muhim masala- bu har qanday bilim uchun eng umumiy va ishonchli mezonni topish bo'lmog'i kerak».<sup>34</sup>

Ye'tirof etish kerakki, garchi Kant masalaga o'zining sub'ektiv idealistik

<sup>32</sup> Платон. В 3-х т. Т.1.М.; 1968, с. 417

<sup>33</sup> Аристотель. Соч.в.4 томах, Т.1, М; 1976, с.141

<sup>34</sup>Иммануил Кант. Критика чистого разума. Ростов на Дону. «Феникс»,1999,с.92

qarashidan turib yondashgan bo'lsa-da, lekin u ko'p jihatli haqiqat fenomenining mohiyatini platoncha, arastucha ta'rif to'liq ochib beraolmasligini anglab etgan edi.

Hozirgi globallashuv davrida umumjahon va mintaqaviy miqyosdagi ijtimoiy muammolar echimi tafakkur orqali erishiladigan haqiqatning mohiyatini, uning mezoniy o'lchovlarini qadriyatlilik doirasida hal etishni taqozo etmoqda. Zotan "haqiqat ma'naviy-axloqiy o'lchovlarda baholanilmasa, qadrlanmasa, o'z vazifasini bajaraolmaydi, haqiqiy ijtimoiy mazmunini namoyon qilaolmaydi"<sup>35</sup>.

Haqiqatning qadriyatlilik (aksiologik) jihati uning ezgulik, go'zallik axloqiy-yestetik mezoniy tushunchalari va tamoyillari bilan o'zaro birlikda ma'naviyat tizimining tarkibiy qismi, uni yuksaltiruvchi kuch sifatida amal qilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda Prezidentimizning quyidagi dasturilamaliy ahamiyatga molik fikrini keltirib o'tish joizdir: "Qaerda... yuksak aql –idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha erda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi"<sup>36</sup>.

Tafakkur murakkab, ko'p jihatli jarayon bo'lib, uni tadqiq etish bilan bir qator fanlar (gnoseologiya, tilshunoslik, psixologiya, kibernetika, fiziologiya va b.) shug'ullanadi. Formal mantiq boshqa fanlardan farqli ravishdatafakkurning shakllarini va ularning o'zaro muayyan tamoyillar asosida bog'lanish - qonunlarini o'rganadi. Aniqroq qilib aytganda, nazariy-mantiqiy bilishning shakllari, usullari va ularning asosini tashkil etuvchi qonunlar formal mantiqning predmetidir.

Tafakkurni bunday, ya'ni formal tuzilishi jihatidan o'rganish to'g'ri muhokama, fikr yuritishning zaruriy shartidirki, bu esa chin bilimlarga, haqiqatga erishishning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Nazariy bilish, haqiqat muammosi dialektik va matematik mantiqning ham tadqiqot ob'ekti bo'lib, ushbu umumiylik mazkur fanlarning formal mantiq bilan o'zaro munosabatini belgilaydi. Arastu asos solgan formal mantiq negizida XVII-XIX asrlarda yuzaga kelgan yangi mantiqiy sistemalar, jumladan, matematik va dialektik mantiqda nazariy bilish, haqiqat masalasi yangicha usul, tamoyillar bo'yicha talqin qilinadi. Va bu formal mantiqning rivojlanishi uchun muhim rol o'ynaydi.

Gegel tomonidan ishlab chiqilgan dialektik mantiq tafakkurni paydo bo'lish, rivojlanishda, uning shakllari mazmuni va qonunlari birligida o'rganadi.

Formal mantiq tafakkur shakllarini to'g'ri fikrlash maqsadini ko'zda tutgan holda, turli xil mazmunga ega bo'lgan fikr qismlari tarzida, umumiy

tarkibiy tuzilishda o'rganadi. Masalan, tushuncha va hukm konkret mazmun birligida emas, balki muayyan strukturaviy tuzilishidagi fikr shakli sifatida olib qaraladi va bunda ularda qanday predmet anglashilayotganligi fikran soqit qilinadi. Dialektik va formal mantiq usul, tamoyillari va qonunlarini o'zaro birlikda olib qarash va ularni bilish jarayonida qo'llash chin bilimlarga, haqiqatga erishishning eng samarali yo'lidir.

XVIII asrda evropa mamlakatlarida ilmiy-texnika taraqqiyotining yuz berganligi, ayniqsa mexanika va matematika fanlarining amaliyot bilan bog'liq holda rivojlanishi an'anaviy mantiq negizida yangi - matematik mantiq

<sup>35</sup> Бишлиш фалсафаси (гносеология). Т., «Университет», 2005, 245-бет

<sup>36</sup>Ислом Каримов. Юксак маънавият- энгилмас куч. Т., "Маънавичт", 2008, 116-бет.

yo'nalishining yuzaga kelishiga zamin tayyorladi.

Nemis faylasufi, matematigi G.Leybnits (1646-1716) matematik hisoblash metodini ishlab chiqadi va uni mantiqqa tadbiq qiladi.

Hisoblash - bu belgi-simvollar bilan fikrlash qoidalarining tizimi bo'lib, Leybnits ular orqali tafakkur shakllariga (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish) nisbatan qo'llaydi va maksimal aniqlik darajasida mantiqiy muhokama yuritish usullarini aniqlashga muvaffaq bo'ladi.

Bu o'rinda shu narsani ta'kidlash joizki, aslida matematik mantiqning ilk asoschisi IX asrlarda yashab ijod etgan yurtdoshimiz, mutafakkir Muhammad al-Xorazmiydir (780-850). U «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» nomli asarida hisoblashning algebraviy (algoritmli) usullarini ishlab chiqadiki, bu oradan ming yildan ziyod vaqt o'tib kibernetika fanining yuzaga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. XIX asrning o'rtalariga kelib matematik mantiq mustaqil fan sifatida to'liq shakllanadi, bunga ingliz matematigi, mantiqshunosi J.Bul (1815-1864) va nemis faylasufi, matematigi G.Frege (1848-1925)lar katta hissa qo'shadilar.

J.Bul «Mantiqning matematik tahlili», «Fikr qonunlarining tadqiqi» nomli asarlarida "mantiq algebrasi" deb ataladigan matematik mantiq sistemasini ishlab chiqadi.

G.Frege birinchi bo'lib mulohazalar va predikatlar mantiqining aksiomatik tuzilishining formallashtirilgan arifmetik sistemasini tuzadi. Va buni u ikki tomlik «Arifmetikaning asosiy qonunlari» degan asarida bayonetadi.

Bul, Fregelarning matematik mantiqqa oid qarashlari, keyinchalik ingliz faylasuf, mantiqshunoslari B.Rassel (1872-1970) va A.Uaytxed (1861-1947)lar tomonidan yanada rivojlantiriladi. XX asrning oxirlariga kelib ularning qarashlari negizida intuitiv, konstruktiv, ko'p mohiyatli, modalli mantiq kabi matematik mantiq yo'nalishlari yuzaga keladi. Matematik mantiqning yuzaga kelishi formal mantiqning ilmiy bilish metodologiyasi vazifasini o'tash imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Falsafada "qonun" tushunchasi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlarini ifodalaydi. Mantiq ilmida esa "qonun" tushunchasi fikrlash elementlari o'rtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalaydi.

Mantiqiy tafakkur ikki turdagi qonunlarga bo'ysunadi. Ular dialektika qonunlari va formal mantiq qonunlaridir. Dialektika qonunlari ob'ektiv olam va bilish jarayoniga xos bo'lgan eng umumiy qonunlar bo'lib, dialektik mantiqning o'rganish sohasi hisoblanadi. Formal mantiq qonunlari esa faqat tafakkurdagina amal qiladi. Dialektika qonunlari mantiqiy tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib o'rgansa, formal mantiq qonunlari esa, fikrning to'g'ri tuzilishi, aniq, izchil, ziddiyatsiz va asoslangan bo'lishini e'tiborga olgan holda o'rganadi.

Formal mantiq qonunlari (yoki tafakkur qonunlari) deyilganda fikrlashga xos muhim, zaruriy bog'lanishlar tushuniladi. Tafakkur qonunlari ob'ektiv voqelikning inson miyasida uzoq vaqt davomida aks etishi natijasida vujudga kelgan va shakllangan. Bu qonunlar fikrlashning to'g'ri amalga oshirishini ta'minlab turadi.

Ular tafakkur shakllari bo'lgan tushunchalar, mulohazalar (hukmlar), xulosa chiqarishning shakllanishi va o'zaro aloqalarini ifodalaydi.

Tafakkur qonunlariga amal qilish to'g'ri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan xoli bo'lish va asoslanganlik to'g'ri tafakkurlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar bo'lganligi uchun, ularning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

## 2. Ayniyat qonuni

Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda, ularga xos bo'lgan barcha muhim belgilar, qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, o'zgarmas va qat'iy mazmunga ega bo'ladi. Tafakkurga xos bo'lgan bu aniqlik xususiyati Ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi.

**Ayniyat qonuniga ko'ra, ma'lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o'z-o'ziga tengdir.** Bu qonun formal mantiq ilmida «A–A» dir formulasi bilan ifodalanadi.

Ayniyat qonuni simvolik mantiq ilmida, ya'ni **mulohazalar** mantig'i va **predikatlar** mantig'ida o'ziga xos ko'rinishga ega.

Mulohazalar mantig'ida  $a \rightarrow a$  va  $a \leftrightarrow a$ . (Bunda,  $a$  – har qanday fikrni ifodalovchi belgi,  $\rightarrow$  implikasiya belgisi, « $\leftrightarrow$ » ekvivalentlik belgisi.)

Predikatlar mantig'ida  $(x(R(x) \rightarrow R(x)))$  bu ifoda quyidagicha o'qiladi: har qanday  $x$  uchun, agar  $x$   $R$  belgiga ega bo'lsa,  $x$  shu belgiga ega, degan fikr to'g'ri bo'ladi.

Ayniyat qonunining asosiy talabi quyidagicha: fikrlash jarayonida turli fikrlarni aynanlashtirish va, aksincha, o'zaro aynan bo'lgan fikrlarga teng emas, deb qarash mumkin emas. Bu mantiqiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir. Fikrlash jarayonida bu qonunni bilib yoki bilmasdan buzish holatlari uchraydi. Ba'zan bu holat bir fikrning tilda turli xil ifodalanishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, «dialektika qonunlari» va «tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy qonunlari» tushunchalari shakliga ko'ra turlicha bo'lsa ham, mazmunan aynandir.

Tilda mavjud bo'lgan omonim va sinonim so'zlarning qo'llanishi ham ba'zan turli fikrlarning o'zaro aynanlashtirilishiga, ya'ni noto'g'ri muhokamaga olib keladi. Masalan, falsafiy nuqtai nazardan "sifat" tushunchasi o'ziga xos mazmunga ega bo'lsa, hunarmand tomonidan bu tushuncha o'zgacha mazmunda (yaroqli, foydali) qo'llaniladi. Bir tushunchaga kasb-hunari, hayotiy tajribasi, dunyoqarashi turli xil bo'lgan shaxslar tomonidan turli mazmun yuklatilishi ham ba'zan Ayniyat qonunining buzilishiga sabab bo'ladi.

Bahs-munozara jarayonida qanday qilib bo'lsa ham raqibini aldash va yutib chiqish maqsadida Ayniyat qonuni talablarini ataylab buzuvchilar sofistlar deb ataladi, ularning ta'limoti esa sofistika deyiladi.

Sharq adabiyotida turli ma'nodagi bir xil so'zlarni mohirlik bilan ishlatib, go'zal she'riy misralar yaratiladi. "Tuyuq" nomi bilan ma'lum bo'lgan bu she'riy misralar serma'noligi bilan insonga zavq bag'ishlaydi:

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot.

Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot.  
Nasihatim yod qilib ol farzandim,  
Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.  
(Fozil Yo'ldosh o'g'li)

Yuqoridagi to'rtlikda "ot" so'zining turli ma'larda qo'llanilishi Ayniyat qonuni talabining buzilishini emas, balki unga rioya qilinganligini ifodalaydi.

Shuningdek, o'zbek xalqiga xos bo'lgan askiya san'atida Ayniyat qonuni talabining ataylab buzilishini so'zlarning o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'nolarda qo'llanilishini kuzatish mumkin. Bu o'ziga xos so'z o'yini bo'lib, unda qo'llaniladigan nozik qochirimlar askiya aytuvchining mahoratini ko'rsatadi va tinglovchilarning kulgusiga sabab bo'ladi. Aytish mumkinki, hayotda, amaliyotda tushunchalarning turli ma'nolarda qo'llanilishi g'arazli yoki beg'araz, yaxshi yoki yomon maqsadlarga xizmat qilishi mumkin.

Ayniyat qonuni predmet va hodisalarning nisbiy barqarorligini ifoda etgani holda, tafakkurning rivojlanishini, tushunchalar va bilimimizning o'zgarib, boyib borishini inkor etmaydi. Bu qonun fikrning mazmuni predmet va hodisalarni to'laroq bilib borishimiz bilan o'zgarishini e'tirof etadi va uni hisobga olishni taqozo qiladi. Ayniyat qonuni tafakkurga, uning barcha elementlari, shakllariga xos bo'lgan umumiy mantiqiy qonundir. Bu qonunning talablari tafakkurning har bir shakliga xos bo'lgan konkret qoidalarda aniq ifodalanadi. Tafakkurning tushuncha, mulohaza (hukm), xulosa chiqarish shakllari, ular o'rtasidagi munosabatlar shu qonunga asoslangan holda amalga oshadi.

### **3.Nozidlik qonuni**

Inson tafakkuri aniq, ravshan bo'lishi bilan birga, ziddiyatsiz bo'lishi ham zarur. Ziddiyatsizlik inson tafakkuriga xos bo'lgan eng muhim xislatlardan biridir. Ma'lumki, ob'ektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo'lishi, ham ega bo'lmasligi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning o'zida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bo'lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo'lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo'lishini ta'minlaydi.

**Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o'zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo'lishi mumkin emasligi, hech bo'lmaganda ulardan biri, albatta, xato bo'lishini ifodalaydi.** Bu qonun «A ham V, ham V emas bo'la olmaydi» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig'ida bu qonun quyidagi formula orqali yoziladi:  $\neg(a \wedge \neg a)$

( formula " a va a emas bo'lishi mumkin emas" deb o'qiladi. )

Nozidlik qonuni qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qo'llanadi. Bunda qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi ham bir vaqtda xato bo'lishi mumkin; o'zaro zid mulohazalar esa, bir vaqtda xato bo'lmaydi, ulardan biri xato



bo'lsa, ikkinchisi albatta chin bo'ladi. Qarama-qarshi mulohazalarda esa, bunday bo'lmaydi, ya'ni ulardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi. Masalan: "Arastu — mantiq fanining asoschisi" va "Arastu — mantiq fanining asoschisi emas" — bu o'zaro zid mulohazalardir. Bu zid mulohazalarning har ikkalasi bir vaqtda xato bo'lmaydi. Ulardan birinchisi chin bo'lganligi uchun, ikkinchisi xato bo'ladi. O'zaro qarama-qarshi bo'lgan "Bu dori shirin" va "Bu dori achchiq" mulohazalarining esa ikkalasi bir vaqtda, bir xil nisbatda xato bo'lishi mumkin. Chunki dori shirin ham, achchiq ham bo'lmasligi, balki sho'r, bemaza yoki nordon bo'lishi mumkin.

Ba'zida ikki qarama –qarshi fikr aytilganda mantiqiy ziddiyat bo'lmasligi mumkin. Bunda bir masala yuzasidan bayon qilingan qarama-qarshi fikrlar turli vaqtda va turli nisbatda aytilgan bo'ladi. Masalan: "Akmal musobaqada qatnashmadi" va "Akmal musobaqada qatnashdi". Bu mulohazalar turli vaqtga nisbatan (bir oy avval yoki keyin), turli munosabatda (suzish yoki shaxmat bo'yicha) bayon qilingani tufayli bir-birini inkor etmaydi. Demak, fikrlash jarayonida vaqt, munosabat va ob'ekt birligining saqlanishi Nozidlik qonunining amal qilishi uchun zaruriy shart-sharoit hisoblanadi.

Mantiq ilmi umuman har qanday zid mulohazalarni ta'qiqlamaydi, balki bir masala yuzasidan bir xil vaqt va munosabat doirasida o'zaro zid, qarama-qarshi mulohazalarni bayon qilish mumkin emasligini ta'kidlaydi.

Formal mantiq mantiqiy ziddiyatlar bilan real hayot ziddiyatlarini chalkashtirib yuborishni qoralaydi. Chunki bulardan birinchisi tafakkurda yo'l qo'yib bo'lmaydigan ziddiyat bo'lsa, ikkinchisi buyum, hodisalar taraqqiyotining ichki manbaini tashkil qiladigan dialektik ziddiyatdir. Birinchisi sub'ektiv, ikkinchisi ob'ektiv ziddiyatdir.

Nozidlik qonunini bilish va unga amal qilish raqibning, suhbatdoshning fikrlaridagi mantiqsizlikni aniqlash, ilmiy taxlilni chuqur va izchil mantiqiy asosda olib borish imkonini beradi.

#### ***4.Uchinchisi – istisno qonuni***

**Uchinchisi istisno qonuni Nozidlik qonunining mantiqiy davomi bo'lib, fikrning to'liq mazmunini qamrab olib, bayon qilingan ikki zid fikrdan birichin, boshqasi xato, uchinchisiga o'rin yo'q ekanligini ifodalaydi.** Bu qonun «A yo V, yoki V emas bo'ladi» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig'ida bu qonun quyidagi formula orqali yoziladi:  $a \vee \neg a$

( formula " a yoki a emas" deb o'qiladi. )

Bu qonun fikrlar o'rtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agarda zid munosabatlar fikrning to'liq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi ma'lum bo'lsa, unda "Uchinchisi – istisno" qonuni amal qilmaydi.

Masalan:

Talaba imtihonda «a'lo» baho oldi.

Talaba imtihonda «ikki» baho oldi.

Bu mulohazalar munosabatida nozidlik qonuni amal qiladi. Chunki bu mulohazalarning har ikkisi ham xato bo'lishi va talaba imtihonda «o'rta» yoki

«yaxshi» baho olishi mumkin.

Agar, «Talaba imtihonda «a'lo» baho oldi» va «Talaba imtihonda «a'lo» baho olmadi» mulohazalarini tahlil qilsak, unda bu mulohazalardan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o'rin yo'q ekanligi ma'lum bo'ladi. Chunki «yaxshi», «o'rta» va «ikki» baholar – «a'lo» baho emas.

**“Uchinchisi-istisno” qonuni quyidagi holatlarda qo'llanadi:**

**1. Alohida olingan yakka buyumga nisbatan bir xil vaqt va munosabat doirasida o'zaro zid fikr bildirilganda.** Masalan:

Toshkent – O'zbekistonning poytaxti.

Toshkent – O'zbekistonning poytaxti emas.

Bu mulohazalar birgalikda chin ham, xato ham bo'la olmaydi. Ulardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchi mulohazaga o'rin yo'q. “Uchinchisi-istisno” qonuni o'zaro zid umumiy mulohazalar doirasida amal qilmaydi. Chunki umumiy mulohazalarda buyumlar sinfiga va shu sinfga mansub har bir buyumga nisbatan fikr bildiriladi.

Masalan:

Hamma faylasuflar notiqdir.

Hech bir faylasuf notiq emas.

Bu mulohazalardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi haqida xulosa chiqarib bo'lmaydi. Bunday holatda «Ba'zi faylasuflar notiqdir» degan uchinchi bir mulohaza chin hisoblanadi.

**2. Son va sifatiga ko'ra o'zaro zid mulohazalar bayon qilinganda,** buyum va hodisalarning sinfi haqida tasdiqlab bayon qilingan mulohaza bilan, shu sinf buyum va hodisalarining bir qismi haqida inkor etib bayon qilingan mulohazalardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchisiga o'rin bo'lmaydi.

Masalan:

Hamma faylasuflar tabiatshunosdir.

Ba'zi faylasuflar tabiatshunos emas.

Bu ikki mulohaza bir vaqtda chin ham, xato ham bo'la olmaydi. Ulardan biri (Ba'zi faylasuflar tabiatshunos emas) albatta chin, ikkinchisi xato, uchinchi mulohazaga o'rin yo'q.

**Demak, Uchinchisi istisno qonuni:**

**1. Ikki zid yakka mulohazalarga nisbatan.**

**2. Umumiy tasdiq va juz'iy inkor etuvchi mulohazalarga nisbatan.**

**3. Umumiy inkor va juz'iy tasdiq mazmunidagi mulohazalarga nisbatan qo'llanadi.**

“Uchinchisi-istisno” qonunining amal qilishi uchun olingan zid munosabatlarni ifodalovchi mulohazalardan biri tasdiq, ikkinchisi inkor mazmunida bo'lishi yoki tushunchalardan biri ijobiy va boshqasi salbiy bo'lishi shart emas. Olingan ikki tushuncha yoki mulohaza bir-birini hajm jihatdan to'liq inkor etishi kifoya. Masalan, “erkak” va “ayol” tushunchalarining har ikkisi ijobiy bo'lib, “inson” tushunchasining to'liq mazmunini qamrab oluvchi zid belgilarni ifodalaydi.

“Uchinchisi-istisno” qonunida ham, nozidlik qonunidagi kabi vaqt, munosabat, ob'ekt aynanligiga rioya etish shart, aks holda bu qonun o'z kuchini yo'qotadi, fikrning izchilligiga zarar yetadi va mantiqsizlikka yo'l qo'yiladi.

“Uchinchisi-istisno” qonuni, boshqa mantiqiy qonunlar singari, ziddiyatli mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlab berolmaydi. Buning uchun voqea va hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinadi. Inson o‘z bilimlariga asoslangan holda o‘zaro zid mulohazalardan qaysi biri chin yoki xato ekanligini aniqlaydi. Bu qonun o‘zaro zid mulohazalar bir vaqtda chin bo‘lmasligini tasdiqlaydi.

“Uchinchisi-istisno” qonunini bilish, muhokama yuritishda to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun muhim bo‘lib, o‘zaro zid qarashlarni aralashtirib yuborishga yo‘l qo‘ymaydi.

### **5. Yetarli asos qonuni**

To‘g‘ri fikrlashga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri asoslilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo‘lmasligi uchun uni asoslash, isbotlashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma‘lum bo‘lgan va o‘zaro mantiqiy bog‘langan mulohazalarga asoslaniladi, ya‘ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma‘lum bo‘lgan, chinligi tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati yetarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Inson tafakkuriga xos bo‘lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnis ta‘riflab bergan. Uning ta‘kidlashicha, barcha mavjud narsalar o‘zining mavjudligi uchun yetarli asosga ega. **Har bir buyum va hodisaning real asosi bo‘lgani kabi, ularning in‘ikosi bo‘lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo‘lishi kerak.** Yetarli asos qonunining bu talabi quyidagi formula orqali ifodalanadi: «Agar V mavjud bo‘lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud».

Yetarli asos qonunida to‘g‘ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog‘lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko‘rib o‘tilgan qonunlar bilan o‘zaro bog‘liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar **mantiqiy asos**, berilgan mulohazaning o‘zi esa **mantiqiy natija** deb yuritiladi.

Mantiqiy asos bilan ob‘ektiv, real asosni aralashtirib yuborish mumkin emas. Asos va natija orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni sabab va oqibat aloqadorligidan farqlash zarur. Masalan, «Bu kishi bemor», degan mulohazani «U shifoxonada davolanyapti», degan fikr bilan asoslash mumkin. Aslida shifoxonada davolanish dastlabki mulohazaning sababi emas, balki oqibatidir. Ko‘rinib turibdiki, mantiqiy asos hamma vaqt ham hodisaning sababi bilan mos kelmaydi. Fikrlarning yetarli asosga ega bo‘lishining ob‘ektiv manbai faqat sabab-oqibat munosabatiningina emas, shuningdek, fikrning izchilligi, asoslanganligini, isbotlangan bo‘lish xususiyatlarini ham, ya‘ni ob‘ektiv mazmuni sabab-oqibat munosabatlardan tashqarida bo‘lgan boshqa munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo‘lib, unda ikki yoki undan ortiq o‘zaro bog‘langan muhokamalar tizimidan foydalaniladi. Keng ma‘noda biror mulohazani asoslash deganda, shu mulohazaning chinligini tasdiqlovchi ishonchli va yetarli dalillarning mavjudligini aniqlash tushuniladi. Bu

ishonchli va yetarli dalillarni shartli ravishda ikki guruhga: empirik va nazariy asoslarga bo'lish mumkin. Bulardan birinchisi asosan hissiy bilish, tajribaga asoslansa, ikkinchisi aqliy bilish, tafakkurga tayanadi. Empirik va nazariy bilimlarning chegarasi nisbiy bo'lgani kabi, empirik va nazariy asoslar o'rtasidagi farq ham nisbiydir.

Insonning shaxsiy tajribasi makon va zamonda chegaralangan bo'lib, sezgilari bergan ma'lumot esa hamma vaqt ham to'g'ri bo'lmaydi. Shunga qaramasdan, mulohazalarni empirik asoslashning ahamiyati katta, chunki bilish jonli hissiy mushohadadan - bevosita kuzatishdan boshlanadi. Hissiy tajriba insonni tashqi olam bilan bog'lab turadi. Nazariy bilim esa empirik bazisning ustqurmasi hisoblanadi.

Umumiy-chin mulohazalar sifatida fanlarning qonun-qoidalari, tushunchalar ta'rifi, shuningdek, aksiomalardan foydalaniladi. Bularning barchasi nazariy asoslashning ratsional yoki demonstrativ usullari bo'lib, ular umumilmiy ahamiyatga ega bo'lgan isbotlash metodlarining asosini tashkil etadi. Shuningdek, asoslashning sub'ektiv xarakterda bo'lgan va bevosita tajriba natijalariga yoki nazariy fikr yuritishga taalluqli bo'lmagan usullari mavjud. Intuitsiya, e'tiqod, avtoritet va urf-odatlariga asoslanish shunday usullar jumlasiga kiradi. Bu usullardan ko'proq kundalik ong darajasida foydalaniladi. **Intuitsiya** hech qanday muhokama va isbotlarsiz to'g'ridan-to'g'ri haqiqatga erishish qobiliyatini ifodalaydi. "Intuitsiya" so'zi – lotincha "intuitio" so'zidan olingan bo'lib, «diqqat bilan tikilib qarayman», degan ma'noni bildiradi. Intuitsiya bilish jarayonida sezilarli ahamiyatga ega bo'lib, hissiy va aqliy bilishdan o'zgacha bir ko'rinishni tashkil etmaydi; o'ziga xos fikr yuritish, tafakkur qilish usulini ifodalaydi. Intuitsiya orqali inson murakkab hodisalarning mohiyatini, uning turli qismlariga e'tibor bermagan holda, fikran yaxlit qamrab, tushunib oladi. Bunda tafakkur jarayonining alohida qismlari u yoki bu darajada anglanmaydi va asosan fikr yuritish natijasi – haqiqatgina anglangan holda aniq, ravshan qayd etiladi. Intuitsiya haqiqatni aniqlashda yetarli asos hisoblansa-da, lekin bu haqiqatga boshqalarni ishontirish uchun yetarli hisoblanmaydi.

**E'tiqod** – kishining ishonchini qozongan va shuning uchun ham uning faoliyatida xatti-harakatlarini belgilab beradigan, uning dasturi bo'lib xizmat qiladigan qarashlar majmuasidan iborat. E'tiqod chinligi isbotlangan mulohazalarga yoki tanqidiy tahlil qilib ko'rilmagan, chinligi noma'lum boshlang'ich bilimlarga asoslangan bo'lishi mumkin. Intuitsiya kabi e'tiqod ham sub'ektiv xarakterda bo'lib, davr o'tishi bilan o'zgarib turadi. Albatta, e'tiqod haqida fikr yuritganda ko'r-ko'rona e'tiqod bilan tarixiy va hayotiy tajriba natijasi bo'lgan, bilimga asoslangan e'tiqodni farqlash zarur. Faqat ilmiy bilimga asoslangan e'tiqodgina fikr va mulohazalarning chinligini aniqlashda yetarli asos bo'ladi. Shuning uchun ham ular inson qalbida mustahkam o'rinish qoladi. Prezidentimiz I.A. Karimov: «Milliy mafkura – bu xalqning, millatning o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan o'lmas e'tiqodidir<sup>37</sup>», - deganda aynan shuni nazarda tutgan edi.

---

<sup>37</sup> Каримов И.А. Миллий истиқлол мафқураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир: FIDOKOR газетаси мухбири саволларига жавоблар.-Т.: Ўзбекистон. 2000, 30-б.

**Avtoritet** (autoritas – hokimiyat, ta’sir) – keng ma’noda ijtimoiy hayotning turli sohalarida biror shaxsning yoki tashkilotning ko‘pchilik tomonidan tan olingan norasmiy ta’siridir. Yetarli asos qonuni bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal qilishda “avtoritet” tushunchasi obro‘li, e’tiborli, nufuzli manba ma’nosida qo‘llanadi. Avtoritetlarga asoslanish deganda esa, biror fikr, mulohazaning chinligini asoslashda obro‘li, e’tiborli, nufuzli manbalarga murojaat qilish tushuniladi. Nufuzli manba sifatida alohida shaxslarning fikr va mulohazalari, muqaddas diniy kitoblardagi bitiklar, xususan, “Qur’on”da yozilgan sura va oyatlar, xalq maqollari va hikmatli so‘zlardan foydalaniladi.

Avtoritetlarning amal qilish doirasi va davomiyligi turli xil bo‘ladi. Vaqt o‘tishi yoki amal qilish doirasining o‘zgarishi avtoritetlarning mavqeini tushirib yuborishi mumkin.

Keng doirada amal qiladigan va doimiy, muntazam bo‘lgan avtoritetlarga fikr-mulohazalarning chinligini aniqlash uchun yetarli asos bo‘ladi. Bunday avtoritetlar tarixiy sharoit va siyosiy o‘zgarishlarning ta’sirida o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmaydi, vaqt sinoviga bardoshli bo‘ladi. Umuminsoniy ma’naviy madaniyat xazinasidan joy olgan buyuk mutafakkirlarning hikmatli so‘zlari, umuminsoniy-axloqiy qadriyatlar, xalqlarning ijtimoiy-tarixiy tajribasini aks ettirgan maqollar fikr-mulohazalarning chinligini asoslashda yetarli dalil hisoblanadi.

Avtoritetlarga asoslanish bilan **avtoritar tafakkurni** o‘zaro farqlash zarur. Avtoritarlik – asoslanganlikning o‘zgargan, buzilgan ko‘rinishi bo‘lib, unda mulohaza yuritish va uning chinligini aniqlash vazifasi avtoritetlar zimmasiga yuklanadi.

Avtoritar tafakkurlashga moyil kishi biror muammoni o‘rganishdan avval o‘zini «asosiy mulohazalar yig‘indisi» bilan cheklab qo‘yadi. Bu mulohazalar yig‘indisi tadqiqotning asosiy yo‘nalishini belgilab beradi va ko‘pincha avvaldan ma’lum bo‘lgan natijani keltirib chiqaradi. Dastlabki asos bo‘lgan fikrlar tizimi namuna sifatida qabul qilinadi va boshqa fikrlar unga bo‘ysundiriladi. Agar asosiy mulohazalarning deyarli barchasi avtoritetlar tomonidan aytilgan bo‘lsa, uning davomchilariga bu fikrlarni tushuntirish va izohlash qoladi, xolos. Bu yangiliklardan va ijodiylikdan mahrum bo‘lgan fikr yuritish usuli bo‘lib, dialektik tafakkurga ziddir. Avtoritetlar, nufuzli manbalar, jamiyat a’zolari, xususan, yoshlarda milliy mafkura va milliy g‘oyani shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Shu o‘rinda matbuotning, ayniqsa, radio va televideniening u yoki bu manbaning avtoritet deb tan olinishidagi roli e’tiborlidir. Bu haqda I. Karimov: «Bizning matbuotimiz, televideniemiz ham tarixga oid maqolalar chop etganda, ko‘rsatuvlar tayyorlaganda bir kishining fikrini yagona haqiqat sifatida qabul qilinishiga yo‘l qo‘ymasligi darkor. Muayyan masalada turli fikrlarni berish, bahs orqali haqiqat oydinlashuviga erishish lozim<sup>38</sup>», deb ta’kidlagan.

Avtoritetlar masalasi murakkab va ko‘p qirralidir. Shu sababdan fikr-mulohazalarning chinligini asoslashda avtoritet hisoblangan fikrlardan konkret sharoitga mos ravishda, me’yorga amal qilgan holda foydalanish zarur.

**Urf-odat** avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tadigan va muayyan jamiyat yoki

---

<sup>38</sup> Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Мулоқот.,1998.5-сон, 15-б.

ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilingan bir xil shakldagi xatti-harakat, xulq-atvor usuli bo‘lib, kishilarning turmush tarzi va fikr yuritishiga ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Urf-odatlariga asoslangan holda fikr yuritish va harakat qilish ko‘pincha kishilarning turmushi, axloqiy me‘yorlar va xalq marosimlari doirasida namoyon bo‘ladi. Milliy g‘oya va milliy mafkura urf-odatlar orqali ham jamiyat a‘zolarining ongiga singib boradi. Jamiyat yoki ijtimoiy guruh tomonidan biror shaxs yoki voqea-hodisaga nisbatan bo‘lgan munosabat muayyan urf-odatlar bilan asoslanadi. Bunda biror xatti-harakatni asoslash uchun «urf-odatlarimizga ko‘ra...», deb fikr yuritiladi.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo‘lib, unda bir yoki undan ortiq o‘zaro bog‘langan muhokamalar sistemasidan foydalaniladi. Mulohazalarning chinligini asoslash tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, fikrlarimizning mantiqli, tartibli, ishonarli bo‘lishini ta‘minlaydi.

Shunday qilib, to‘g‘ri tafakkurning yuqorida ko‘rib o‘tilgan qonunlarining har biri chin bilimga erishish uchun xizmat qiladi. Bu qonunlar tafakkur jarayonida alohida-alohida yoki birin-ketin emas, balki bir vaqtda, birgalikda fikrlar bog‘lanishining xarakteriga qarab amal qiladi. Ayniyat qonuniga ko‘ra, fikrlash jarayonida har bir mulohaza qat‘iy mazmunga ega bo‘lishi, aynan shu fikr doirasida o‘zgarmasligi talab qilinadi. Bu talabning buzilishi fikrda mantiqiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Zid mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlash ularni mantiqiy asoslashni taqozo etadi.

Demak, bu qonunlarning talablari bir-birini to‘ldirgan holda mantiqiy tafakkurning chin bo‘lishini ta‘minlaydi.

### **Yuqoridagi matndan quyida berilgan savollarga javob toping**

#### **SAVOLLAR**

1. Induktiv xulosalashning ilmiy-amaliy ahamiyati. **Tayanch iboralar:** induktiv bilish, induktiv kuzatish, tajriba, eksperiment, natija, yangilik, amaliyot.
2. Induktiv xulosa chiqarishning to‘liq va to‘liqsiz shakllari. **Tayanch iboralar:** induktiv xulosalash tasnifi, to‘liq xulosalash, to‘liqsiz xulosalash, sinf, guruh, tur, induksiya shartlari, statik induksiya, o‘xshatish metodi, tavofut metodi.
3. Aylantirish orqali xulosa chiqarish. **Tayanch iboralar:** aylantirish, almashtirish, qisqartirilgan almashtirish, sof va kengaytirilgan almashtirish.
4. Muammolarni yechish yo‘llari va ularning hayotiy ahamiyati. **Tayanch iboralar:** muammolar mohiyati, muammolar tasnifi, tajriba, amaliyot, kashfiyot, sinash, kuzatish, xulosa, yakun.
5. Predikatga qarama-qarshi qo‘yish. Tayanch iboralar. Qarama-qarshilik, qisman moslik, bo‘ysunish munosabati.
6. To‘liqsiz induksiya va ularning shartlari. **Tayanch iboralar:** induksiya, tasodif, ziddiyatsiz xolatlar, statistik umumlashtirish, ommaviy induksiya, ilmiy induksiya prinsiplari, tanlash, rad qilish prinsiplari, ehtimollikni ifodalanishi.
7. Tafavut metodi va o‘xshatish metodlari. Ularning bog‘lanish shartlari. **Tayanch iboralar:** tafavut, ayniyat, ziddiyat, tafavut xolati, tafavut qoidasi, tafavut metodi sxemalari.

8. Mantiqiy kvadrat va xulosa chiqarish. **Tayanch iboralar:** qarama-qarshi, zidlik, bo‘ysunish, munosabat.
9. Vositali va vositasiz xulosa chiqarish va uning shartlari. **Tayanch iboralar:** xulosa, natija, asos, mantiqiy kvadrat, almashtirish, predikat, aylantirish.
10. Shartli sillogizm va uning turlari. **Tayanch iboralar:** sillogizm, asos, qat’iy, sof, tasdiqlovchi, modus, konstruktiv, destruktiv.
11. Qisqartirilgan qat’iy sillogizmlar. Ularning o‘ziga xosligi. **Tayanch iboralar:** sillogizm-entimema, katta asos, kichik asos, xulosasi qoldirilgan entimemalar.
12. Murakkab sillogizmlar. Ularning ijtimoiy mohiyati. **Tayanch iboralar:** polisillogizm-murakkab sillogizm, progressiv. Regressiv. Epixeyrema, o‘rta termin, soritlar.
13. Xukm terminlari, ularning ta’riflari va mohiyati. **Tayanch iboralar:** hukm, sub’ekt, predikat, bog‘lovchi aniq belgi, yangi belgi, kesim elementlari.
14. Xukm elementlari. Ularning ilmiy ahamiyati. **Tayanch iboralar:** ega, kesim, sub’ekt, predikat, bog‘lovchi.

#### **4-amaliy mashg‘ulot. Dalillarga tayangan holda fikr yuritish-ilmiy bilishning mantiqiy asosi. Mantiqiy paradoks.**

##### **REJA:**

1. *Dalillashtirish va ishonch-e’tiqodning shakllanish jarayoni*
2. *Isbotlash, uning tarkibi va turlari.*
3. **RADDIYA. RAD ETISH USULLARI.**

Mantiqiy paradoks. Ilmiy muammo tushunchasi. Mantiqiy tahlil va uning strukturasi. Mantiqiy bog‘liqlik.

#### **Dalillashtirish va ishonch-e’tiqodning shakllanish jarayoni**

Mantiq fani to‘g‘ri fikr yuritish qonun-qoidalari, shakllari bilan birgalikda fikrning asoslanilgan bo‘lishligi masalasi bilan ham shug‘ullanadi. Shunga ko‘ra mantiq fanida fikrning asoslanilishi, dalillash maxsus mavzui hisoblaniladi.

**Dalillash to‘g‘ri fikr yuritish va shu orqali chin bilim, haqiqatga erishishning muhim qonuniyatidir.** Oddiy muhokama yuritishdan tortib ilmiy - nazariy bilimlarga erishish mana shu qonuniyat, tamoyillarga rioya qilishni talab etadi. Dalillash quyidagi bir-biri bilan bog‘liq vazifalarni bajaradi:

- 1) fikrning xato va chinligini asoslash ;
- 2) haqiqatga erishish;
- 3) e’tiqodni shakllantirish;
- 4) kishilarning ijtimoiy faolligini oshirish.

Dalillash chin bilimlarga erishish, ilmiy nazariyalarni shakllantirishning usuli bo‘lish bilan birgalikda muayyan qarash, g‘oyalarni kishilar e’tiqodi, faoliyatlari motiviga aylantirishning muhim vositasi bo‘lib hisoblanadi. Shunga ko‘ra dalillash jarayonida ijtimoiy, psixologik lingivistik omillar muhim rol o‘ynaydi.

Dalillashda tafakkurning qonun-qoidalari va shakllarining tamoyillari o‘zaro

birlikda qo'llaniladi va bu asosan fikrning chin yoki xatoligini asoslashga qaratilgan bo'ladi.

**Dalillash deb muhokama, ilmiy taxmin, qarashlarni bevosita va vositali asoslovchi mantiqiy usulga aytiladi.**

Dalillash yangi nazariy bilimlarning hosil qilinishi hamda kishilarda iymon-e'tiqod, dunyoqarashning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Darhaqiqat, har qanday ilmiy nazariyalar asoslanilgan bilimlar tizimidir. Shuningdek, hech bir e'tiqod, dunyoqarash yo'qki, u dalillashni taqozo etmagan bo'lsin.

Ma'lumki, har qanday nazariy bilimlar tizimi- fanlar tekshirilayotgan narsa, hodisaning sababini aniqlash orqali yuzaga keladi. Abu Nasr Forobiy o'zining «Ixso al-ulum» ( «Ilmlarning kelib chiqishi») nomli risolasida har bir fan sohasi, ilmiy bilimlar olamdagi substansiya (javhar) va (oraz) sabablarini dalillash ehtiyoji yuzaga kelgandan keyin shakllanishligini ta'kidlaydi.<sup>39</sup>

Dalillash, ayniqsa, kishilarda iymon-e'tiqod, dunyoqarashini shakllantirishda belgilovchi rol o'ynaydi. E'tiqod -bu kishilarning u yoki bu g'oya, qarashlar haqidagi tasavvurlari, faoliyatlarining ichki motiviga, tuyg'usiga aylangan, botinlashgan bilimlaridir. .

E'tiqod kishilarning or-nomusi, iymoni bilan bog'liqdir. Shuning uchun ko'plab kishilar o'z e'tiqodlari yo'lida qurbon bo'lishni sharaf deb biladilar. E'tiqod asosini tashkil etuvchi qarash, g'oyalar shunchalik chin va xatolik mezoni bilan o'lchanmaydi, chunki ular kishilar uchun qadriyatli ahamiyatga molik bo'ladi. Shunga ko'ra ular kishilar tomonidan hissiy bilish xamda ongi, tafakkuri o'z-o'ziga qaratilishi darajasida idrok etiladi. E'tiqod har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi. Shunga ko'ra u diniy, falsafiy va nazariy e'tiqodlarga ajraladi. Lekin e'tiqod qanday shakl, ko'rinishda bo'lmasin, uning shakllanishi bevosita mantiqiy omil bilan shartlangan bo'ladi.

Kommunistik mafkura homiylari uzoq yillar mobaynida diniy e'tiqodga qarshi kurash olib bordilar va bunda unga fan, ilmni qarshi qo'ydilar. Aniqrog'i, fandan xudoning yo'qligini asoslovchi vosita sifatida foydalanishga urinadilar.

Lekin kishilik tarixida fan dinga zid bo'lmagan, balki o'zaro dialektik birlikda rivojlangan, shakllangan.

Germaniyalik olim Dinard insoniyat madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan 290 nafar olimning fikrini o'rganib chiqib, quyidagini aniqlagan: 290 kishidan 20 kishi hech bir aniq e'tiqodga erishmagan, 242 kishi xudoga ishonuvchi, faqat ularning 20 tasi din bilan qiziqmaganlar.

Hozirgi zamon fani mikro va makroolam sarhadiga qanchalik chuqur kirib borar ekan, uning mo'jizalariga yanada ko'proq duch kelmokda. Ba'zi ilm ahllari bunday mo'jizalar oldida lol qolganlari holda, o'zlarining e'tiqodlarini ham o'zgartiradilar-dahriylikdan qaytib Xudoning barahaqligiga iymon keltiradilar. Bu o'rinda insoniyat tarixida birinchi bo'lib Oy sathiga qadam qo'ygan amerikalik astronavt Neyl Armstrangning nasroniylikdan kechib musulmonlikni qabul qilganini ko'rsatish xarakterlidir. (Bu haqida batafsil qarang; "Ilohiy mo'jizalar".

<sup>39</sup> Қаранг: «Форобий Абу Наср..Илмларнинг келиб чиқиши тўғрисида. //Фозил одамлар шаҳри.Тошкент, Абдулла Қодирий номли халқ мероси нашриёти. 1993, 175-бет.



Toshkent, "Cho'lpon", 1995, 26 -bet.)

Kishilarimizda, xususan, yoshlarda milliy g'oyani imon-e'tiqod darajasida shakllantirish talab etiladiki, bu murakkab vazifaning bajarilishida dalillash mantiqiy usuli eng muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda milliy g'oya, mafkurani har bir jamiyat a'zosining qalbi va ongiga singdirish, dunyoqarashiga aylantirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

I.A Karimov «Turkiston» gazetasining muxbiri savollariga bergan javobida mafkura, ma'naviyatning mohiyatini izohlab berar ekan, bunda eng muhimi mustaqillik g'oyasini kishilar ongi va qalbiga singdirish ekanligini alohida ta'kidlaydi. Zotan, deb ko'rsatadi Prezidentimiz, mustaqillik g'oyasi asosida imon-e'tiqodli, mustaqil fikrlovchi, fidokor komil inson ma'naviyatini shakllantirish muammosi yotadi.<sup>40</sup>

Mazkur vazifa barcha ijtimoiy institutlar, davlat va nodavlat tashkilotlari, o'rta va oliy maktab va boshqa tizimlar faoliyatining o'zaro hamkorligida amalga oshiriladiki, bunda dalillash tamoyiliga asoslanish talab etiladi. Chunki har qanday g'oya, qarashlarning chin, haqiqatligi dalillab berilgandagina ular kishilarning ishonch, e'tiqodiga, faoliyatining motivi, maqsadiga aylanadilar.

Isbotlash va rad etish dalillashning mantiqiy asosini tashkil etadi. Bunda faqat mantiqiy jihat hisobga olingani holda dalillashning boshqa (ijtimoiy, psixologik, lingvistik) omillari fikran soqit qilinadi. Shuning uchun u yoki bu qarash, g'oyalar, garchi mantiqan asoslanib berilsa-da, kishilarning e'tiqodlariga aylanmasligi mumkin va, aksincha, mantiqan asoslanmagan bilimlar kishilar amaliy faoliyatlari uchun dasturilamal sifatida amal qilish mumkin.

## **2§. Isbotlash, uning tarkibi va turlari.**

**Isbotlash** deb berilgan hukmning chinligi boshqa chin hukmlar yordamida asoslanuvchi mantiqiy usulga aytiladi. Bunda berilgan hukmning chinligi keltirilgan dalil- hukmlarning chinligidan mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbot uch tarkibiy elementdan tashkil topgan bo'ladi: **tezis, asoslar(argumentlar), namoyish etish** -isbotlash usuli.

**Tezis** (grekcha thesis- qoida, fikr) -bu chinligi asoslanishi talab etiladigan muhokamadir. Tezis sifatida nazariy va amaliy ahamiyatga molik muammoviy hukmlar olinadi. Bunday ahamiyatga ega bo'lmagan, shuningdek, aksiomatik tarzdagi muhokamalarni isbotlashning keragi bo'lmaydi. Masalan: "Baliq suvda yashaydi", «Amudaryo-Markaziy Osiyodagi daryo» hukmlarini tezis sifatida qabul qilib bo'lmaydi. Agar ularni "Okun balig'i chuchuk suvda yashaydi», «Amudaryoning suvi yil sayin kamayib bormoqda» hukmlariga aylantirsak, ular tezis maqomatini oladi.

Tezis isbot etishning bosh elementi hisoblanadi, chunki isbotlashning so'nggi maqsadi- berilgan tezisning chinligini asoslashga qaratilgan bo'ladi. Tezisni aniq

---

<sup>40</sup>Қаранг: «Туркистон» газетаси, 1999, 2-феврал, 1-бет.

ifodalash, ilgari surish, va uni asoslay bilish mantiqiy fikr yuritishning muhim sharti hisoblanadi. Muhokama yuritishdagi noaniqlik, mavhumlik, ziddiyatlik ko'pgina hollarda ana shu shartning buzilishi natijasi o'laroq sodir bo'ladi. Ifodalanyotgan fikr mazmuni va muhokama tizimida tutgan mavqeiga ko'ra tezis bosh va ikkinchi darajali bo'ladi.

Bosh tezis — bu muhokama tizimidagi isbot etilishi talab etiladigan asosiy fikr bo'lib, uning mazmuni ikkinchi darajali tezislarning asoslanishi orqali ochiladi. Ikkinchi darajali tezis deb bosh tezisga bo'ysunuvchi va chinligi mustaqil tarzda asoslanishi talab etadigan muhokamaga aytiladi. Ikkinchi darajali tezislar muayyan, konsepsiya, nuqtai-nazarlarning asoslanishida ilgari suriladi. Va bunda ular bosh tezisni asoslash uchun xizmat qiladi. Misol tariqasida I.Karimovning 25 iyul 1996 yil Vazirlar mahkamasida so'zlagan nutqini olib qaraylik. Mazkur nutqda ilgari surilgan bosh tezis: "O'zbekiston Respublikasida tub burilish yuz berdi va uning iqtisodiyotida jadal o'sish davri boshlandi" quyidagi ikkinchi darajali tezislarning asoslanishi orqali isbot etiladi.

1. Iqtisodiyotimizni muvaffaqiyatli isloh etishning eng muhim natijasi bo'lmish mustahkam makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi.

2. Milliy valyutamiz, so'mimiz mustahkamlandi.

3. Xususiylashtirish jarayoni chuqurlashdi va kengaydi.

4. Mo'ljallangan investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi.<sup>41</sup>

Muhokama yuritishda bosh tezisni belgilash va undan ikkinchi darajali tezislarni keltirib chiqarish isbot etish jarayonining zaruriy shartidir.

**Dalil** (lotincha *argumentum*) mantiqiy asos- tezisning chinligini asoslovchi muhokamalardir. Dalilda tezisda ifodalanyottan natija, oqibatning mantiqiy asosi ko'rsatiladi. Masalan: "Aristotel-dualist faylasuf" (tezis), "Chunki u moddiy va ruhiy substansiya (javhalarni) teng ahamiyatga ega bo'lgan ibtidolar deb hisoblaydi". (argument).

Isbotlashda argument vazifasini amaliyotda aniqlangan bilimlar o'taydi. Shunga ko'ra faktlar, tariflar, qoidalar, aksioma, postulatlar, ilmiy nazariyalar argumentlar sifatida keltiriladi.

Faktlar-bu chinligiga hech qanday shak-shubha bo'lmagan bilimlardir. Rus fiziologi P.P.Pavlov faktlarning ilmiy bilishdagi roli haqida shunday deb yozgan: "Faktlar olim uchun havodir. Usiz parvoz qilish mumkin emas". Faktlar ashyoviy, raqamli (statistik ma'lumotlar) va boshqa shakllarda bo'ladi.

Faktlar inkor etishda ham muhim dalil hisoblanadi. Isbotda berilgan tezisning chinligi ko'pincha inkor - rad orqali ko'rsatiladiki, bunda asosan faktlarga murojat etiladi. Bu haqida keyinroq to'xtalamiz.

Isbot etish o'z mohiyatiga ko'ra muhokamalardan yangi muhokamalarga mantiqan o'tish hisoblanadiki, bunda ularning ta'rif-qoidalar tarzidagi hukmlar bo'lishligi talab etiladi. Masalan: "Vertikal burchaklar teng" degan teorema (tezisni) isbotlashda birinchi galda "Vertikal burchak" tushunchasining ta'rifiga: "Agar ikki

---

<sup>41</sup>Қаранг: "Халқ сўзи" газетаси, 26 июль, 1996 йил, 1-бет.

burchakdan birining tomonlari ikkinchi tomonlarining to'ldiruvchi yarim to'g'ri chiziqlari bilan bo'lsa, bu ikki burchak vertikal burchak deyiladi"ga tayaniladi.

**Aksioma** (grekcha axioma-shuhbasiz), **postulat** (lotincha postulatium -talab darajasi) o'zgarmas haqiqat darajasidagi bilimlardir. Shuning uchun ulardan isbot etishda asosiy dalillar sifatida qo'llaniladi. Aksioma, postulatlar amaliyotda qayta-qayta sinab ko'rilgan, umumiy qoida sifatida qabul qilingan bilimlardir. Har bir fan o'z aksioma, postulatlariga ega bo'lib, (masalan, matematikada aksiomalar vazifasini chinligi isbotlangan formulalar, geometriyada teoremlar o'taydi) ular vositasida yana yangi formula va teoremlar hosil qilinadi.

Ijtimoiy fanlar sohasida kishilik tarixi taraqqiyotining barcha etaplarida sinalgan va umumiy qonuniyat maqomatini olgan tamoyillar aksiomalar sifatida qabul qilinadi. Masalan: "Bozor iqqisodi-jamiyat tarakqiyotining bosh omili", degan tamoyil aksiomatik xarakteriga ega bo'lib, u bugungi kunda sobiq sotsialistik mamlakatlar o'zlarining taraqqiyotini mazkur tamoyil asosida amalga oshirmoqdalar.

**Isbotlash usuli – demonstratsiya** tezis bilan argumentlar o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo'ladi, ya'ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bivosita isbotlash. **Bevosita isbotlashda** tezisning chinligi to'g'ridan-to'g'ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo'lgan hukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko'p hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma'lum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan, «O'zbekiston – mustaqil davlatdir», degan hukm (tezis)ning chinligi «O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

**Bavosita isbotlashda** esa tezisning chinligi unga zid bo'lgan hukmning (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo'lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi.

**Apagogik isbotlash** tezis (a) va antitezis ( $\bar{a}$ ) o'rtasidagi munosabatga asoslanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan hukmning chinligini asoslash uchun unga zid bo'lgan «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm olinadi.

Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma'lum bir natija keltirib chiqariladi (2-bosqich), so'ngra bu natijalarning xatoligi ko'rsatiladi (3-bosqich) va demak, tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm chin bo'lsa, «Moddiy predmetlar strukturatsiz mavjud», degan fikr (antitezisdan kelib chiqqan natija) ham chin bo'ladi. Bizga ma'lumki, moddiy predmetlar tarkibsiz (uni tashkil qiluvchi elementlar va ularning o'zaro aloqasiz) mavjud emas. Demak, «Materiya harakatsiz mavjud», degan fikr xato, shu tariqa «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan fikrning chinligi asoslanadi.

**Ayiruvchi isbotlashda** tezis sof ayiruvchi hukmning (kuchli diz'yunksiyaning) bir a'zosi bo'lib, uning chinligi boshqa a'zolarining

(antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Masalan, «Jinoyatni yo A, yo V, yo S shaxslar sodir etgan», degan fikr tekshirilib, «Jinoyatni V shaxs ham, S shaxs ham sodir etmagan»ligi aniqlanadi va shu tariqa «Jinoyatni A shaxs sodir qilgan», degan hukmning chinligi asoslanadi. Bu misolda ayiruvchi isbotlash ayiruvchi – qat'iy sillogizmni inkor etib, tasdiqlovchi modusi bo'yicha qurilgan. Ayiruvchi isbotlashda barcha muqobil variantlar to'liq olingandagina xulosa chin bo'ladi, ya'ni tezis isbotlanadi.

### **3. Raddiya. Rad etish usullari.**

**Raddiya** – isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amal.

Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid bo'lgan fikrning xatoligini ko'rsatishdan iborat bo'lganligi uchun raddiyani isbotlashning xususiy ko'rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (rad qilinishi lozim bo'lgan hukm), argumentlar (tezisni rad qiluvchi hukmlar) va demonstratsiya (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo'ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish, ya'ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri ma'lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilinmagan, munozarali masalalar bo'yicha olib boriladigan bahslar **polemika** hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

- I Tezisni rad etish
- II Argumentlarni rad etish
- III Demonstratsiyani rad etish.

#### **I. Tezisni rad etish.**

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

1. Faktlar orqali rad etish. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo'lib o'tgan voqealar, statistik ma'lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, «Sovet davrida O'zbekiston to'laqonli mustaqil respublika bo'lgan», degan tezisni rad etish, ya'ni uning noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun tarixiy faktlarga asoslanamiz. O'sha davrda respublika rahbariyati birorta muhim masalani Moskvaning ruxsatisiz hal qila olmaganligiga dalillar keltirib, tezisni rad etamiz.

2. Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko'rsatish orqali rad etish. Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul «bema'nilikka olib kelish», deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto'g'ri ekanligi isbotlanadi. Chin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks holda bu bema'nilik bo'ladi. «Bema'nilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha  $(a \rightarrow b) \rightarrow ((a \rightarrow b) \rightarrow a)$

3. Tezisni antitezisni isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo'lgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno qonuniga muvofiq, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi. Masalan, Prezidentimiz I.A. Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli maqolasida «Amir Temur buyuk sarkarda bo'lgan va yovuzliklar qilgan», degan tezisni shunday rad etadi: «Inson bir paytning o'zida ham bunyodkor, ham yovuz bo'lishi mumkin emas. Ne-ne madrasayu masjidlar, oliy koshonalarni qurgan, ne-ne olimu

fuzalolarning boshini silagan, Qur'oni karimni yod bilgan inson yovuz bo'lmaydi. Qonxo'r odam «Kuch – adolatda», deyishi mumkinmi?»

## **II. Argumentlarni rad etish.**

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun yetarli emasligi aniqlanadi.

Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bo'lishi ham mumkin:

Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmaganligi asoslab beriladi.

## **III. Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish.**

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezisning chinligi uni asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo'l qo'yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi.

Rad etishning yuqorida ko'rsatilgan usullari ko'pincha birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda qo'llanadi.

## **4. Isbotlash va rad etish qoidalari, ular buzilganda kelib chiquvchi mantiqiy xatolar**

### **Tezisga aloqador qoidalar:**

1. Tezis mantiqan aniq va ravshan bo'lishi kerak. Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o'zining aniq predmetiga ega bo'lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish behuda ish hisoblanadi.

2. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida boshidan oxirigacha o'zgarmasligi kerak. Bu qoida buzilsa, «tezisni almashtirish» degan xato kelib chiqadi.

### **Argumentlarga nisbatan qoidalar:**

1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin hukmlar bo'lishi va bir-biriga zid bo'lmasligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun yetarli bo'lishi kerak.

3. Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan hukmlar bo'lishi lozim.

### **Isbotlash usulining qoidasi:**

1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chiqadigan xulosa bo'lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilish zarur.

Isbotlash va rad etish qoidalarining buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi va ular uch turga bo'linadi:

### **I. Isbotlanayotgan tezisga aloqador xatoliklar:**

1. Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o'zgarmasligi shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab bo'ladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshqa tezis bilan almashtiriladi va bunda yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining torayishi yoki kengayishi ham bahs jarayonida tezisning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g'oyaning ahamiyati to'g'risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo'qmi, degan masalani isbot etishga harakat qilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va

tezis almashinadi.

2. Insonning shaxsiy sifatini bahona qilib tezisni almashtirish. Bahs jarayonida mavzudan chetga chiqib, opponnentning shaxsiy, ijtimoiy hayoti, yaxshi fazilatlarini yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan, deb ta'kidlash tezisning almashinishiga sabab bo'ladi. Bunday xatoga ataylab yo'l qo'yiladi. Tinglovchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb qabul qilinishiga urinish ham tezisni almashtirish hisoblanadi.

3. Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o'rniga undan kuchliroq tezisni isbotlashga harakat qilinadi. Agar A hodisadan V kelib chiqsa, lekin V hodisadan A kelib chiqmasa, unda A hodisani ifodalovchi tezis V hodisani ifodalovchi tezisdan kuchliroq bo'ladi. Masalan, «A shaxs birinchi bo'lib janjalni boshlamagan» degan tezis (V) o'rniga, «A shaxs umuman janjal bo'lgan yerda yo'q edi» degan tezisni (A) isbotlashga harakat qilinadi. Ikkinchi tezisni isbotlab bo'lmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko'rgan guvohlar bor.

## **II. Argument (asos)larga taalluqli xatolar:**

1. Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, qadimgi grek faylasufi Fales o'z ta'limotini hamma narsa suvdan paydo bo'lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

2. Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos.

3. «Aylanma isbot etish» deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orqali isbotlansa mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, «So'zning qudrati fikr bilan o'lchanadi», degan tezisni «Fikrning qudrati so'z bilan o'lchanadi», deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo'l qo'yiladi.

## **III. Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog'liq xatolar.**

1. «Yolg'on (soxta) isbotlash». Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Bunda tezisga aloqador bo'lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, «A shaxs yomon odam», degan tezis «Tunda yomon odamlargina ko'chada yuradi», «A shaxs ko'chada tunda yuribdi» degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan bo'ladi.

2. Shartlangan fikrdan shartlanmagan fikrga o'tish. Muayyan vaqt, munosabat doirasida chin bo'lgan (shartlangan) fikrni, doimiy, o'zgarmas chin fikr deb qabul qilish natijasida mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi.

3. Xulosa chiqarish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan xatolar:

a) deduktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bu haqda deduktiv xulosa chiqarish mavzusida batafsil ma'lumot berilgan;

b) induktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «shoshib umumlashtirish» va «undan keyin, demak, shuning uchun», deb ataluvchi xatoliklardir. Masalan, bir-ikki talabani darsga mas'uliyatsizlik bilan

munosabatda bo'lishini umumlashtirib, «hamma talabalar mas'uliyatsiz», deb ta'kidlash xatodir;

v) analogiyada uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «yolg'on analogiya» bilan bog'liq xatolardir. Unda tasodifiy belgining zaruriy deb olinishi, faqat birgina o'xshash belgiga asoslanishi yoki mutlaqo taqqoslab bo'lmaydigan hodisalarning o'zaro taqqoslanishi natijasida fikrda chalkashliklar yuzaga keladi.

Mantiqiy xatolar tafakkur qonunlarini buzish, xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Mantiq tarixida isbotlash jarayonida ataylab (qasddan) xatoga yo'l qo'yuvchilar – **sofistlar**, ularning ta'limoti esa **sofizm** (grek. – ayyorlik) deb ataladi. Fikr yuritish jarayonida bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yilsa, **paralogizm** deyiladi. Chinligini ham, xatoligini ham birday isbotlash mumkin bo'lgan fikrlar esa **paradoks** deb ataladi.

**Dalillarga doir koidalar** etarli asos qonunining talablari bilan belgilanadi. Bu shu bilan izohlanadki, isbot va rad etish bu berilgan muhokamaning chin yoki xatoligini asoslashdir.

1. Dalillarchinligi amaliyotda aniqlangan bilimlar bo'lishi zarur. Xato dalillar bilan tezisni isbot va rad etib bo'lmaydi. Mazkur qoidaning buzilishi ikkita mantiqiy xatolikka olib keladi: "asosiy yanglishish" va "asosni oldindan payqash".

"Asosiy yanglishish" (lot: yeggog tundamentaeis) xatoligining mohiyati shundaki, keltiriladigan dalillar xato, noto'g'ri bo'ladi. Masalan, Klavdiy Ptolomey (eramizgacha 90-160 yillar) dunyoning tuzilishi haqidagi qarashlarini "Quyosh Yer atrofida aylanadi", "Yer harakatsizdir", degan dalillar bilan asoslaydi.

"Asosni oldindan payqash" (lotincha petitio principii) shunday mantiqiy xatolikka, unda ayrim taniqli, nomdor shaxslarning (avtoritetlarning) fikrlari, hali to'lasincha tasdiqlanmagan faktlar, kishilar orasida yurgan mish-mish gaplar dalillar sifatida keliriladi.

2. Dalillar tezisni yetarli darajada asoslay olmog'i zarur. Mazkur qoidaning buzilishi "kelib chiqmaydi", degan (lot. pop seguiur) degan mantiqiy xatolikka olib keladi. Bunda keltiriladigan dalillar muayyan darajadagi chin bilimlar bo'lsa-da, lekin ular tezisni to'liqasoslab beraolmaydi. Masalan: Hozirgi paytda kechayotgan jahon- iqtisodiy inqirozning sabablarini ayrim G'arb mutaxassis, ekspertlari asosan moliya-bank tizimida yo'l qo'yiladigan nuqson, kamchiliklardir, deb asoslashga harakat qilmoqdalar. Lekin mazkur inqirozni keltirib chiqargan boshqa bir qancha omillari borligini Prezidentimiz ko'rsatib beradi.<sup>42</sup>

3. Dalillarning chinligi mustaqil, tezisga bog'liq bo'lmagan holda isbot etiladigai bo'lishi kerak. Ushbu qoidaning buzilishi natijasida "fikrning bir doirada aylanishi" (lot. circulus itjosus) degan mantiqiy xatolik yuzaga keladi. Ushbu xatolikning mohiyati tezisniig dalillardan, dalillarning esa tezisdan keltirib chiqarishligi bilan izohlanadi Masalan, "Feyrebax- materialist" degan tezis "Materializm idealizmga muqobil falsafiy oqim. Feyerbax ana shu oqim vakilidir"

<sup>42</sup> Қаранг: Ислом Каримов. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Т., "Ўзбекистон", 2009, 5-6- бетлар.

tarzida asoslaniladigan bo'lsa, fikrning bir doirada aylanishiga yo'l qo'yilgan bo'ladi.

Materializmning falsafiy oqim sifatidagi tamoyillari ko'rsatilgan paytdagina mazkur tezis mustaqil isbot etilgan bo'ladi.

**Isbotlash usuliga(namoyish etishga) oid qoidalar.** Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, isbotlash usuli dalillarning tezis bilan mantiqiy bog'lanishi usuli bo'lib, mazkur bog'lanish xulosa chiqarish shaklida bo'ladi. Shunga ko'ra xulosa chiqarishning umumiy va xususiy qoidalari namoyish etishga ham oid qoidalar hisoblanadi. Masalan, "Ehtimol" so'zi mustaqil so'zdir", degan tezisni: "Agar so'zlar mustaqil bo'lsa, unda gap bo'lagi bo'lib keladi. "Ehtimol" so'zi gap bo'lagi o'rnida keladi", degan dalillar bo'yicha isbot etib bo'lmaydi. Chunki bunda shartli-qat'iy xulosa chiqarishning "natijani tasdiqlashdan asosni tasdiqlashga o'tish mumkin emas" degan qoidasi buzilgan.

Isbotlash usulida xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik asosan ikki xil mantiqiy xatolikka yo'l qo'yishga olib keladi. 1. Juz'iylikning xususiyatini umumiylikka ko'chirish, ya'ni asoslardan shoshilib xulosa chiqarish. 2. Asosdagi atamalarning kengaytirilishi (lot.: quaternio terminorum).

Birinchi xil xatolik "mantiqiy kvadrat" bo'yicha chiqariladigan xulosa qoidasi, ya'ni bo'ysunuvchi juz'iy hukmlarning chinligidan bo'ysundiruvchi umumiy hukmlarning chinligi keltirib chiqarmaslik kerak, degan qoida buzilganda, shuningdek, to'liqsiz induksiya qo'llanilganda ro'y beradi. Bunga misol qilib Gidlyan va Ivanov degan kimsalarning 80-yillarning oxirlarida Respublikamizdagi ba'zi tumanlardagi paxta tayyorlash davlat rejasini to'ldirish masalasi bilan bog'liq kamchiliklarni aniqlash asosida "o'zbeklar ishi" degan tuhmat bilan xalqimizning nomini qora qilmoqchi bo'lganliklarini keltirish mumkin. Bunda ular ba'zi rahbarlarning bu boradagi aybini butun bir xalqning aybi sifatida ko'rsatishga harakat qilgan edilar.

Namoyish etishdagi ikkinchi xatolikka asoslardagi atamalarning hajman kengaytirilishi yoki toraytirilishi, turli ma'noda qo'llanishi natijasida yo'l qo'yiladi. Masalan, "fan" tushunchasi shu tarzda qo'llanilganda muhokama yuritishda shunday xatolik kelib chiqadi. Bunda muhokama yuritish quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Fan ijtimoiy ong shaklidir. Kosmologiya- fandır. Demak, kosmologiya ijtimoiy ong shaklidir.

2. Fan-ijtimoiy ong shakli. San'at- ijtimoiy ong shakli. Demak, san'ag fandır.

Ushbu muhokama xulosalari xatodir, chunki kosmologiya ijtimoiy hayotga aloqasi bo'lmagan ilm sohasidir. Shuningdek, san'at fandan farq qiladigan ijtimoiy ong shaklidir.

Isbotlash va inkor etish jarayonida u yoki bu mantiqiy xatolikka bilmagan holda va qasddan, anglashilgan tarzda yo'l qo'yiladi.

**Paralogizm.** (yunon. raralogismost- noto'g'ri mulohaza) muhokama yuritishda anglamasdan, bexosdan yo'l qo'yiladigan xatolikdir. Bunday xatolik mantiqiy qonun-qoidalarning buzilishi tufayli ro'y beradi. Xalqimiz avval-azaldan sermulohazalik, teran mushohada yuritishni kishining eng muhim fazilati sifatida baholab kelganlar. "Oldin o'yla, keyin so'yla", "Yetti o'lchab bir kes", "O'ylamay



gapirgan og'rimasdan o'ladi", "Ovsar do'stdan ziyrak dushman afzal" kabi xalq maqollari shu bois yaratilgandir.

**Sofizm** (yunon. sophisa-ayyorlik) mantiqiy hiyla bo'lib, bunda uydurma, yolg'onlar chin, haqiqat tarzida ko'rsatiladi. Bunda sofistlar mantiqning qonun, qoidalari va usullaridan ustakorlik bilan foydalanadilar. Bundan ko'zda tutilgan maqsad- o'z muxoliflarini qasddan mantiqiy xatolikka, ziddiyatli fikr yuritishga-yo'l qo'ydirishdir.

Bu o'rinda qadimgi grek sofistlarining mulohazalaridan ayrim namunalar keltiramiz. "Bu kuchukning bolalari bor, demak, u ota. Ammo bu sening kuchuging, Demak, u sening otang. Sen uni urayotirsan, demak, sen o'z otangni urayotirsan".

"O'g'ri yomon (keraksiz) narsani olishni istamaydi. Yaxshi narsani olish yaxshidir. Demak, o'g'ri yaxshilik istaydi." va hakozi.

Sofizmning asosiy tamoyillari dastlab qadimgi Gresiyadagi "dialektik maktab" vakillari- Protagor, Georgiy, Prodik va boshqalar tomonidan ishlab chiqiladi. Ular falsafaning asosiy maqsadi haqiqatni anglash, bunga esa bahs-dialog asosida erishiladi, degan prinsipga tayanadilar. Lekin bu prinsip keyinchalik unutiladi va "bahs bahs uchun", degan tamoyilga aylanadi. Sofizmning asosiy tamoyillari keyinchalik dogmatizm (grekcha -gidogma-aqida, qaror), eklektika ( grekcha yeklektikos -tanlamoq) deb ataladigan oqimlarning yuzaga kelishida asos bo'lib xizmat qiladi.

**Paradoks** (grekcha rara -qarshi va doxa-fikr) ziddiyatli mulohaza bo'lib, u bir paytning o'zida ham chin, ham xato fikr sifatida anglashiladi. Mazkur ziddiyatni formal mantiq vositalari bilan hal qilib bo'lmaydi. Masalan, mantiq ilmida eramizgacha IV asrda yashagan qadimgi grek. faylasufi, miletlik Yevbulid tomonidan ilgari surilgan "Yolg'onchi" nomi bilan ataladigan paradoksni olib qaraylik.

Bir kishi shunday deydi: "Men yolg'on gapirayotirman". Xo'sh u yolg'on gapirayotirmi, yoki rost? "U ham rost, ham yolg'on gapirdi", deb aytish mumkin. Darhaqiqat, u agar aldayotgan, yolg'on gapirayotgan bo'lsa, demak, u yolg'onchi. Agar u aldamayotgan bo'lsa, ya'ni yolg'on gapirayotganligini tan olayotgan bo'lsa, uning gapi rostdir.

Shuningdek, "bu hukm xatodir", desak, agar u haqiqatdan xato bo'lsa, xato, xatoligi chin bo'lsa chindir.

Paradokslarning sababi shuki, muhokamalardagi atama (sub'ekt va predikat) larning hajm va mazmuni noaniq bo'ladi.

"Men yolg'on gapirayotirman" muhokamasini olib qaraylik. Bunda "yolg'on gapirish" tushunchasining mazmuni noaniqdir. Chunki u kishining nima haqida yolg'on gapirayotganligi noma'lumdir.

Agar bu aniq ko'rsatiladigan, konkretlashtiriladigan bo'lsa, mazkur muhokamaning hech qanday paradoksligi qolmaydi.

Masalan, kimdir: "Men Oy Yerning tabiiy yo'ldoshi desam, xato (yolg'on) gapirgan bo'laman" desa, haqiqatdan mavjud narsani inkor etayotganligini e'tirof etishi ma'nosida uning fikri chindir.

Lekin u: "Men Oy Yerning tabiiy yo'ldoshi, deb yolg'on gapirayotirman", deb aytsa, uning fikri xatodir. Chunki u mavjud reallikni inkor etmoqda.

"Bu hukm xatodir", degan mulohazani ham xuddi shu tarzda- uning atamalarini hajm va mazmun jihatidan konkretlashtirilsa, u holda paradokslilik bo'lmaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, qadimdan oq faylasuflar paradokslarning sababini aniqlashga va ularni hal etishning mantiqiy usullari ustida bosh qotirganlar. Masalan, stoiklik mantiqshunos Xrisipp (eramizgacha 281-208 yillar) "Yolg'onchi" paradoksiga bag'ishlab uchta risola yozadi. Rivoyatlarga ko'ra qadimgi grek mantiqshunoslari Diodor Kronos va Filet Kosskiylar ushbu paradoks yechimi bilan butun umr shug'ullanadilar va bunga erisha olmogach, hayotlarini o'z jonlariga qasd qilish bilan tugatadilar.

Hozirgi paytda paradokslarni yechishning ba'zi usullari topilgan bo'lib, ular asosan dialektik mantiq tamoyillariga tayaniladi.

Paradokslar fan sohasidagi antinomiyalarni (grekcha anti- qarama-qarshi, homos- qonun) hal etishga yo'naltiradi va shu jihatdan bilishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki antinomiya fikr yuritishdagi ziddiyatlar bo'lib, uning yechimi bilish jarayoni tarakqiyotining muhim omili hisoblanadi. Mazkur ziddiyatlar esa dialektik mantiq tamoyillari asosida hal etiladi. Masalan, quyidagi antinomiyalarni formal mantiqning nozidlik va uchinchisi mustasno qonunining talablari bo'yicha hal etib bo'lmaydi.

1) Olamning vaqtda boshlanishi bor va u fazoda chegaralangan. Olamning vaqtda boshlanishi yo'q va u fazoda chegaralanmagan.

2) Narsa, hodisalar doimiy o'zgarishda. Narsa, hodisalar nisbiy barqarorlikda, o'zgarishsiz majud.

## **Yuqorida berilgan matndan quyida berilgan savollarga javob bering**

### **SAVOLLAR**

1. Xukm turlari, ularning ta'rifi va tasnifi. **Tayanch iboralar:** murakkab, sodda, mavjudlik, atributiv-aniqlovchi, munosabat, yakka, juz'iy, umumiy xukmlar, zaruriy, birlashtiruvchi, ayiruvchi, shartli, shartsiz.
2. Taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan xukmlar. Ularning bog'lanish shartlari. **Tayanch iboralar:** xukm, sub'ekt va predikat jihatlari.
3. Sig'ishadigan va sig'ishmaydigan xukmlar. Ularning o'zaro munosabatlari. **Tayanch iboralar:** qarama-qarshi xukmlar, chin va xato xukmlar, zid munosabat.
4. Alohida umumiy belgilar. Muhim va muhim bo'lmagan belgilar. Ularning nisbatlari. **Tayanch iboralar:** buyumlarning o'xshashligi va farqi, xususiyatlari, umumiy, yakka, konkret, mohiyat, in'ikos, ob'ektiv, so'z, tushuncha.
5. Taqqoslashning chinligini topish shartlari va ahamiyati. **Tayanch iboralar:** real bog'lanish, qiyoslash belgisi, bir xil belgi, muhim ahamiyatli belgilar, analiz, sintez, abstraksiyalash.
6. Tushunchalarning mazmuni va hajmi, ularning izohi. **Tayanch iboralar:** nisbatli tushuncha, nisbatsiz tushuncha, nisbatdosh tushunchalar mazmuni, tushunchalar xajmi.
7. Konkret va abstrakt tushunchalarning ta'rifi va tahlili. **Tayanch iboralar:** tushuncha, tushuncha mazmuni, real buyum, konkret, ob'ektiv, in'ikos.

8. Nisbatli va nisbatsiz tushunchalar. Ularning mazmuni va ifodalash shartlari. **Tayanch iboralar:** tushuncha mazmuni, nisbatli tushuncha, nisbatsiz tushunchalar, aloqadorlik, ob'ektivlik, in'ikos.
9. Tafakkur shakllari va mantiqiy qonunlar. **Tayanch iboralar:** Tafakkur, tafakkur shakli, to'g'ri tafakkur, chin fikr,
10. Tafakkur qonunlarining umumiy tavsifi. **Tayanch iboralar:** qonun tushunchasi, tafakkur qonunlari, tafakkur qonunlarining xususiyati, tafakkurning ajralmas xislati.
11. Ayniyat qonuni. **Tayanch iboralar:** Ayniyat tushunchasi, aynanlashtirish, ayniyat va tafakkur, ayniyat va simvollar.
12. Ziddiyat qonuni. **Tayanch iboralar:** Ziddiyat va ziddiyatsizlik. Ziddiyat va nozidlikni belgilarda ifodalanishi. Fikr va ziddiyat.

Uchinchisi istisno qonuni. **Tayanch iboralar:** Son va sifat. Istisno va simvollar

**Amaliy mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

1. Tinglovchi berilgan har bir savol bo'yicha o'z fikrini bayon qiladi;
2. Qo'yilgan savolni qanday qilib qulay o'qitish metodlari haqida taklif beradi;
3. Berilgan taklif bo'yicha bir nechta misollar ko'rsatadi;
4. Taklif qilinayotgan zamonaviy ta'lim metodining samaradorligini isbotlaydi.

5-amaliy mashg'ulot. **Ilmiy muammo tushunchasi. Mantiqiy tahlil va uning strukturasi. Mantiqiy bog'liqlik.**

**REJA:**

- 1. Muammo va uning tafakkur jarayonida tutgan o'rni*
- 2. Faraz(gipoteza) va uning turlari*

Mantiqni o'rganishda manbalardan foydalanish masalalari. Ma'naviy hayotda mantiqning tutgan o'rni.

***Muammo va uning tafakkur jarayonida tutgan o'rni***

Bilishning maqsadi qayd qilingan hodisalarning mohiyatini tushuntirishdan iborat. Buni hamma vaqt ham mavjud tasavvurlar, prinsiplar yordamida amalga oshirib bo'lmaydi. Bilish jarayonida ma'lum bir ziddiyatlar, birinchi navbatda, mavjud bilimlarimizning erishgan darajasi bilan yangi bilish vazifalarini hal qilish zaruriyati o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi, muammoli vaziyat paydo bo'ladi. Bunday ziddiyatlar, ayniqsa, kundalik hayotimizda murakkab vazifalarni hal qilish, fanda esa tub burilishlar davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida vujudga keladigan juda ko'p muammolarni yechish uchun yangicha yondashish taqozo etiladi. Masalan, tabiatshunoslik fanida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida radioaktivlik hodisasining qayd qilinishi, elektronning kashf etilishi, nurlanishning kvant xususiyatga egaligining asoslanishi va shu kabi kashfiyotlar natijasida muammoli vaziyat vujudga kelgan. Uning mohiyatini tabiatshunoslikning, birinchi navbatda, fizikaning mavjud qonun va prinsiplarining yangi qayd qilingan hodisalarni

tushuntirish uchun yetarli emasligida, deb bilmoq zarur.

Shuni ham aytish kerakki, ilmiy bilishda muammoli vaziyatni fan taraqqiyotining ichki ehtiyojlari ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, hozirgi paytda fanda sinergetika g'oyalari va metodlarini tushuntirish, matematikada aksiomatikaning imkoniyatlari va qo'llanish sohalarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni hal qilish zaruriyati bunga misoldir.

Demak, muammoli vaziyat mavjud ilmiy tasavvurlar bilan qayd qilingan yangi faktlar o'rtasidagi ziddiyatning paydo bo'lishi yoki ana shu ilmiy tasavvurlar yetarli darajada tizimga solinmaganligi, yaxlit bir ta'limot sifatida asoslanmaganligi natijasidir.

Mana shundan kelib chiqib, **muammoli vaziyat** bilish taraqqiyotining turli bosqich va bo'g'inlarida olam hamda uni bilish haqidagi mavjud tasavvurlarni, bilish metodi va vositalarini o'zgartirishning ob'ektiv zaruriyatidan iborat, deyish mumkin.

### ***Muammoni qo'yish va hal etish***

Muammoli vaziyatni tahlil qilish yangi muammoni yuzaga keltiradi.

**Muammo** – javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va yechish usuli noma'lum bo'lgan savoldir.

Shuning uchun ham muammoni qo'yish va hal qilish mavjud bilimlarni qayta ishlash, ba'zi hollarda esa, hatto, ular doirasidan chetga chiqishni, yangicha yechish usuli, metodlarini qidirib topishni taqozo etadi. Qanday muammolarni ilgari surish va muhokama qilish xususiyatini amaliy faoliyatimiz va bilishimiz ehtiyojlari belgilab beradi.

Muammoni muvaffaqiyatli hal qilishning zarur shartlaridan biri uni to'g'ri qo'yish va aniq bayon qilishdan iborat. To'g'ri qo'yilgan savol, V. Geyzenberg aytganidek, muammoni yechishning yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi.

Muammoni to'g'ri qo'yish uchun muammoli vaziyatni aniq tasavvur qilishning o'zi yetarli emas. Buning uchun muammoni hal qilishning turli xil usullari va vositalarini ham oldindan ko'ra bilish kerak.

Muammolarni qo'yishda kishilarning hayotiy tajribasi, bilimlari va qobiliyati muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Odatda, ko'p hollarda yangi muammolar ilmiy bilishning u yoki bu sohasining yirik mutaxassislari, boy tajribaga ega va chuqur bilimli olimlar tomonidan ilgari suriladi hamda ular ba'zan uzoq yillar davomida tadqiq qilinadi. Buni, masalan, milliy g'oya va milliy mafkurani yaratish muammosining qo'yilishi va tadqiq etilishi misolida ko'rish mumkin. Jahon tajribasiga murojaat qilsak, «millatning mafkurasi bir emas, balki bir necha avlodning umri davomida ishlab chiqilishi va takomilga erishuviga guvoh bo'lishimiz mumkin»<sup>43</sup>.

Uni shakllantirish uchun kuchli iste'dod va «yorqin tafakkur»ga ega bo'lgan Konfutsiy, Maxatma Gandi, Forobiy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk zotlar

---

<sup>43</sup> И.А. Каримов. Миллий истиқлол мафкураси – халқ этиқоди ва буюк келажакка ишончдир. // Асарлар тўплами. 8- жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000, 25-бет.

zahmat chekkanlar<sup>44</sup>.

Hozirgi paytda esa birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «Milliy g'oya, milliy mafkurani ishlab chiqish, uni shakllantirish uchun har qaysi millatning eng ilg'or vakillari, kerak bo'lsa, mutafakkirlari, ziyolilari mehnat qilishi lozim»<sup>45</sup>.

Muammoli vaziyatni tahlil qilishga turli xil tomondan yondashish mumkin bo'lganligi uchun ham hal qilinishi lozim bo'lgan vazifa turli xil muammolar tarzida bayon qilinishi mumkin. Bunda ba'zi muammolar asosiy vazifani ifoda qilsa, ba'zilari bu vazifaning ayrim tomonlarini aks ettiradi va shuning uchun ham juz'iy xususiyatga ega bo'ladi. Ko'p hollarda bir-biri bilan bog'lanib ketgan mana shunday juz'iy muammolar hal qilingandan keyingina asosiy muammoni aniqroq bayon qilish va yechish imkoniyati vujudga keladi.

Muammolarni to'g'ri qo'yish va bayon qilish ularni yechishdan kam ahamiyatga ega emas. Muammoni to'g'ri qo'yish uchun uning ilmiy bilish taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyatini to'g'ri baholash, uni hal qilishning metodlarini topish zarur. Bu amalda qo'yilishi mumkin bo'lgan turli xil muammolar ichidan eng muhimi va to'g'risini tanlab olishni bildiradi. Muammoni tanlash ma'lum bir darajada tadqiqotning umumiy yo'nalishi va xususiyatlarini belgilab beradi.

Oxir-oqibatda qaysi muammoni qo'yish amaliy faoliyatimiz ehtiyojlariga bog'liq. Chunki faqat amaliy faoliyatdagina kishilarning ehtiyojlari va maqsadlari bilan ularni hal qilish vositalari o'rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo'ladi, ilmiy izlanish predmeti aniqlanadi va shu asosda bilish oldiga konkret vazifalar qo'yiladi.

Ilmiy muammo, odatda, ma'lum bir nazariya doirasida vujudga keladi

Nazariya keyinchalik ilgari surilishi mumkin bo'lgan muammoni umumiy holda belgilash va uni to'g'ri tanlashga yordam beradi. Shuningdek, har bir muammo ma'lum bir nazariya yordamida hal qilinadi. Ba'zi hollarda esa muammo mavjud nazariyani modifikatsiya qilish va muammoni yechishga moslashtirishni talab qiladi.

Muammoni yechish uchun quyidagi dastlabki tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi:

a) mavjud nazariyalar doirasida tushuntirib bo'lmaydigan fakt va hodisalarni aniqlash;

b) muammoni hal qilish g'oyalari va metodlarini tahlil qilish hamda ularga baho berish;

v) muammoni hal qilish turi, maqsadi, olingan natijani tekshirish yo'llarini belgilash;

g) muammoning negizi bilan uni yechish uchun ilgari surilgan g'oyalar o'rtasidagi aloqaning xususiyatlarini ko'rsatish.

Bu dastlabki ishlar amalga oshirilgandan keyin bevosita muammoni yechishga kirishiladi.

Shuni alohida qayd qilib o'tish kerakki, muammoning yechilishi nisbiy

---

<sup>44</sup> Қаранг. Ўша ерда.

<sup>45</sup> Қаранг. Ўша ерда.

xususiyatga ega. Boshqacha aytganda, muammoning mutlaq to'la yechimini topish qiyin. Chunki o'rganilayotgan hodisaning barcha tomonlarini qamrab olib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ilmiy izlanish davomida yangi muammolar vujudga kelishi mumkin bo'lib, u mavjud muammoni boshqacha talqin qilishni taqozo etadi. Bunga misol qilib I. Nyuton tomonidan jismlarning o'zaro tortishishi muammosining qo'yilishini ko'rsatish mumkin. Butun olam tortishish qonunini kashf qilib, u faqat tortishuvchi jismlar o'rtasidagi miqdoriy aloqalarnigina topganligini uqtirib o'tgan edi.

A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi jismlarning o'zaro tortishishi muammosini boshqacha talqin qiladi va bu muammo haqidagi tasavvurlarimizni ma'lum bir darajada kengaytiradi. Jismlarning o'zaro tortishishining tabiati, amalga oshish mexanizmi hozirgacha to'la ochib berilmagan. Boshqacha aytganda, muammo uzil-kesil hal bo'lmagan.

Ba'zi hollarda muammolarning yechimini uzoq vaqtgacha topib bo'lmaydi. Masalan, rak kasalining sababini o'rganish bilan bog'liq muammo hozirgacha to'la hal bo'lmagan.

Bu, albatta, ayrim muammolar butunlay yechimiga ega emas, degan fikrni bildirmaydi, balki ularni mavjud metodlar, vositalar yordamida yechib bo'lmaslikni ko'rsatadi xolos, va shu tariqa yechishning yangi vositalarini qidirib topishga undaydi. Demak, muammo hal qilinmaguncha ilmiy izlanish davom etadi.

**MUAMMO**- bu ijtimoiy ehtiyoj natijasi o'laroq yuzaga keladigan masalalar ko'lami bo'lib, ularning yechimi muayyan soha uchun nazariy va amaliy ahamiyatga molik bo'ladi. Muammo shunga ko'ra quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan masaladir.

1. Mavjud qoida, usullar bilan bevosita hal qilib bo'lmaydi.
2. Hal etilishi ba'zi nazariya va qarashlarni (konsepsiyalarni) yangicha talqin etish, o'zgartirish, aniqlik kiritishni taqozo etadi.
3. Hal etilishi fan-texnika, ijtimoiy hayot sohasida tub o'zgarishlarni va shunga muvofiq yangi muammolarni yuzaga keltiradi.

Muammolar birdaniga anglab olinmaydi, ularning nazariy masala sifatida shakllanishi muayyan vaqt - davrni o'z ichiga oladi. Bu pirovardida mavjud ba'zi nazariya, konsepsiyalarni o'zgartirishni taqozo etadi. Masalan, kishilar sababchisi bo'lgan hozirgi ekologik muammolar o'tgan asr oxirlaridan boshlangan bo'lib, faqat asrimizning ikkinchi yarmidan boshlab uning hal etilishi zarurligi anglab olindi. Bu esa «Biz tabiatdan xayr-ehson kutib o'tirmaymiz, uni o'z xohishimiz bilan o'zgartiramiz», degan moddiyunchilik qarashni bekor qilishga olib keldi.

Muammolarning muayyan masalalar-tizimi sifatida ifodalanish shakli savol hisoblanadi. Darhaqiqat, muammolar o'z mohiyatiga ko'ra u yoki bu tarzda qo'yilgan savollar bo'lib, ular zaruran o'z javobini, yechimini talab etadi.

Mantikda savol deb hal etilishi zarur bo'lgan masalaga doir fikrga aytiladi. Savol so'roq gaplarda ifodalanadi, lekin har qanday so'roq gaplar mantiqiy savolni ifodalamaydi.

Barcha muayyan nazariy va amaliy ahamiyatga molik muammoga javob topishga qaratilgan so'roq gaplarga mantiqiy savol hisoblanadi. Savol muammoni ifodalash va uni hal etishga qaratilgan bilishning shakli bo'lib, metodologik

ahamiyatga egadir.

Barcha fanlar bilimlar tizimi sifatida o'z muammolarini qo'yish orqali rivojlanadiki, ular mantiqiy savollar tarzida ifodalanadi. Masalan, falsafaning azaliy muammolari «Olamning asosida nima yotadi?», «Vaqt va fazo nima?», «Inson kim, uning mohiyatini nima tashkil etadi?» degan savollar tarzida tuziladi. Va ana shu savollarga berilgan javoblarga ko'ra falsafiy oqim, ta'limotlar yuzaga keladi.

O'zbekistonning kelajagi ana shunday savollarga qanday javob berishimizga bog'liq. Bular quyidagilardir: xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim?, Barqarorlikni qanday ta'minlash darkor? Taraqqiyot yo'lidan sobitqadam rivojlanishiga nimalar hisobiga erishish mumkin? Bular strategik muammolar bo'lib har qanday mustaqil davlat eng avvalo, ana shu muammolarga e'tibor berib kelgan va bundan buyon ham e'tibor berajak».<sup>46</sup>

Savol bilish jarayonida muammo, gipotezalarni ilgari surishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun oddiy muhokama yuritish hamda ilmiy tadqiqot ishlarida mantiqiy savolga murojaat etiladi.

**Mantiqiy savol**– bu inson bilimidagi ikkilanish, noaniqliklarni bartaraf etishga hamda tadqiq etilayotgan ob'ektlar haqida to'liq bilim olishga qaratilgan fikrdir. Savollar tuzulishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: yechimga doir va to'ldirishga doir savollar. Qo'yilgan muammolarning hal etilish yo'llarini aniqlashga qaratilgan savol yechimga doir savol hisoblanadi. Masalan, «Mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak?» (Islom Karimov). To'ldirishga doir savol – bu berilgan muqobil /alternativ/ hukmlar guruhiga to'g'ri /chin/ javob topishga qaratilgan savoldir.

Savol mantiqiy tarkibga ega, ya'ni u o'zida muayyan bilimni ifodalaydi. Masalan, «Kim birinchi bo'lib Amerikani kashf etgan?», degan savoldan «Ma'lum bir davrgacha Amerika qit'asi kishilarga noma'lum bo'lgan, ushbu qita biror kishining sayi- harakati bilan kashf etilgan», degan fikr anglashiladi.

Savol mantiqiy tarkibiga ko'ra ikki xil bo'ladi: yechimga va to'ldirishga doir savol. **Yechimga doir savolda** muayyan muammoni hal etish imkoniyatlarining bir-birini istisno etuvchi holat, variantlari ilgari suriladi. Masalan: "Insoniyat yer yuzida o'zi bunyod etgan sivilizatsiyani kelajakda saqlab qola oladimi yoki yo'qmi?".

**To'ldirishga doir savolda** muammoning yechimi uchun eng muhim omilni aniqlab olishga diqqat -e'tibor qaratiladi. Bunga misol qilib Prezidentimizning yuqorida zikr qilingan asarida mamlakatimiz tarakqiyotining- strategik yo'nalishi, uning kafolatlarini mantiqiy savollarni qo'yish - bilan belgilanadi va ularning omillari tinchlik barqarorlik va jug'rofiy -siyosiy muvozanatni saqlab qolish, unga erishish ana shunday omillardan biri ekanligi ko'rsatib beriladi.<sup>47</sup>

Savollarning mantiqiy tarkibini aniqlash va ularni grammatik shaklda ifodalay bilish muammolarni ilgari surish va ularning yechimini topishda muhim rol o'ynaydi.

---

<sup>46</sup> Каримов И.А.Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент: “Ўзбекистон”, 1997,7-8-бетлар.

<sup>47</sup> Қаранг: Ўша жойда, 9- бет.

Muammolar o'z miqyosi va ahamiyatiga ko'ra turli darajalarda bo'lib, har xil usul, yo'llar orqali yechiladi, shulardan uch xilini ko'rsatish mumkin:

1. Mavjud nazariya, g'oya, qarashlar doirasida yechiladigan muammolar. Mazkur muammo turi yechimi ijtimoiy hodisalarni hal etishda keng qo'llaniladi. Masalan, bugungi kunda milliy istiqlol g'oyasini kishilarimizning qalbi va ongiga singdirish muammosi kun tartibidagi dolzarb vazifa hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun esa, eng avvalo, «G'oya nima, uning qanday turlari bor?», «G'oyaning kishi qalbi va ongiga ta'sir ko'rsatish, singdirishning qanday vosita, usullari bor?» degan savollarni ko'ndalang qo'yishni va ularga batafsil, ilmiy javoblar topish talab etiladi.

2. Bir qator nazariyalar orqali amalga oshiriladigan muammolar yechimi. Masalan, mamlakatimizda o'ziga xos modeldagi fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish muammosining yechimi shu haqidagi mavjud ta'limotlar doirasida talqin qilinadi, chunki bunda fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlar, ta'limotlarga tayanilgandir.

Z. Yangi nazariyalar yaratilishi taqozo etadigan muammolar yechimi Masalan, mustaqillikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan «Milliy istiqlol g'oyasi» ta'limoti-nazariyasi ana shunday muammo yechimi tahlilining natijasidir.

Muayyan qoidalarga amal qilinadigan paytdagina muammolar yechimi usuli bilish shakli vazifasini o'taydi. Bular:

1. Savol odob doirasida ig'vogarliksiz, to'g'ri qo'yilishi kerak.
2. Aniqlovchi savollarning alternativ javoblarni nazarga olish lozim.
3. Savol qisqa, lo'nda va aniq bo'lishi kerak.
4. Murakkab ayiruvchi savollarda barcha alternativalar ko'rsatib o'tilishilozim.
5. Savol ritorik tarzda tuzilmasligi zarur. Chunki ritorik savollar fikrpredmetining xususiyatini o'ziga xos tasdiq tarzida ifodalovchi fikr shaklidir

Mantiqiy savollar, ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida muhim rol o'ynaydi. Chunki o'quvchi, talabalarni fan asoslarini o'rganishga jalb etish, qiziqtirishning zarur sharti bo'lgan darslarda muammoviy vaziyatlarni yuzaga keltirishi mantiqiy savollarni tuzish orqali amalga oshiriladi.

### **Faraz(gipoteza) va uning turlari**

Muammolarning yechimi qanday usulda bo'lmasin, faraz-gipotezalarni ilgari surishni talab etadi. **Gipoteza** (yunoncha hypothesis-faraz, taxmin) bilish jarayoni, muammolarni hal etishda yuzaga keladigan ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan ehtimolli fikr bo'lib, tadqiq etilayotgan hodisaning sababi, xususiyatlarini aniqlashga qaratilgai bo'ladi. **Faraz** fikr shakli sifatida quyidagi belgilarga ega:

1. Bilish taraqqiyotning shakli ekanligi. Barcha fanlar sohasida bilmaslikdan (nisbiy bilimdan) bilishga, mutlaq haqiqatga o'tish jarayoni farazlarni ilgari surish va ularning chin yoki xatoligini asoslash tarzida kechadi.

2. Hodisalarning sabab va oqibat bog'lanishlarini aniqlash, mavjud faktik materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish bo'yicha ilgari surilishligi, shu ma'noda faraz- bu har qanday taxmin bo'lmasdan, muayyan ilmiy asosga ega bo'lgan ehtimolli bilimlardir.



Z.Farazlarning amaliyotda tasdiqlanishi yangi bilimlarni hosil qiladi va uning negizida yana boshqa ilmiy taxminlar ilgari suriladi.

4. Farazlarni ilgari surishning mantiqiy asosini analogiya bo'yicha xulosa chiqarish tashkil etadi.

Tadqiq ob'ektiga ko'ra faraz ikki turga ajratiladi: umumiy va xususiy.

**Umumiy faraz** deb muammo darajasidagi tabiiy va ijtimoiy hodisalarning sabab va oqibat bog'lanishlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy taxminga aytiladi. Akademik A.G.Oparin (1894-1980) tomonidan ilgari surilgan Yerda hayotning paydo bo'lishi haqidagi, shuningdek, Quyosh tizimidagi planetalarning kelib chiqishi, Yerdan boshqa planetalarda organik materiyaning borligi va boshqa shu kabi ilmiy taxminlar umumiy farazlar hisoblanadi.

**Xususiy faraz** ayrim narsa-hodisalarning yuzaga kelishi, xususiyatlari haqidagi ilmiy taxmindir. Har bir fan sohasida tadqiq etilayotgan ob'ekt bo'yicha yoki bu tarzdagi taxminlar qilinadiki, ular o'z ko'lami va ahamiyatiga ko'ra xususiy farazlar sanaladi. Masalan, mediklar bedavo kasalliklarini sababini aniqlash bo'yicha farazlarni olg'a suradilar va shu bo'yicha tadqiqot ishlari olib boradilar. Sud-tekshiruv ishlarida keng qo'llaniladigan versiya-taxminlar tuzishda ham mantiqiy faraz tamoyillariga tayaniladi. Farazlarning ishonchli ilmiy nazariyalarga aylanishida mantiqiy tasdiqlash (isbotlash) usuli muhim rol o'ynaydi. Farazning mantiqiy tasdiqlash usuli-bu uning asosiy mazmunini natija sifatida dedukativ yo'l bilan keltirib chiqarish va uni keyinchalik faktlar bilan solishtirish, tajriba, eksperimentlar o'tkazish, ya'ni induktiv metodlar vositasida asoslashdir.

Bunga misol kilib Quyosh sistemasida Neptun planetasining kashf etilishini keltirish mumkin. Noma'lum planeta haqidagi gipoteza I.Keplerning planetalar harakati orbitasi va butun dunyo tortilish qonuni asosida ilgari suriladi va keyinchalik tadqiqotchilar tomonidan ushbu planetaning Quyosh tizimidagi o'rni (Quyoshdan 4500 mln. km uzoqlikdaligi, diametri- 30100 km, atmosfera tarkibi  $SN_4 N_2$ ) aniqlanildi.

Nazariy tadqiqotlarning maqsadi empirik tadqiqot davomida o'rnatilgan faktlarni tushuntirish, bashorat qilish va sistemalashtirishga imkon beradigan qonun va prinsiplarni aniqlashdan iborat.

Metodologiyada "faraz"- "gipoteza" atamasi ikki ma'noda ishlatiladi: 1) Bilimning mavjudlik shakli sifatida muammolilik, ishonchsizlikni ifodalashi; 2) G'oyalarni tushuntirib beruvchi, shakllantiruvchi va asoslovchi metod sifatida qonun, nazariyalarni o'rnatishga eltuvchi yo'l

Gipoteza strukturasi bilan tanishish bu metod to'g'risida yaxshi tasavvur beradi. Faraz bilish metodi sifatida bir qancha bosqichlardan iborat bo'ladi.

- 1) ilgari surilgan taxminga taalluqli faktlar, empirik dalillar bilan tanishish;
- 2) o'rganilayotgan hodisalar sabablarini induktiv metodlar bilan aniqlash;
- 3) ilgari surilgan farazni unga daxldor boshqa farazlar bilan takqoslash va ehtimolga yaqinini tanlash;
- 4) ilgari surilgan farazni tajribada, eksperimental empirik tekshirib ko'rish va induktiv va deduktiv metodlar yordamida uning chin yoki xatoligini ko'rsatish.

Fanlardagi, ayniqsa, aniq fanlardagi ilmiy nazariyalar, kashfiyotlar gipoteza bosqichlarining yakuniy xulosalari hisoblanadi.

Gipoteza uslubining umumiy tuzilishi tamoyillarini yaxshi bilish fan rivojiga xizmat qiladigan farazlarni ilgari surish va ularning chin xatoligini aniqlashga yordam beradi.

Ijtimoiy hayot sohasida farazlar muayyan muammolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar hamda hal etilishining yo‘l-yo‘riklarini chuqur tahlil etilishi asosida ilgari suriladi. Bu orqali jamiyat taraqqiyoti yo‘nalishi haqida bashoratlar qilinadi.. Bunga misol tariqasida Prezidentimiz Respublikamizning hozirgi kundagi ichki imkoniyatlarini, salohiyatlarini, xalqaro nufuzini chuqur tahlil qilishi asosida uning kelajagi haqidagi ilgari surgan ilmiy farazni keltirish mumkin. Aminmanki, deb bashorat qiladi u, mamlakatimiz XXI asrda jahon iqtisodiyoti, madaniyati va siyosatida munosib o‘rin oladi.<sup>48</sup>

**Nazariya** ilmiy bilimlar tizimi bo‘lib, faraz-gipotezalar negizida shakllanadi. Nazariya- bu chinligi, haqiqatligi ilmiy jihatdan to‘liqasoslangan va amaliyotda tekshirilgan, tasdiqlanilgan, tizimlashtirilgan bilimlar majmuidir. Har qanday fanlar nazariyalarga tayanadi. Nazariyada tadqiq etiladigan ob’ektlar, modellar, ya’ni ideallashtirilgan tarzda aks ettiriladi.

Bunda mavhum atama, tushuncha, formulalar hosil qilinadi. Ob’ektlarni ideallashtirish ijtimoiy fanlarda ham qo‘llaniladi. Masalan, falsafa, iqtisodiy nazariya fanlari eng umumiy tushuncha- kategoriyalar bilan ish ko‘radilar. Masalan: «makon», «zamon», « borliq", «harakat», «qiymat», «tovar» va boshqalar. Nazariyalar o‘zida bilimlarni qay darajada, usulda umumlashtirish, ideallashtirish xarakteriga ko‘ra deduktiv va nodeduktiv (induktiv) turlarga ajratiladi. Deduktiv nazariyalar mavjud nazariya, aksioma, qoidalar asosida shakllanadigan ilmiy bilimlar tizimidir. Masalan, I.Kepler (1571-1630) planetalar harakati(orbitasi)ga doir qonunlarini butun dunyo tortilish "qonuniga tayangan, undan kelib chiqqan holda kashf etadi.

Islom Karimovning mustaqil O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyoti masalasiga oid nazariy -metodologik ahamiyatga molik “o‘zbek modeli” tamoyillari jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlariga asoslangan tarzda ishlab chiqilgandir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan Xarakterlar strategiyasi xam ana shu jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlariga asoslangandir.

Induktiv nazariyalar bevosita empirik tajriba, eksperimentlar asosida shakllanadi. Bunda induktiv metodlardan foydalaniladi va narsa, hodisalarning aniqlanilgan eng muhim belgi, xususiyatlari umumlashtiriladi va qonuniyatlari ochib beriladi. Aniqfanlar, xususan, fizika, ximiya, biologiya kabi fanlarning qonunlari mohiyatan induktiv nazariyalar hisoblanadi. Masalan, Om qonunini olib qaraydigan bo‘lsak, u empirik tadqiqotlarning natijasi o‘laroq kashf etilgandir. Darhaqiqat, zanjirning bir qismidagi tok uchun shu qism kuchlanishiga teskari proporsional, degan xulosani deduktiv yo‘l bilan chiqarib bo‘lmaydi.

Mantiq bilimlarni tizimlashtirishda metod vazifasini o‘taydi. Bilimlarning tizimliliigi - bu eng avvalo ularning g‘oyat aniq, lo‘nda ta’riflarda ifodalanishi bilan izohlaniladiki, bu tafakkurning qonun, shakllari va barcha mantiqiy usullarga qat’iy

---

<sup>48</sup>Қаранг: И.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Т.: «Ўзбекистон», 1997, 15-бет.

rioya qilishni talab etadi.

Har bir nazariya, qonun mohiyatan mantiqiy xulosa chiqarishning yakuni bo'lib, ular ilmiy ta'riflarda ifodalanadi. Mantiq fanining bilish jarayonida tutgan yo'li, nazariy-metodologik funksiyasi bugungi fan-texnika, axborot texnologiya davrida yanada oshib bormoqsa. Eng muhimi - mantiq ilmi hozirgi globallashuv davrida fan, texnika yutuqlarini gumanistik maqsadlar uchun yo'naltirishga, ma'naviyatni anglab olishiga xizmat qiladigan fan maqomatini olmoqda.

**Yuqorida berilgan matndan quyida berilgan savollarga javob bering.**

#### **SAVOLLAR**

1. Yetarli asos qonuni. **Tayanch iboralar:** Isbot va ishonch. Intuitsiya. E'tiqod. Avtoritar tafakkur. Yetarli asos qonunini belgilarda ifodalanishi.
2. Murakkab hukmlar. **Tayanch iboralar:** Hukm terminlari, kon'yuktiv hukmlar, ayiruvchi (dizyunktiv) hukmlar, shartli hukmlar.
3. Tushunchaning turlari. **Tayanch iboralar:** yakka tushunchalar, umumiy tushunchalar, abstrakt, mavhum tushunchalar.
4. Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar. **Tayanch iboralar:** taqqoslanadigan tushunchalar, taqqoslanmaydigan tushunchalar, sig'ishadigan tushunchalar, sig'ishmaydigan tushunchalar, moslik, buysunish.
5. Oddiy hukmlar. **Tayanch iboralar:** Oddiy hukmlar, tasdiq hukmlar, inkor hukmlar, yakka hukmlar, juz'iy hukmlar, umumiy hukmlar.
6. Hukmlarning modalligi. **Tayanch iboralar:** modal hukmlar, zaruriy hukmlar, voqeiy hukmlar, apodiktik hukmlar.
7. Sillogizmning umumiy qoidalari: **Tayanch iboralar:** Sillogizm terminlari, katta termin, kichik termin, o'rta termin.
8. Sillogizm aksiomasi. **Tayanch iboralar:** atributiv, sillogizm terminlari, miqdor va sifat.
9. Sillogizm tarkibi. **Tayanch iboralar:** Xulosa asoslari, xulosa terminlari, katta asos, kichik asos.

#### **Amaliy mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

1. Tinglovchi berilgan har bir savol bo'yicha o'z fikrini bayon qiladi;
2. Qo'yilgan savolni qanday qilib qulay o'qitish metodlari haqida taklif beradi;
3. Berilgan taklif bo'yicha bir nechta misollar ko'rsatadi;
4. Taklif qilinayotgan zamonaviy ta'lim metodining samaradorligini isbotlaydi.

## AMALIY MASHG'ULOTLARNI BAJARISH NAMUNASI

### mavzu bo'yicha topshiriqlar

3 guruhga bo'lining va berilgan savollar bo'yicha fikringizni bildiring.

#### **1- guruh uchun:**

- A) Etika va estetika fani bo'yicha malaka talablari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari;
- B) Etika va estetikaning boshqa fanlar bilan uzviyligi va uzluksizligi holati;
- V) "Muammoni hal qilishning Rasselcha usuli" ta'rifini qanday tushunasiz?

#### **2- guruh uchun:**

- A) Etika va estetika fani bo'yicha malaka talablari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari;
- B) Etika va estetikaning boshqa fanlar bilan uzviyligi va uzluksizligi holati;
- V) "Muammoni hal qilishning Rasselcha usuli" ta'rifini qanday tushunasiz?

#### **3- guruh uchun:**

- A) Etika va estetika fani bo'yicha malaka talablari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari;
- B) Etika va estetikaning boshqa fanlar bilan uzviyligi va uzluksizligi holati;
- V) "Muammoni hal qilishning Rasselcha usuli" ta'rifini qanday tushunasiz?

## V. GLOSSARIY

№	TERMIN	SHARHI	TARJIMA
1	<b>Absolyut aynanlik</b>	metafizik filosofiyada ishlatiladigan termin bo'lib, bu ta'limotga ko'ra predmet hamma vaqt o'z-o'ziga tengdir. Bu prinsip ontologik nuqtai nazardan voqelikka ziddir. Chunki narsa va hodisalar har doim rivojlanib turadi. Demak, narsalar o'z-o'ziga teng bo'lmay qoladi.	is a term used in metaphysical philosophy, according to which the subject is always equal to itself. This principle is contrary to reality from an ontological point of view. Because things and events are always evolving. So things don't get equal on their own.
2	<b>Abstraksiyalash</b>	(lot. abstractio – uzoqlashuv, mavhumlik) – tushuncha hosil qilishning muhim usullaridan. Abstraksiyalash yordamida buyum va hodisalarning muhim xususiyatlarini fikran ajratamiz va ularni buyumlar, hodisalarning ikkinchi darajali va ahamiyati kam xususiyatlaridan chetlashtiramiz.	(lat. abstractio - distance, abstraction) - one of the important ways of forming a concept. With the help of abstraction, we distinguish the important features of objects and events and exclude them from the secondary and insignificant features of objects, events.
3	<b>Absurd</b>	(lot. bema'ni, behuda) – biror tezisni isbotlashda uchraydigan mantiqiy xato. Bunday xato (redictio ad absurdum) biror mantiqqa zid bo'lgan bema'ni xulosaga kelish deb ataladi.	(Lat. nonsense, in vain) - a logical error in proving a thesis. Such a mistake (redictio ad absurdum) is called a nonsensical conclusion that contradicts a logic.
4	<b>Aksioma</b>	(grek. axioma – qabul qilingan holda) – ma'lum nazariyani isbotlash uchun isbotsiz qabul qilingan tushuncha. Mantiq fanida aksioma isbotsiz qabul qilingan haqiqat ma'nosida ishlatiladi. U ilmiy nazariyalarning deduktiv hulosalar chiqarish yordamida tashkil topish usullaridan biri. Shuning uchun «deduktiv metod» va aksiomatik metod ko'pincha aynan tushunchalar sifatida ishlatiladi.	(Greek. axiom - accepted) - a concept accepted without proof to prove a particular theory. In the science of logic, an axiom is used in the sense of a truth accepted without proof. It is one of the ways in which scientific theories are formed using deductive reasoning. Therefore, the “deductive method” and the axiomatic method are often used as exact concepts.
5	<b>Barbara</b>	sillogizmning birinchi figurasi va birinchi modusini (AAA) ifodalovchi belgi.	a symbol representing the first figure and the first mode (AAA) of the syllogism.
6	<b>Genezis</b>	(grek. genesis – kelib chiqish) - ma'lum predmet va hodisalar to'g'risidagi fikr hamda mulohazalarning paydo bo'lishi, shakllanishi, tug'ilishi.	(Greek. genesis - origin) - the emergence, formation, birth of thoughts and opinions about a particular object and event.
7	<b>Gipoteza</b>	(grek. hupotesis – asos, prinsip, faraz) – hali isbotlanmagan nazariy fikr, faraz. Gipoteza ma'lum natijalarni tug'dirgan sabab haqida qilingan farazdir. Gipotezani ilgari surish, asoslash va isbotlash - ilmiy bilishning rivoji uchun zarur metoddir. Gipotezaning	(Greek. hupotesis - basis, principle, hypothesis) - a theoretical idea, hypothesis that has not yet been proven. The hypothesis is an assumption made about the cause that gave rise to certain results. Proposing,

		nazariyaga aylanishi uchun uni tekshirish kerak. Gipotezani tekshirish natijasida: a) uning ehtimolligi ortadi; b) haqiqatligi isbotlanadi, nazariyaga aylanadi; v) gipoteza rad etiladi. Barcha nazariyalar gipoteza bosqichini bosib o'tadi. Gipoteza praktikada isbotlangandan so'ng ishonarli nazariyaga aylanadi.	substantiating, and proving a hypothesis is a necessary method for the development of scientific knowledge. For a hypothesis to become a theory, it must be tested. As a result of testing the hypothesis: a) its probability increases; b) is proved to be true, becomes a theory; c) the hypothesis is rejected. All theories go through the hypothesis stage. Once a hypothesis is proven in practice, it becomes a plausible theory.
8	<b>Gnoseologiya</b>	(grek. gnosis – bilim, logos - ta'limot) – bilish nazariyasi, filofofiyaning muhim sohasi:	(Greek. gnosis - knower, logos - doctrine) - the theory of knowledge, an important branch of philosophy:
9	<b>generalisatio</b>	(lot.) yakkadan umumiyga qarab umumlashtirish;	(lat.) generalization from individual to general;
10	<b>Deduktiv hulosa</b>	-umumiy chin asoslardan shu umumiylikka kiruvchi xususiylik va yakkalik haqida yangi bilim beruvchi xulosa shakli.	a form of conclusion that gives new knowledge about the particularity and individuality that is part of this commonality from the common true foundations.
11	<b>Dezinformatsiya</b>	- noto'g'ri axborot berish, odamlarni chalg'itish, yolg'on xabar tarqatish.	- misinformation, misleading people, spreading false information.
12	<b>Deduksiya</b>	(lot. deductio – xulosa chiqarish) – keng ma'noda xulosa chiqarishning asosiy usul va tadqiqot metodlaridan biri.	(lat. deductio - drawing conclusions) - in a broad sense, one of the main methods of drawing conclusions and research methods.
13	<b>Jins</b>	bir sinfga kiruvchi predmetlarning mantiqiy tavsifi bo'lib, bu sinf o'z ichiga boshqa tur sinflarni qamrab oladi. Masalan: "daraxt" tushunchasi mevali va mevasiz daraxtlarga nisbatan jins bo'lib, unga kiruvchi "mevali", "mevasiz" lar daraxtning turlaridir.	is a logical description of objects that fall into one class, and that class includes other types of classes. For example, the concept of "tree" is a genus of fruit and non-fruit trees, and the "fruit" and "fruitless" species are tree species.
14	<b>Zaruriy xulosa chiqarish -</b>	deduktiv hulosa chiqarishning boshqacha nomi. Unda asos bo'lib keluvchi hukmlardan hulosa muqarrar ravishda kelib chiqadi. Xulosa asoslarda imlitsit tarzda mavjud bo'lib, o'sha asoslardan natija o'z-o'zidan kelib chiqadi.	another name for deductive reasoning. A conclusion inevitably follows from the judgments on which it is based. The conclusion exists in the form of imlitsit in the bases, from which the result arises spontaneously.

15	<b>Ziddiyatsizlik qonuni</b>	(lot. lex contradictionis) - formal mantiqning asosiy qonunlaridan bo'lib, u quyidagicha ifodalanadi: ayni bir predmet haqida aytilgan ikki o'zaro bir-birini istisno etuvchi fikrlar ayni bir vaqtning o'zida va aynan bir nisbatda birdaniga to'g'ri bo'lishi mumkin emas. Masalan: «Pomir – baland tog'». «Pomir – past tog'». Bular birdaniga to'g'ri bo'lishi mumkin emas. Uning formulasi: $\neg (A \wedge \neg A)$ . Formulaning o'qilishi: A va A emas bir vaqtda bo'lishi mumkin emas.	(lat. lex contradictionis) is one of the basic laws of formal logic, which is expressed as follows: two mutually exclusive opinions about the same subject cannot be true at the same time and in the same proportion. For example: "Pamir is a high mountain". "The Pamirs are a low mountain." These may not be true all at once. Its formula is: $\neg (A \wedge \neg A)$ . Reading the formula: A and A cannot be at the same time.
16	<b>Zaruriy hukm</b>	predmet va uning belgilari muqarrar ravishda tasdiqlanadigan yoki inkor qilinadigan hukm.	the subject and its attributes are inevitably affirmed or denied.
17	<b>Ideal</b>	(grek. – idea – tarz, obraz, tushuncha) – kamolot, ayrim kishi, guruh, sinfning intilishi va xatti-harakatini biron-bir narsada namuna qilib belgilaydigan oliy maqsad. Ideal matematik mantiqda ma'nosi bo'lmagan (juda bo'lmaganda bir elementga ega bo'lgan) to'plam bo'lib, grekcha $\Delta$ harfi bilan belgilanadi.	(Greek. - idea - style, image, concept) - perfection, the highest goal that defines the aspirations and behavior of an individual, group, class as an example in anything. An ideal is a set that has no meaning in mathematical logic (with at least one element) and is denoted by the Greek letter D.
18	<b>Idealizatsiya -</b>	maxsus abstrakt ideallashtirilgan ob'ektlar tuzishni ifodalovchi ilmiy tadqiqot usuli. Bu usul ob'ektlarni «sof shaklda» o'rganish maqsadida qurilgan fikriy konstruksiyalardan iborat bo'lib, u real holda uchramaydi, ammo o'zining biron timsoliga ega: Masalan: geometriyada «nuqta», fizikada «absolyut qattiq jism» kabi va hokazo.	a method of scientific research that represents the creation of special abstract idealized objects. This method consists of intellectual constructions designed to study objects in "pure form", which does not occur in real life, but has some form of its own: For example: "point" in geometry, "absolutely solid body" in physics, and so on.
19	<b>Katta termin</b>	sillogizmning katta asosida joylashgan termin bo'lib, u hulosaning predikatidir.	is a term based on the large base of the syllogism, which is the predicate of the conclusion.
20	<b>Kategoriya</b>	(grek. kategoria – ta'rif berish, fikr aytish) – ob'ektiv reallikdagi hodisalarning asosiy xususiyat va qonunlarini aks ettiradigan hamda	(Greek. kategoria - to describe, to express an opinion) - general concepts that reflect the basic features and laws of phenomena

		<p>davrning ilmiy-nazariy muhitini, tafakkurning xarakterini belgilab beradigan umumiy tushunchalar. Formal mantiqda esa kategoriya umumlashtirishning chegarasi hisoblanadi</p>	<p>in objective reality and determine the scientific and theoretical environment of the period, the nature of thinking. In formal logic, however, a category is the limit of generalization</p>
--	--	--	---



## **VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunining yangi tahriri. T.: Adolat, 1998.
8. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyul “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-sonli Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy

salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli [Farmoni](#).

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli [Farmoni](#).

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 sentabrdagi “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4436-sonli Qarori

### **Sh. Maxsus adabiyotlar**

21. “Markaziy Osiyo dinlari tarixi” (hammualliflikda). -T., TDSHI, 2006.
22. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
23. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
24. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
25. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
26. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
27. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
28. Abdulhakim Shar‘iy Jo‘zjoniy. Islom huquqshunosligi. Hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2002. – 256 b.
29. Abduhalimov B. Bayt al-hikma va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati. –T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2004. – 236 b.
30. Ali-zade Ayдын Arif ogli. Xronika musulmanskix gosudarstv. – M.: UMAA, 2007. – 445 s.
31. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Yu. i dr. Sovremennye obrazovatelnye tehnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo sRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
32. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

33. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlari: T.1. (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) T.: Fan, 1968.

34. Bosvort K. E. “Musulmon sulolalari”. – T.: “Fan” nashriyoti, 2007. – 271 b.

35. Vohidov Sh., Qodirov A. “Sharqning mashhur sulolalari”. – T.: Akademnashr, 2013. – 624 b.

36. Gulobod Quadratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

37. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – T.: Islom universiteti, 2010.

38. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.Ye. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

39. Ignatova N. Yu. Obrazovanie v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. [http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0\\_2017.pdf](http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf)

40. Ishmuhammedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

41. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. –T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.

42. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O‘zbekiston, 2000.

43. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

44. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. [https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3\\_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf](https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf)

45. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

46. Husniddinov Z.M. “Islom: yo‘nalishlar, oqimlar, mazhablar”. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2000 yil.

#### **IV. Internet saytlar**

47. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

48. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi




49. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

50. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet

**Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida 2022 yil aprel-may oylarida o'tkaziladigan Falsafa yo'nalishi o'quv-uslubiy majmualari bo'yicha  
EKSPERT XULOSASI**

Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida 2022 yil aprel-may oylarida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining "Falsafa" yo'nalishi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi mutaxassislik fanlaridan tuzilgan o'quv-uslubiy majmualar va chiqish testi savollari maxsus fanlar blokidagi modullarning o'quv dasturiga mos va uni to'liq qamrab olgan holda tuzilgan. Test savolari 4 ta muqobil javobda tuzilib, 1 ta to'g'ri javobni o'z ichiga oladi. O'quv-uslubiy majmua va test savollari qo'yilgan talablarga javob beradi.

**Ekspertlar**

Karimov Soibnazar	SamDU, Falsafa kafedrası mudiri, f.f.d.	
Allayarova Marxabo	SamDU, Falsafa kafedrası dotsenti, f.f.n.	
Meliyev Baxtiyor Abduxomidovich	SamDU mintaqaviy markaz bo'lim boshlig'i, g.f.f.d.	

**Mintaqaviy markaz direktori,  
geografiya fanlari doktori, professor:**

**S.B.Abbasov**

## ЭКСПЕРТНОЕ ЗАКЛЮЧЕНИЕ

### Об учебно-методических комплексах по направлению Философия, которые пройдут в апреле 2022 года в Региональном центре переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Самаркандском государственном университете

В апреле 2022 года Региональном центре переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Самаркандском государственном университете проведет курс переподготовки и повышения квалификации преподавателей высших учебных заведений по направлению «Философия». Учебно-методические комплексы соответствуют с учебным планом модулей специального научного блока и полностью охватить его. Учебно-методические комплексы соответствуют современным требованиям.

#### Зарубежный эксперт:

Кандидат философских наук, доцент  
кафедры культурологии  
«Худжандского государственного  
университета имени Б.Гафурова»



Усанов Р.Т